7. Yorug'lik qutblanganligini tekshiruvchi qurilma qanday nomlanadi?

- A) Analizator
- B) Polyarizator
- C) Prizma
- D) Fotometr

8. Tabiiy nurni qutblangan nurga aylantiruvchi qurilma nomi?

- A) Polyarizator
- B) Shisha prizma
- C) Fotometr o'tkazgich
- D) Analizator

9. Malyus formulasini ko'rsating?

- A)  $I = I_0 \cos^2 \alpha$

- B)  $I_0 = I \cos^2 \alpha$
- C)  $W = I/I_0 \sin^2 \alpha$
- D)  $W = I_0/I \cos^2 \alpha$

10. Kogerent to'lqinlar qanday to'lqinlar?

- A) Fazalar farqi doimiy va chastotasi o'zgarmas bo'lgan to'lqinlarga aytiladi
- B) To'lqin uzunligi o'zgarmas bo'lgan to'lqinlarga aytiladi
- C) Chastotasi o'zgarmas bo'lgan to'lqinlarga aytiladi
- D) Doimiy fazaga ega bo'lmagan to'lqinlarga aytiladi

11. Kogerent to'lqinlar qanday to'lqinlar?

- A) Fazalar farqi doimiy va chastotasi o'zgarmas bo'lgan to'lqinlarga aytiladi
- B) To'lqin uzunligi o'zgarmas bo'lgan to'lqinlarga aytiladi
- C) Chastotasi o'zgarmas bo'lgan to'lqinlarga aytiladi
- D) Doimiy fazaga ega bo'lmagan to'lqinlarga aytiladi

12. To'lqinlar interferensiyasi deb nimaga aytiladi?

- A) Kogerent bo'lgan to'lqinlar qo'shilganda bir - birini kuchaytirishi yoki susaytirishiga aytiladi
- B) Kogerent bo'lmagan to'lqinlar qo'shilishiga aytiladi
- C) Kogerent to'lqinlar qo'shilganda bir - birini o'chirishiga aytiladi
- D) Kogerent to'lqinlar qo'shilganda bir - birini kuchaytirishiga aytiladi

13. Difraksiya hodisasi deb nimaga aytiladi?

- A) Yorug'lik nurining to'siqlarni aylanib o'tishiga aytiladi
- B) Yorug'lik nurining kristall panjaradan o'tishiga aytiladi
- C) Yorug'lik nuriga qo'shib bir biriga halaqit bermay o'tishiga aytiladi
- D) Nurlarning kuchayib, bir - birini yo'qotishiga aytiladi

14. Dispersiya hodisasi deb nimaga aytiladi.

A) Yorug'lik nuri prizmadan o'tganda prizmaning orqa tomonida kamalak rangga boyalgan yorug' nurlar hosil bo'lishiga aytiladi

B) Yorug'lik nurining qutblanishi

C) Yorug'lik nurining kuchayishi

D) Yorug'lik nurining ikkilanib sinishi

15. Normal dispersiya nima?

A) Chastota oshganda sindirish ko'rsatkichi oshsa

B) To'lqin uzunligi oshsa sinish ko'rsatkichi o'zgarmas bo'lsa

C) Chastota kamaysa sindirish ko'rsatkichi oshsa

D) Chastota oshsa sindirish ko'rsatkichi kamaysa

16. Buger - Ber qonuni qaysi formulada to'g'ri ifodalangan?

A)  $I = I_0 \cdot e^{-\mu \cdot d}$

B)  $I_0 = I \cdot e^{-\mu \cdot d}$

C)  $A = A_0 \cdot \mu \cdot d$

D)  $A_0 = A \cdot \mu \cdot d$

17. Spektr deb nimaga aytiladi?

A) Biror yorug'lik manbai nurlanishining to'lqin uzunliklari boyicha taqsimlanishiga aytiladi

B) Intensivlikning chastotaga teng bo'lgandagi qiymatiga aytiladi

C) Elektromagnit to'lqinlarning energiya boyicha taqsimotiga aytiladi

D) Energiya va chastotaning aynan teng bo'lganligiga aytiladi

18. Gyuygens prinsipining mohiyati qanday?

A) To'lqin fronti yetib borgan har bir nuqta ikkilamchi to'lqin manbai bo'la oladi

B) To'lqin tarqalishi mobaynida intensivligi oshib borishiga aytiladi

C) To'lqin tarqalishi yo'nalishida to'lqin uzunligining oshib borishiga aytiladi

D) To'lqin fronti yetib borgan nuqtalar to'plami qo'zg'almasdir

19. Difraksion panjaraning ajrata olish qobilyati R ni toping?

A) $R=mN$

B) $R=m-N$

C) $R=m+n$

D) $R=(U/m)+N$

20. Fotoeffekt nima?

A)Yorug'lik nuri ta'sirida metallardan elektronlarning ajralishi

B)Quyosh nurlarining muhitda to'la yutilishi

C)Elektr toki ta'sirida metallarning qizishi

D)Maydonlar perpendikulyarligi isbotlovchi jarayon

21. Fotoeffekt nima?

A)Yorug'lik nuri ta'sirida metallardan elektronlarning ajralishi

B)Quyosh nurlarining muhitda to'la yutilishi

C)Elektr toki ta'sirida metallarning qizishi

D)Maydonlar perpendikulyarligi isbotlovchi jarayon

22. Fotoeffekt uchun Eynshteyn formulasini ko'rsating?

A) $h\nu=mv^2/2+A$

B) $E=h\nu+A$

C) $A=m\lambda/2+ v$

D) $h\nu=A= \lambda/2$

23. Fluktuasiya nima?

A)Fizik kattaliklarning o'rtacha qiymatidan chetlanish

B)Moddalarning o'rtacha massalarining saqlanishi

C)Suyuq holatdan qattiq holatga o'tish

D)Qattiq holatdan suyuq holatga o'tish

24. Golografiya nima?

A)Yorug'likning difraksiya va interferensiya hodisasiga asoslanib

buyumning xajmiy (3 o'lchamli) tasvirini olish

B) To'lqinlar interferensiyalari haqida to'liq ma'lumot beradi

C) Jismlarning ikki o'lchamli shakllarini chizadi

D) Linza va mikroskoplarni kattalashtirish koeffitsiyentini ifoda-laydi

25. Lazer nurlanishiga tegishli ajoyib xususiyatlar qaysilar?

A) Faqat vaqt va fazoda kogerent, qat'iy monoxromatik quvvati katta, dasta kengli o'zgarmas

B) O'zgaruvchan chastotali, nomonoxromatik, energiyasi katta

C) Dastasining diametri katta, intensivligi o'zgarmas

D) Faqat vakuumda tarqala oladigan o'zgaruvchan to'lqin uzunlikka ega nurlar.

26. Qaysi rangdagi nur prizmada eng katta burchakka og'adi.

A) binafsha;

B) yashil;

C) qizil;

D) ko'k;

27. Qoyidagi keltirilgan nurlarning qaysi biri eng katta chastotaga ega.

A) rentgen nurlari;

B) infraqizil nurlar;

C) ko'zga ko'rinadigan yorug'lik nuri;

D) ultrabinafsha nurlar;

28. Normal ko'z uchun eng yaxshi ko'rish masofasi qanchaga teng?

A) 25 sm;

B) 15 sm;

C) 20 sm;

D) 45

29. Yorug'lik bir muxitdan ikkinchi muxitga o'tganda uning qaysi parametrlari o'zgarmasdan qoladi.

A) chastota;

B) to'lqin uzunligi;

C)tarqalish tezligi;

D)intensivligi;

30. Dispersiya necha turga bo'linadi ?

A)2;

B)4;

C)6;

D)7;

## TARQATMA MATERIALLAR

Mashg'ulotlar yuzasidan talabalarning bilimlarini baholash(B.B.B. usuli)uchun tarqatma material

№	Asosiy tushunchalar va savollar	Bilaman "+"	Bildim "+"
		BBilmayman "-"	Bilaolmadim "-"
1	Spektral qurilmalarni klassifikatsiyasi.		
2	Spektral qurilmalarning asosiy xarakteristikalar.		
3	Spektral qurilmalarning Optik sxemalari va ishlash tamoillari.		
4	Spektral Chiziqlar kengligini tushuntirib bering.		
5	Murakkab tebranishlarning spektral Yoyilishi.		
6	Prizmalı spektral qurilmalar. Difraksion panjarali spektral qurilmalar. Ularni farqlari va amaliyotda ishlatilishi.		

№	Asosiy tushunchalar va savollar	Bilaman "+"	Bildim "+"
		BBilmayman "-"	Bilaolmadim "-"
1	Yorug'lik filtrlarining umumiy xossalari..		



2	Absorbsion, interferension va boshqa turdagi yorug'lik filtrlari.		
3	Ularni asosiy xarakteristikalarini.		
4	Spektral Chiziqlar kengligini tushuntirib bering.		
5	Yorug'lik filtrlarini amaliyotda qo'llanishi		

<b>№</b>	<b>Asosiy tushunchalar va savollar</b>	<b>Bilaman "+" BBilmayman "-"</b>	<b>Bildim "+" Bilaolmadim "-"</b>
1	Apparat funksiyasining taqsimoti.		
2	Lorens va Gauss taqsimotlari.		
3	Optik tadqiqotlarda apparat funksiyaning ta'sirini e'tiborga olish va uning zamonaviy usullari.		
4	Spektral Chiziqlar kengligini tushuntirib bering.		
5	Yorug'lik filtrlarini amaliyotda qo'llanishi		

<b>№</b>	<b>Asosiy tushunchalar va savollar</b>	<b>Bilaman "+" BBilmayman "-"</b>	<b>Bildim "+" Bilaolmadim "-"</b>
1	Fabri-Pero interferometri.		
2	Absorbsion, interferension va boshqa turdagi yorug'lik filtrlari.		
3	Ularni asosiy xarakteristikalarini.		
4	Spektral Chiziqlar kengligini tushuntirib bering.		
5	Asosiy xarakteristikalarini.		
6	Ajrataolish qobiliyati.		
7	Fabri-Pero interferometrini spektral qurilmalarida ishlatilishi.		
8	Yorug'lik filtrlarini amaliyotda qo'llanishi		

9	Fabri-Pero interferometri yordamida nozik jarayonlarni qayd qilish.		
10	Yorug'likning Reley sochilishi.		
11	Mandelstamm-Brillyuen komponentalari.		

<b>№</b>	<b>Asosiy tushunchalar va savollar</b>	<b>Bilaman "+" BBilmayman "-"</b>	<b>Bildim "+" Bilaolmadim "-"</b>
1	Fure-spektrometr		
2	Absorbsion, interferension va boshqa turdagi yorug'lik filtrlari.		
3	Ularni asosiy xarakteristikalar.		
4	Spektral Chiziqlar kengligini tushuntirib bering.		
5	Yorug'lik filtrlarini amaliyotda qo'llanishi		
6	Selektiv amplitudaviy, chatotaviy va modulyatsiyali interferension spektrometrlar.		

<b>№</b>	<b>Asosiy tushunchalar va savollar</b>	<b>Bilaman "+" BBilmayman "-"</b>	<b>Bildim "+" Bilaolmadim "-"</b>
1	Nurlanish manbalarini turlari.		
2	Absorbsion, interferension va boshqa turdagi yorug'lik filtrlari.		
3	Ularni asosiy xarakteristikalar.		
4	Spektral Chiziqlar kengligini tushuntirib bering.		
5	Yorug'lik filtrlarini amaliyotda qo'llanishi		
6	Optik tadqiqotlarda nurlanish manbalariga qo'yiladigan talablar.		
7	Optik kvant generatorlari-lazerlar.		

<b>8</b>	Chiziqli (uzlukli) va uzluksiz spektrlar tarqatuvchi yorug'lik manbalari.		
<b>9</b>	Issiqlik nurlanishi xisobiga xosil bo'ladigan spektrlar.		
<b>10</b>	Issiqlik nurlanishi energiyasining to'lqin uzunlik va chastotaga bog'lanishi		

<b>№</b>	<b>Asosiy tushunchalar va savollar</b>	<b>Bilaman "+" BBilmayman "-"</b>	<b>Bildim "+" Bilaolmadim "-"</b>
<b>1</b>	Fotografik, fotoelektrik va boshqa qayd qilish usullari.		
<b>2</b>	Absorbsion, interferension va boshqa turdagi yorug'lik filtrlari.		
<b>3</b>	Ularni asosiy xarakteristikalarini.		
<b>4</b>	Spektral Chiziqlar kengligini tushuntirib bering.		
<b>5</b>	Yorug'lik filtrlarini amaliyotda qo'llanishi		
<b>6</b>	Absorbsion, interferension va boshqa turdagi yorug'lik filtrlari ni farqi va afzalliklari.		
<b>7</b>	Fotopriyomniklarning spektral sezgirliklari.		

<b>№</b>	<b>Asosiy tushunchalar va savollar</b>	<b>Bilaman "+" BBilmayman "-"</b>	<b>Bildim "+" Bilaolmadim "-"</b>
<b>1</b>	Noma'lum spektrlarning to'lqin uzunligini aniqlash.		
<b>2</b>	Absorbsion, interferension va boshqa turdagi yorug'lik filtrlari.		
<b>3</b>	Ularni asosiy xarakteristikalarini.		
<b>4</b>	Spektral Chiziqlar kengligini tushuntirib bering.		

5	Yorug'lik filtrlarini amaliyotda qo'llanishi		
6	Spektrlarning intensivligini, spektral tarkibini aniqlash. Bu usullarni amaliyotda qo'llanilishi (spektral tadqiqotlar, geologiya, meditsina, biologiya va boshqa soxalarda).		

<b>№</b>	<b>Asosiy tushunchalar va savollar</b>	<b>Bilaman "+" BBilmayman "-"</b>	<b>Bildim "+" Bilaolmadim "-"</b>
1	Atom va emmission spektral analiz.		
2	Absorbsion, interferension va boshqa turdagi yorug'lik filtrlari.		
3	Ularni asosiy xarakteristikalar.		
4	Spektral Chiziqlar kengligini tushuntirib bering.		
5	Yorug'lik filtrlarini amaliyotda qo'llanishi		
6	Fluorescent va absarbsion analizlar.		
7	Izatop spektral analizi.		

	<b>Asosiy tushunchalar va savollar</b>	<b>Bilaman "+" BBilmayman "-"</b>	<b>Bildim "+" Bilaolmadim "-"</b>
1	Infraqizil spektroskopiY.		
2	Absorbsion, interferension va boshqa turdagi yorug'lik filtrlari.		
3	Ularni asosiy xarakteristikalar.		
4	Spektral Chiziqlar kengligini tushuntirib bering.		
5	Yorug'lik filtrlarini amaliyotda qo'llanishi		
6	Yorug'likning molekulyar va kombinatsion sochilish spektrlari yordamida moddalarning xususiyatlarini o'rganish.		

7	Lyuminessensiya spektrlari yordamida o'rganish.		
8	Yorug'lik sochilishining nozik strukturasi va uni tajribada aniqlash.		
9	Miqdoriy spektral va lyuminescent analizlari.		
10	Radiospektroskopiya usul bilan muxitlarni o'rganish (EPR, YamR)		

№	Asosiy tushunchalar va savollar	Bilaman "+"	Bildim "+"
		BBilmayman "-"	Bilaolmadim "-"
1	Atmosferadagi aerzollarni lazer lokatorlari yordamida aniqlash.		
2	Absorbsion, interferension va boshqa turdagi yorug'lik filtrlari.		
3	Ularni asosiy xarakteristikalarini.		
4	Spektral Chiziqlar kengligini tushuntirib bering.		
5	Yorug'lik filtrlarini amaliyotda qo'llanishi		
6	Ekologik muammolar va spektroskopik metodlar		
7	Ichimlik suvlarini tarkibini o'rganish.		
8	Mavjud elementlar tarkibi va miqdorini optik usullar yordamida aniqlash.		

№	Asosiy tushunchalar va savollar	Bilaman "+"	Bildim "+"
		BBilmayman "-"	Bilaolmadim "-"
1	Spektroskopik usullar		

<b>2</b>	Spektroskopik usullar bilan moddalarning tuzulishini va ularda sodir bo'luvchi jarayonlarni o'rganish		
<b>3</b>	Spektroskopik usullar. Ularni asosiy xarakteristikalarini.		
<b>4</b>	Spektral Chiziqlar kengligini tushuntirib bering.		
<b>5</b>	Yorug'lik filtrlarini amaliyotda qo'llanishi		

## MARUZA MASHG'ULOTLARI

**1-Ma'ruza. Amaliy optika fanining rivojlanish tarixi va boshqa bo'limlari bilan bog'liqligi. Fanni o'rganishdagi muammolar, uslubiy ko'rsatmalar. Amaliy optika fanining fizika bo'limlari va boshqa tabiiy fanlarni o'rganishdagi o'rni. Zamonaviy spektroskopik va molekulyar optika tadqiqotlarini amaliyotga, fan va texnika soxalariga tatbiqi. Lazerlarning funksional sxemasi, ularni hozirgi zamon fan va ishlab chiqarishdagi o'rni. Fanning vazifalari.**

### Reja:

1. Amaliy optika fanining rivojlanish tarixi va boshqa bo'limlar bilan bog'liqligi.
2. Fanni o'rganishdagi muammolar, uslubiy ko'rsatmalar.
3. Amaliy Optika fanining fizika bo'limlari va boshqa tabiiy fanlarni o'rganishdagi o'rni. Optika qonunlarini amaliyotga, fan va texnika sohalariga tadbiqi.
4. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ilmiy tadqiqot institutlari hamda oliy o'quv yurtlari ilmiy laboratoriyalarida optika va spektroskopiya sohasi boyicha fan yutuqlari va internet yangiliklari. Fanning vazifalari.

*Tayanch so'z va iboralar: Optika so'zining kelib chiqishi, To'lqinlar, Optik diapazon to'lqinlari, Spektrning hosil bo'lishi, Guk yorug'ligini to'lqin nazaryasi*

Amaliy optika, optika fanining mantiqiy davomi bo'lib, fizikaviy jarayonlarni optik usullar bilan qayd qilish imkoniyatlarini ochib beruvchi fan xisoblanadi. Ma'lumki fizika fanining barcha sohaları oldidagi asosiy vazifalardan biri moddalarning (muxitlarning) uch agregat xolati hisoblangan (plazmadan tashqari) gaz, suyuq (yumshoq) va qattiq jismlarning xossalarini (strukturalarini) o'rganishga qaratilgan. Ayniqsa atom va molekulalarning tashqi ta'sir –temperatura, bosim kabi o'zgarishlar bilan bog'liq fizik qonuniyatlarini tadqiq qilish dolzarb masalalardan iborat.

Amaliy optika fanining tarixi va boshqa bo'limlar bilan bog'liqligi. Fanni o'rganishdagi muammolar, uslubiy ko'rsatmalar. Amaliy optika fanining fizika bo'limlari va boshqa tabiiy fanlarni o'rganishdagi o'rni. Zamonaviy spektroskopik va molekulyar optika tadqiqotlarni amaliyotga, fan va texnika sohalariga tadbiqi. Ma'lumki "Fizika" so'zi grekcha physis so'zidan olingan bo'lib-tabiat demakdir. Qadimgi grek olimi Aristotelning bizning eramizgacha III-asrda yozilgan buyuk asari ana shunday nomlangan. Tabiat haqidagi bu asarning ichida geometriya, astronomiya, dehqonchilik, meditsina, botanika, geografiya va haokzo fanlarga oid ma'lumotlar kiritilgan.

Vaqt o'tishi bilan bu fanlar fizikadan ajralib chiqdi. Bizni o'rab olgan dunyo moddiydir: U doimiy mavjud bo'lgan va uzluksiz harakatlanuvchi materiyadan iboratdir. Materiya harakatini turli tuman formulalarini turli fanlar, jumladan fizika ham o'rganadi. Fizika materiya harakatining eng sodda va shu bilan birga eng umumiy shaklini o'rganadi: mehanik, atom molekulyar, gravitatsion,

elektromagnit, atom va yadro ichidagi jarayonlardir. Fizikaviy harakat shaklining bu ko'rinishlari boshqa fanlar o'rganadigan materiyani harakat shakllari asosini tashkil etadi. Masalan: biologiya fani o'rganadigan organizmlarning hayot faoliyati jarayonlarida hamma vaqt mehanik, elektr, atom ichki va boshqa fizik jarayonlar bo'ladi. Shuni o'zi fizika tabiat hodisalarini umumiy qonuniyatlarini o'rganadi va boshqa fanlar bilan uzviy bog'liq. Fizika fani keyingi 200 yil davomida bo'limlarga bo'lindi. Hozirga kelib mehanika, molekulyar fizika, elektromagnitizm, optika, atom va yadro fizikasi hamda elementar zarrachalar fizikasi bo'limlariga ajraldi. Bu bo'limlar ichida optika bo'limi eng qadimiy va dolzarb bo'limlardan biridir. Optika yorug'lik tushunchasi va ko'rish tushunchasi bilan bog'liq. Optika-grekcha (optikos) so'zidan olingan bo'lib (ko'rish) degan ma'noni anglatadi. Optika-fizikaning yorug'likning tabiati, yorug'lik hodisalarining qonuniyatlari va yorug'likning modda bilan o'zaro ta'siri jarayonlarini o'rganadigan bo'limdir. Optika yorug'lik haqidagi ta'limot, yorug'lik esa ko'rish sezgilarini uyg'otadigan, sababchisidir- deb ta'riflanadi.

Optika sohasidagi ko'p yillik izlanishlar va elektromagnit maydon haqidagi ta'limot taraqqiyoti yorug'likni elektromagnit nazariyani qaror topishiga olib keldi, bu nazariyaga ko'ra yorug'lik vakuumda  $c=299,793$  km/s tezlik bilan tarqaluvchi, tez o'zgaruvchan elektromagnit maydondan iborat ekan. Elektromagnit to'lqinlar shkalasida uning to'lqin uzunligi  $\lambda=0\div\infty$  gacha bo'ladi, lekin shundan juda bir kichik ulushi  $\lambda=0,4\div0,76$  mkm interval ko'zga ko'rinadigan, aniqrog'i inson ko'ziga ko'rinadigan, qismi yorug'likka to'g'ri keladi. Lekin optika bu chegara bilan chegaralanib qolmaydi, chunki ko'zga ko'rinadigan nurlardan tashqari ultrabinafsha, infraqizil, gamma, radionurlar ham optika qonunlariga boysunadi. Turli-tuman optik asboblari, (optika qonunlari asosida ishlaydigan)  $\lambda=0,1$  A<sup>0</sup>-1 sm diapazonda ishlaydi. Shuning uchun hozirga kelib optik diapason uchun  $\lambda=0,1$  A<sup>0</sup>-1 sm gacha elektromagnit to'lqinlar shkalasini olish mumkin. Qadimdan ma'lumki har qanday hodisalarni qonuniyatlarini ochish, shu jarayonni yaxshi o'rganish bilan birga, uni inson ehtiyojlari yo'lida foydalanish, shu jarayonni kelajagi to'g'risida oldindan bilish qiziqarli bo'lib kelgan. Shunday ekan optika fanini o'rganish qadimdan qiziqarli bo'lib kelgan va uni qonunlarini amalda tushunishda, tehnika va fanni rivojlanishida foydalanganlar.

Qadimgi asrlar (eramizgacha) dan boshlab optika, yorug'lik haqidagi ta'limotning rivojlanishi bilan birga "amaliy optika" ham asta-sekin rivojlana boshladi. Masalan grek filosofi va matematigi Pifagor fikricha ko'zdan buyumga qarab qaynoq bug'lanishlar chiqadi va shu asosda ko'rish sezgisi uyg'onadi deydi. Bu fikrni Evklid (Era. Avv 300yil) "Ko'rish nurlari nazariyasi" asosida davom ettirdi. Bu nazariyaga asosan ko'zdan ko'rish nurlari tarqalib ularni uchlari buyumga tegadi va ko'rish sezgisi paydo bo'ladi. Evklid yorug'likni to'g'ri chiziq boylab tarqalish asoschisidir. Bu bilan birga optikani geometriya bilan qanchalik bog'liq ekanligini anglash mumkin. Evklid ko'zgulardan yorug'likni qaytish qonunini yaratadi. Ptolomey (er.70-147yil) yorug'likni sinishini o'rganadi va yoritgichlardan keladigan nurlar atmosferada sinib yorug'likni holatini o'zgartiradi degan. Arximed (er.avv.287-212 yillar) botiq ko'zgulardan yordamida quyosh yorug'ligini to'plab Rim



kemalariga yo'naltirgan va dushman flotini yondirib yuborganligi aytiladi. Atomistikani asoschisi Demokrit (er.avv.460-370Yil) "buyumlaardan chiqayotgan mayday atomlar ko'z sirtiga kelib tushadi va ko'rish sezgisi paydo bo'ladi" degan. Aristotel (er.avv.384-322) Ko'roish sezgisini sababi inson ko'zidan tashqarida yotadi, buyum va ko'z orasidagi muhitga ham bog'liqligini ilgari suradi. Bu qadimgi qarashlar aniq tajribalarga tayangan bo'lsa ham keyingi rivojlanishiga katta ta'sir qildi. Arab fizigi Al'xazen (1038yil) yorug'likni sinish qonunlariga asos slogan, buyumlar yorug'lik nurlari chiqaradi degan muloxazalarni yorug'likni chekli tezlik bilan tarqalishini aytgan. Bekon (1214-1294) botiq qavariq ko'zgul va linzalarni o'rganib, yig'uvchi linzalar yordamida zaif ko'radigan ko'zlarga yordam berishni aytgan va ko'zoynakka asos solindi.

G'arbiy Yevropa uchun feodalizmdan kopitalizmga o'tish davri, Ekonomika, ishlab-chiqarishda fan va tehnika jonlanish davridir. Bu davrda kolomb tomonidan Amerikani ochishi, Kopernik tamonidan dunyoning geliosentrik sistemani ochilishi, umumiy progressiv dunyoqarovchilarning cherkov Sxolistik qarashlari bilan kurashi kuchaydi. Ilm fan sohasida tabiatni o'rganganini eksperimental usuli ustun kela boshladi. Frantsisk Movolik (1494-1575y) ko'zoynakni ta'sirini yetarli darajada to'g'ri tushuntiradi. Ko'z gavhari, qorachig'ida nurlarni yetarli normal sinmasligida yaqindan va uzoqdan ko'rar ko'zlar bo'lishini va linzalar yordamida turli xil ko'zoynaklar yasash mumkinligini tushuntirdi. Italiyalik Port 1589-yil fotoaparatning kamerasini kash qiladi. Mikroskop 1590-yil Golland optik-masteri Zaxariy Yansen tamonidan ixtiro qilingan. Ko'rish trubalari Golland optiklari Zaxariy Yansen, Yakov va Gans Lepperslar tamonidan 1608-1610-yillar yasalgan. Bu optik asboblarni kashf qilinishi o'z navbatida astronomiya va biologiyada yirik kashfiyotlarga olib keldi. Galiley ko'rish trubinasini takomillashtirdi va uni astronomiyaga qo'lladi. Uni ko'rish trubinasi kattalashtirishi 30 ga teng bo'lib, oldingilardan ancha katta edi.

Galiley o'zi yaratgan ko'rish trubinasi yordamida Oy sirtidagi tog'lar, kraterlarni, ko'ra oldi. Yupiter planetasini yo'ldoshlarini, somon yo'lidagi yulduzlarni tuzilishini o'rgandi. Yorug'likni tezligini o'lchashga urindi. Quyosh dog'larini kuzatgan. Pater Sheyner ko'rish trubinalarini takomillashtirib, quyosh fakellari, dog'lari ustida ishlab ko'rish trubinasini takomillashtirib akulyarni o'zgartirib proyeksion apparatga aylantirdi. 1618-1663-yillar Grimol'di tamonidan difraksiya kashf qilindi. Quyoshda kelayotgan nurlar yo'lga ikkita turkumli ekran qoyib uni tasviri qorong'i va oq yo'llar hosil bo'ladi. Shu bilan yorug'lik interferensiyasiga asos solindi. Bu hodisalar yorug'likni to'lqinsimon harakat deb qarashga olib keldi. Yorug'lik ranglari oq yorug'likni tarkibi deb ataydi. Shundan keyin optika sohasida yorug'lik tabiatini o'rganishga jadal kirishildi va eksperimental tadqiqotlar olib borildi. Yorug'lik tabiati haqida bir-biriga qarama-qarshi ikki xil qarash tendensiyasi yuzaga keldi. XVII-XVIII asrda Nyuton tamonidan yaratilgan yorug'lik tabiati haqida korpuskulyar va Gyugens tamondan to'lqin nazariya maydonga keldi. Buyuk ingliz fizigi Isaak Nyuton tamonidan 1666 yilda qilingan tajriba, prizma yordamida oq yorug'likni ranglarga ajratish (dispersiya hodisasi) kashf qilindi. Oq yorug'lik prizmadan o'tib cheksiz ranglar hosil qilishiga uzluksiz spektr hosil bo'lishini

o'rgandi. Bu tajribani teskarisini ham qilib ko'rdi. Turli ranglardagi nurlarni linzalar yordamida yig'ganda oq yorug'lik kelib chiqdi. Oq yorug'lik murakkab yorug'likdan iborat ekanligini kashf qildi. Buyumni rangi oq yorug'lik tushganda undan qaytadigan rang bo'lib ko'rinadi, boshqa ranglar esa yutiladi.

Yorug'likni difraksiyasi va interferensiyasi ustida ham ishlab "Nyuton xalqalari"ni kashf qildi, bu esa yorug'lik tabiati haqida miqdoriy munosabatlarni aniqlashga imkoniyat tug'ildi. Nyuton yorug'lik nurlanuvchi jismlardan tarqaluvchi haddan tashqari mayday zarrachalardan iborat –deb qaragan. Nyuton yorug'likni korpuskulyar nazariyasini asoschisidir.

Nyuton yorug'lik zarrasi turli o'lchamlarga ega, qizilyorug' yirikroq, binafsha maydaroq zarralardan iborat deb qaragan. Buni "Oqish nazariyasi" – deb atadi. Oqish nazariyasi yorug'likni turli chiziq boylab tarqalishini tushuntira olgan, lekin yorug'likni qaytish, sinishini difraksiyasi interferensiyasini to'g'ri tushuntirishda qiyinchilikka uchradi. Bu nazariya XIX asrni birinchi choragigacha hukmron bo'lib keldi. Ingliz fizigi Robert Guk (1635-1703yil) va Gollandiyalik Xristian Gyugens (1629-1695) yorug'likni to'lqin nazariyasini ishlab chiqdilar. Guk yo'rug'lik manbaini o'rab olgan efir fazada tarqaluvchi sferik to'lqinlar, impulslar, ko'ndalang to'lqinlar- deb qaragan keyinchalik uni Frenel qo'llab-quvvatlagan. Gyugens o'zini "prinspini" yaratdiki bu prinsp to'qinlar kinematikasini analiz qilishga va qonunlar yaratishga yordam berdi. To'lqinlarni sinish qonunini va kristallarda ikkilanib sinishini ham tushuntiradi. Kristallarda qutblanish hodisasini ochdi. Gyugens yorug'likni efirmuhitida atrqaluvchi boylama to'lqin deb qaragan. Ranglarni to'g'ri chiziq boylab tarqalishini tushuntira olmadi. Ya'ni Gyugens nazarida Nyuton nazariyasiga butunlay qarshi turolmadi.

Daniyalik olim Olaf Remer (1675) yorug'lik tezligini Yupiter yo'ldoshlari tutilishidan o'lchagan. 1728-yilda ingliz astronomi Jems Bradley ham yulduzlar aberasiyasiga qarab aniqlagan. Bu davrga kelib spektrni o'rganishga e'tibor kuchaydi. Shved ximigi 1777 yilda infraqizil nurlarni topdi. Inliz astronomi Vilgelm Gershel (1800) yil spektrni qizil chegarasidan o'tganda termometr ko'tarilishidan spektrni ko'zga ko'rinmaydigan qismiga ham yorug'likka o'xshash nurlar borligini payqadi va yoritkichlar spektrini o'rganib, ularni spektr diagrammalarini tuzdi. 1801-yil Nemis fizigi Ritter ultrabinafsha nurlarni topdi. Yorug'lik tog'risida yagona nazariya yo'qligi bu kashfiyotlarni tushuntira olmadi. XIX asrda fizika tarixida to'lqin nazariyani g'alabasi buyuk voqea hisoblanadi. Ingliz fizigi Tomas Yung 1802-yilda to'lqinlar interferensiyasi haqida qoidalarni ishlab chiqdi. Yupqa plastinkada ranglar, Nyuton xalqalarini tushuntirib berdi. U yorug'likni boylama to'lqin deb qaradi. Yorug'likni to'lqin nazariyasi g'alabasi buyuk Fransuz fizigi Frelel (1788-1827) nomi bilan bog'liq. U Gyugens nazariyasi va T. Yung interferensiya prinsplariga tayanib difraksiyani izchil matematikaviy nazariyasini yaratdi. Frenel va uning yaqin safdoshi Arogo (1786-1858y) qator tajribalar o'tkazib yorug'likni ko'ndalang to'lqin ekanligini isbot qildilar. Lekin shu paytda olimlar ongiga singib qolgan "Efir" muhitida ko'ndalang to'lqin tarqalishi ichonchli emas edi.

Shunga qaramasdan 1830-yillardan keyin yorug'likni "Oqish" nazariyasi asta-sekin chekina boshladi. Nemis fizigi Frangofer (1787-1826y) difraksion panjarani ixtiro qildi. Shved (1792-1871) difraksion panjaralar nazariyasini ishlab chiqdi. Fransuz olimi Dagerr (1789-1851) fotografiyani ixtiro qildi(1833). Ingliz fizigi Eri 1834-yil linzalarni ajrata olish qobilyatini hisoblab topdi.1874-yil nemis fizigi Abbe mikroskop nazariyasini yaratdi. 1879-yil ingliz fizigi Reley spektroskop nazariyani yaratdi. Amerikalik mashhur fizik Maykelson (1852-1931y) interfometr yasab yorug'lik to'lqin uzunligini aniq o'lchashga erishdi, metr etalonini yo'rug'lik to'lqin uzunligida o'lchashni amalgam oshirdi. So'ngra "Efir" muhiti yo'qligini shu interfometr yordamida isbot qilindi. Eynshteyn tamonidan yaratilgan maxsus nisbiylik nazariyasini isbotida katta ro'l oynadi. Shu interfometr yordamida atom, yoki izotonlar chiqaradigan o'ta nozik yorug'lik spektrlari o'rganildi. Fransuz fiziklari Fabri va Pero 1899-yilda ko'p nurli interfometr ixtiro qildilar. Bu interfometr metrologiya va interferensiyalar spektroskopiyada keng qo'llanilmoqda. Hozirgi vaqtda Fabri-Pero interfometri optikaviy kvant generaotrlari (lazerlar)da rezanator vazifasini o'taydi. Xuddi shunday nemis fiziklari Lyummer va Gerke ko'p nurli interfometr ixtiro qilib spectral chiziqlarni o'ta nozik struktursini tekshirishda ishlatilib keldi. Bu yaratilgan asboblardan va tajribalar yorug'likni tabiatini o'rganishga katta hissa qo'shib qolmay, matematika, kimya(atom tuzilishi) kabi fanlarni rivojlanishiga katta xisssa qo'shdilar.

Shundan keyin yorug'lik to'lqin tarqaluvchi muhit "Efir" elastic muhit deb qaraldi. Bu sohada fransuz fizigi Fizo, Karno, Fuko, Forbs, Puasson, koshi, Grin, neyman, Tomson, Kirxgof, Ketteler, Reley, gelmgols, Zelmeyer, kabi olimlar tinimsiz ish olib bordilar. Bu olimlarning yaratgan nazariyalari yorug'lik tabiatini u yoki bu tamonini tushuntira olmadi. XIX asrda fizikani boshqa bo'limlari elektr va magnet hodisalari intensiv rivojlandi. 1831-yil Fardey (ingliz 1791-1867) elektromagnit induksiya hodisasini kashf qildi. Ingliz fizigi Maksvell (1831-1879) Faradey kashfiyotini taraqqiy ettirib, 1865-yilda Maksvell Maksvell qonunlari tenglamalarini yaratdi. Bu tenglamalar Nyuton tenglamalari kabi elektromagnitizm da katta ro'l oynaydi. Asta-sekin elektromagnit hodisalari, optika hodisalari bilan bog'liq ekanligi ko'rinishga boshladi. Maksvell elektromagnit to'lqin bo'sh fazoda (vakuumda) tarqalishini nazariy jihatdan aytib o'tdi. U yorug'lik ham elektromagnit to'lqin bo'lib  $\lambda = 0,3840,76$  mkm ekanligini aytib berdi. Nemis fizigi Gers (1888yil) tajribada elektromagnit to'lqinlarni hosil qiladi. Popov esa 1895-yil radiotelegrafni kashf qildi. Lebedov esa yorug'lik bosimini kashf qildi. Shundan keyin yorug'likni elektromagnit nazariyasi ustida Lorens golland fizigi (1853-1928).Zeeman, Kerr, Shtark, Stoks, Planklar shug'ullandi. Yorug'lik tezligini o'lchashlar, "Efir Shamolini" aniqlash sohasida ishlar ketdi. Maykelson 1881-yil, 1887-yilda interfometri yordamida "Efir" shamolini aniqlash ustida tajribalar o'tkazdi, lekin hech qanday tajribalar "Efir" shamoli borligi to'g'risida salbiy natijalar berdi. Buyuk nemis fizigi A. Eynshteyn, Lorens tenglamalariga asoslanib 1905-yilda ya'ni nisbiylik nazariyasini yaratdi. Rentgen nurlari yaratildi, Bekkel radioaktivlikni kashf qildi. Maks Plank yorug'likni nurlanishi va yutilishida "Kvant"xossaga ega ekanligini ochdi. Stoletov tamonidan tajribada Fazo effekti ochilishi, yorug'lik

yorug'lik tabiati. "To'lqin va zarra" dualizmiga ega ekanligi isbot qilindi. 1905-yil Eynshteyn yorug'lik nurlanish va yutilishda emas balki uni tarqalishida ham korpuskulyar, yorug'lik zarralari foton tarzida yuz berishini aytadi. 1924-yilda Fransuz fizigi Lun Debroil zarrachalar ham o'zini to'lqin tabiati borligini aytdi. 1927-28-yillar Debroil, Geyzenberg, Shredenger tamonidan mikroduyo hodisalarini kvant mexanikasi, kvant elektrodinamikasi yaratildi. 1934-yil Erenkov muhitda elektri yorug'lik tezligidan katta tezlikda harakat qilganda nurlanish roy berishini kashf qildi. 1944-yillar Ivanenko, Pomeranchuklar nazariy aytgan, tajribada Blyuntt, Palaklar tamonidan Sinxrotron nurlanish ochildi. Yuqori energiyali elektronlar tezlatgichda katta tezlikda nur chiqarishidir. Bu bilan harakatdagi, xalqali tezlatkichdagi elektronlar xossalari o'rganildi. 1954-1961-yillar davomida Basov, Proxorov, tauns, Neyman, Javan, Bennet, Erriotlar tamonidan lazerlar ixtiro qilindi. Optik tolali kabellar ixtiro qilindi.

Optikani bunday taraqqiyoti fan va texnika rivojiga xizmat qilib keladi. Spektroskopiya, molekulyar spektroskoya, lyumenessensiya, spectral analiz, optikavi asbob katta qadamlar bilan rivojlandi. Optik uslublardan foydalanib, nafaqat fizika fani, balki ximiya, biologiya, meditsina, astronomiya, geologiya, meteralogiya va hakazo fanlarnichuqur o'rganishda keng qo'llanilmoqda. To'lqin uzunligi, intensivligi, shularga qarab nurlanayotgan manbani tuzilishi to'g'risida holati to'g'risida ma'lumot to'playdi. Spektral apparatni boshi Nyuton yaratgan prizmalı spektrometridir. XIX asrda Fraungofer tamonidan ko'p tirqishli difraksion panjarani yaratilishi Oq yorug'likni spektrga ajratishni ancha yaxshi usuli yaratildi. 1859-yil Kirxgof va Bunzen tamonidan takomillashgan prizmalı spektroskop yaratildi. Bu spektroskop yordamida jism qanday nurlanish chiqarsa shunday nurlanishni yutishi aniqlandi.

### **Nazorat savollari**

1. Amaliy optika nimani o'rganadi.
2. Amaliy optika fani boshqa fanlar bilan bog'liqligi.
3. Optika so'zining kelib chiqishi.
4. Optik diapazon to'lqinlari.
5. Aristotelning yorug'lik haqidagi qarashlari.
6. Galeleyning optika soxasidagi ishlari.
7. Nyutonning optika soxasidagi ishlari.
8. Spektrning hosil bo'lishi haqida.
9. Xristian Gyugens, Guk yorug'lini to'lqin nazaryasi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

David L. Andrews. Fundamentals of Photonics and Physics. Published by John Wiley & Sons. Inc., Hoboken, New Jersey.

B. Salex, M. Teyx. Optika i fotonika. Printsipy i primeneniye. Per s angl. Dolgoprudniy, Izdatelskiy dom «Intelekt», 2012

<http://www.photonics.com>

[www.optics.arizona.edu](http://www.optics.arizona.edu)Research

Specialties [www.manchester.ac.uk](http://www.manchester.ac.uk)



**2-MAVZU: Spektral qurilmalarni klassifikatsiyasi. Asosiy xarakteristikalari, optik sxemalari va ishlash printsiplari. Spektral qurilmalarda apparat funksiyasining ko'rinishi. Optik tadqiqotlarda apparat funktsiyaning ta'sirini etiborga olish. Apparat funktsiya ta'sirini kamaytirishning zamonaviy usullari.**

**Reja:**

Spektr. Spektroskopiya va uning ahamiyati

Spektral qurilmalarni klassifikatsiyasi.

Spektral qurilmalarda apparat funksiyasining ko'rinishi.


Optik tadqiqotlarda apparat funktsiyaning ta'sirini etiborga olish.

Apparat funktsiya ta'sirini kamaytirishning zamonaviy usullari.

Apparat funktsiyasi, dispersiyasi, ajrata olish qobiliyati, chiziqli kattalashtirish.

**Tayanch so'z va iboralar:** *Yorug'lik spektri, spektr turlari, blok sxema, monoxromator, polixromator, spektroskop, spektrograf, spektrometr, fokal tekislik, apparat funktsiyasi., Spektral chizik, dispersiya, kvars prizma, ajrata olish qobiliyati, apparat funktsiya, linza fokus masofa.*


Ma'lumki inson atrof muhit haqidagi ma'lumotni 80 % ni ko'rish orqali qabul qiladi. 20 % boshqa to'rtta sezish organlariga qolgan. Shu sababli ham insonni ko'rish qobilyati, imkoniytlarini oshirish uchun minglab turli xildagi qurilmalar yaratildi. Ana shu qurilmalarni barchasini ishlab chiqish va qo'llash amaliy optikaga doir vazifalar. Bizning vazifamiz yorug'likni spektral analiz qilish texnikasini o'rganish.



Spektr o'zi nima? Yorug'lik spektri bu yorug'lik intensivligini (energiyasini) chastotalar (to'lqin uzunligi) bo'yicha taqsimoti.


Bu turdagi bog'lanish issiqlik nurlanishi uchun bilamiz<sup>1</sup>. Issiqli nurlanishi uchun

$$E_{\nu,T} = \frac{2\pi h\nu}{c^2} \frac{1}{e^{\frac{h\nu}{kT}} - 1}$$




Plank formulasi o'rinli degan edik. Misol; metal kristall shaklida, metal gaz shaklida. Moddani yorug'likni yutishi undagi atomlar energetik o'tishlariga bog'liq. Yorug'lik spektri chiziqli, polosali va uzliksiz bo'lishi mumkin. Spektr modda atomini tuzlishini tushintirishda eng asosiy qurol.

Yorug'likni spektrga yoyish usulining eng soda holi. Frangoufer spektrometri. Bu usul dispersiya hodisasiga asoslangan ya'ni  $n(\lambda)$ . Shunday moddadan yasalgan prizma spektrometr asosi bo'ladi.



Spektral qurilmalarni xarakterlovchi kattaliklar

1-tirqish, 2-dispersiya hosil qiluvchi element, 3-linza, 4-fokal ekislik, 5-qabul qilgich



Agarda dispersiyalovchi elementdan so'ng ingichka tirqish qoyilsa u holda chiqishda faqat bitta to'lqin uzunligidagi nur chiqadi. Bu turdagi qurilmani monoxramator

Agarda bir nechta tirqish qoyilib bir nechta to'lqin uzunligini olsak u holda polixromator.

Spektrni qayd qilish usullariga qarab:

Spektroskop - agarda kuzatish vizual

Spektrograf - agarda spektr fotoplastikaga qayd qilinsa

Spektrometr - agarda fotoqabul qilgich ishlatilsa

Yorug'likning tabiati, yorug'lik hodisalaridagi qonuniyatlar va yorug'lik bilan moddalarning o'zaro ta'siri insonlarni juda qadimdan qiziqtirib kelgan, jumladan, yorug'likning modda bilan o'zaro ta'siri natijasida sodir bo'ladigan fizik jarayonlar ham doimo fiziklarning diqqat markazida bo'lgan. Yorug'likning nurlanish jarayoni, har xil muhitlarda tarqalishi va yorug'likning moddalar bilan ta'sir jarayonlari fizikaning optika bo'limida o'rganiladi. Optikaning rivojlanishi bilan fizikada spektroskopiya yo'nalishi paydo bo'ldi.

*Spektroskopiya* – elektromagnit nurlanishning hamda akustik to'lqinlarning modda bilan o'zaro ta'sirini o'rganadigan fan bo'lib, spektroskopik usullardan bu o'zaro ta'sirlarning xususiyatlarini o'rganishda keng foydalaniladi. Bu fanning vazifasi moddaning tuzilishi, tarkibi va xossalarini ularning spektrlari orqali aniqlashdan iborat.

Moddalarning xossalari uning qanday molekulalardan tuzilganligiga va bu molekulalarning o'zaro qanday joylashganligiga bog'liq. Fizika, kimyo va biologiya fanlaridagi ko'pgina fundamental masalalarni hal qilishda moddadagi molekulalarning miqdori, ularning tuzilishi va ular orasidagi o'zaro ta'sirlarni keng temperatura, bosim



va konsentratsiya intervalida hamda turli holatlarda bilish talab etiladi. Bunday talablarga javob bera oladigan universal usullardan biri molekulyar spektroskopiyadir. Ushbu qo'llanmada molekulyar spektroskopiyaning asosiy muhim qirralari, spektroskopiya turlari bu fanni o'rganish uchun zarur ma'lumotlar yoritib berilgan. Qo'llanma fizika yo'nalishi bakalavriatura va magistraturasida tahsil olayotgan talabalar va spektroskopiya sohasida ilmiy ish olib borayotgan tadqiqotchilar uchun mo'ljallangan.

*Molekulyar spektroskopiya* – spektroskopiyaning bir bo'limi bo'lib, elektromagnit nurlanishning molekula va uning birikmalari bilan o'zaro ta'sirini o'rganadi. Uning asosida shartli ravishda alohida molekulani nazariy va tajriba yo'li bilan o'rganish yotadi. Tajribada alohida molekuladan ma'lumotni o'ta siyraklashtirilgan gaz yoki molekulalar o'zaro deyarli ta'sirlashmaydigan holda olish mumkin. Tabiiyki, erkin molekulalarning spektri spektroskopiyaning nazariy asosini yaratish uchun zarur. Alohida, erkin molekulalar spektroskopiyasiga asoslanib, o'zaro ta'sirlashuvchi molekulalar spektroskopiyasini, boshqacha aytganda kondensirlangan sistemalar spektroskopiyasini tuzish mumkin. Bunda real gazlar, eritmalar va suyuqliklar, qattiq jismlar va kristallarni o'rganish mumkin. Bu sistemalarda zarrachalarning o'zaro ta'siri natijasida molekulalarning aylanma, tebranma va elektron spektrlari (chastotalar, intensivliklar, spektral chiziqlarning kengligi) o'zgaradi. Gazlardan suyuqliklarga o'tish tufayli real sistemalarning spektri alohida molekulalar spektridan ko'proq farq qila boradi.

Molekulalararo o'zaro ta'sir natijasida molekulyar komplekslar hosil bo'ladi. Bu komplekslarni yangi murakkab molekulalar deb qarash mumkin. O'zaro ta'sir tufayli yangi hosil bo'lgan molekulalarning yashash davri juda qisqa bo'ladi, ular o'zlarining spektral xarakteristikalariga ega. Ularda yangi tebranma sathlar paydo bo'ladi, aylanish doimiyliklari va energetik sathlar orasida o'tishlar ehtimoliyatlari o'zgaradi. Alohida ajratilgan molekulalarning spektri oddiyroq bo'ladi, real sistemalar, ya'ni gazlar va suyuqliklarning spektri molekulalararo o'zaro ta'sir tufayli ancha murakkab bo'ladi. Molekulyar komplekslar spektroskopiyasining nazariy asosini yaratish uchun dastlab oddiy, o'zaro ta'sir juda kam bo'lgan holdagi molekulalar haqida to'liqroq ma'lumotga ega bo'lish kerak. Keyingi yillarda molekulyar komplekslarni nazariy hisoblashlarga ham katta e'tibor berilmoqda va bu yerda ancha qiyinchiliklarga duch kelinmoqda. Shunga qaramasdan molekulyar komplekslarni noempirik hisoblash borasida izlanishlar davom etmoqda. Alohida molekula spektridan real gaz yoki suyuqlik spektriga o'tganda molekulalararo o'zaro ta'sir tufayli spektral parametrlarning o'zgarish sabablari o'rganiladi. Buning uchun avvalo, moddaning gaz holatidagi spektrini

qarash lozim. Chunki u suyuqlikning spektriga nisbatan oddiyroq bo'ladi, lekin molekula va molekulararo o'zaro ta'sir haqidagi ma'lumotlar bunday spektrda mavjud bo'ladi.

### **Spektroskopiya va uning ahamiyati**

Spektroskopiya, jumladan, molekulyar spektroskopiya – elektromagnit to'qlinlarning moddada yutilishi, qaytishi va sochilishi jarayonlari vositasida moddani tashkil etgan molekularning tuzilishi va xossalari o'rganuvchi fanidir. Spektroskopik tadqiqotlarning obekti sifatida turli agregat holatida bo'lgan turli-tuman moddalardan foydalanish mumkin. Bunday obektlarning eng oddiy holi molekulari bir-biridan, ularni mustaqil deb hisoblash mumkin bo'lgan masofada joylashgan siyraklashgan gazlardir. Eng murakkab holi esa har bir zarrachasi molekulararo o'zaro ta'sirda ishtirok etuvchi kondensirlangan muhit hisoblanadi. Spektroskopik ma'lumotlardan nafaqat molekulaning tuzilishi va xossalari, shuningdek, molekular orasidagi o'zaro ta'sir kuchlari haqida, modda tuzilishi bo'yicha ham ma'lumotga ega bo'lish mumkin.

Ma'lumki, elektromagnit nurlanish energiyasining to'qlin uzunligi bo'yicha taqsimlanishi *spektr* deyiladi. Nurlanishning modda bilan ta'siriga qarab nurlanish spektri, yutilish spektri, sochilish spektri va qaytish spektriga ajraladi. Spektroskopiyaning umumiy holda atomyadro spektroskopiya, molekulyar spektroskopiya va kristallar spektroskopiya bo'lib o'rganiladi.

Kogerent yorug'lik manbalari – lazerlar kashf qilinganidan keyin spektroskopiya yana kogerent nurlar spektroskopiya, ya'ni lazerlar spektroskopiya, kogerent bo'lmagan nurlar spektroskopiya – klassik spektroskopiya bo'lindi.

Elektromagnit nurlanishning sohasiga qarab spektroskopiya ***gnurlar spektroskopiya*** (to'qlin uzunligi  $10^{-10}$ – $10^{-11}$  m yoki chastotasi  $3 \times 10^{18}$ – $3 \times 10^{20}$  Gs), rentgen nurlari spektroskopiya (to'qlin uzunligi  $l=10^{-8}$ – $10^{-10}$  m yoki chastotasi  $n=3 \times 10^{16}$ – $3 \times 10^{18}$  Gs), ***optik spektroskopiya*** (to'qlin uzunligi  $l=10^{-3}$ – $10^{-8}$  m yoki chastotasi  $n=3 \times 10^{12}$ – $3 \times 10^{16}$  Gs, bu sohaning o'zi yana infraqizil, ko'rish sohasi va ultrabinafsha sohalarga bo'linadi), ***radiospektroskopiya*** (to'qlin uzunligi  $l=10^{-4}$ – $10^{-2}$  m yoki chastotasi  $n=3 \times 10^6$ – $3 \times 10^{12}$  Gs (bunga mikroto'qlin spektroskopiya, EPR va YAMR ham kiradi) sohalarga bo'linadi. Har

9 bir soha molekulyar sistema harakatining ma'lum bir turi haqida ma'lumot beradi. Masalan, ko'rish va ultrabinafsha sohada elektron o'tishlar haqida ma'lumot olinsa, infraqizil sohada molekula atomlarining muvozanat vaziyati atrofida tebranishi haqida ma'lumot olish mumkin. Molekulaning spektri moddaning xususiyatlari haqida to'liq

ma'lumot beradi. Molekulaning spektriga qarab nafaqat modda qanday molekulalardan tashkil topganligi haqida, hatto molekuladagi atomlarning o'zaro joylashishi, molekulalarning izomerlari haqida ham ma'lumot olish mumkin. Misol uchun,  $AlCl_3$ ,  $Al_2Cl_6$ ,  $C_6H_5Cl$  va hokazo moddalarning tuzilishini keltirib o'tish mumkin. Molekulyar spektroskopiyaning muhim ustunliklaridan biri tajriba paytida modda holati va xususiyatlari o'zgarib qoladi, ya'ni moddaning barcha xususiyatlari saqlanib qoladi. Molekulalarning spektri atomning spektriga nisbatan ancha murakkab. Molekulalarda elektronlarning harakati bilan birgalikda atom yadrolarining bir-biriga nisbatan tebranma harakati va fazodagi holatining davriy o'zgarishi aylanma harakati mavjud. Shuning uchun spektrni hosil qiladigan energetik sathlarning holatiga qarab aylanma, tebranma-aylanma, elektron-tebranma-aylanma spektrlar mavjud Energetik sathlarning spektral taqsimoti.

Molekulyar spektroskopiya amaliy fan hisoblanadi, uning fan va texnikada qo'llanilishiga bir necha misol keltiramiz:

1. Moddalarni qanday molekulalardan tuzilganligini aniqlash, identifikatsiya qilish; har bir molekula faqat o'ziga xos bo'lgan spektrga ega bo'lib, bir molekulaning spektri ikkinchi molekula spektridan farq qiladi. Bu xususiyatdan moddalarni sifatli tahlil qilishda foydalaniladi.

2. Molekulalar spektrining intensivligiga qarab har qanday agregat holatidagi moddaning miqdori, shuningdek aralashmadagi har bir moddaning miqdorini aniqlash mumkin, ya'ni moddalarning miqdoriy tahlilini o'tkazishda qo'llaniladi.

3. Molekulalardagi O-H,  $CH_3$ ,  $C=O$ , N-H va hokazo guruhlar o'zlarining xarakteristik tebranish polosasiga ega. Ana shu xarakteristik polosalarga qarab modda tarkibidagi molekulalarning u yoki bu funksional guruhi borligi to'g'risida ma'lumot olish mumkin.

4. Molekulalarning energetik holatlarini aniqlash bilan bog'liq bo'lgan doimiyliklar, yadrolar orasidagi masofa, tebranish chastotasi, dissotsiatsiyalanish energiyasi va hokazolarni topish mumkin.

5. Modda molekulalarining tuzilishi va molekulalarning fazodagi vaziyati to'g'risida ma'lumot olish mumkin.

6. O'lis masofadan turib har qanday temperatura va bosimdagi moddalarning sifati va miqdorini aniqlash.

11

7. Molekulalararo o'zaro ta'sirni o'rganish mumkin va hokazolar. Kogerent yorug'lik manbalari – lazerlarning kashf qilinishi molekulyar spektroskopiyaning imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Molekula aylanma harakatining har bir paytdagi fazasi elektromagnit to'lqin fazasi bilan mos tushadi. Xuddi shunday molekulaning tebranma harakati bilan elektromagnit to'lqin tebranishi

mos tushsa, unda tebranma harakatdan ma'lumot olamiz. Tabiiyki molekuladagi bu harakatlar elektromagnit to'liqin uzunligining turli sohalariga to'g'ri keladi.

Spektroskopiyada to'liqin uzunligini o'lchash uchun turlicha birliklardan foydalaniladi. Masalan, mikroto'liqin sohada 1 [sm] yoki [mm] larda, IQ sohada mikronlarda o'lchanadi ( $1 \text{ mkm} = 10^{-6} \text{ m} = 10^{-4} \text{ sm}$ ). Ko'rish va ultrabinafsha sohada Å ishlatiladi ( $1 \text{ Å} = 10^{-10} \text{ m} = 10^{-8} \text{ sm}$ ). Xalqaro birliklar sistemasi (SI)da nanometr qo'llaniladi ( $1 \text{ nm} = 10^{-9} \text{ m} = 10 \text{ Å}$ ). Spektroskopiyada to'liqin uzunligidan tashqari to'liqin soni, ya'ni to'liqin uzunligiga teskari bo'lgan kattalik ishlatiladi, o'lchov birligi [sm<sup>-1</sup>].  $1 \text{ (sm}^{-1}\text{)} = 10^8 \text{ (Å}^{-1}\text{)}$

$n = \frac{1}{\lambda} \cdot \frac{1}{\nu}$  . To'liqin sonining fizik ma'nosi ma'lum uzunlikdagi to'liqindan bir santimetrda joylashgan to'liqinlar sonini bildiradi. Amaliy spektroskopiyada to'liqin soni ishlatilishining qulayligi u energiyaga proporsionaldir, ya'ni  $E = hc \cdot n$  bo'ladi.

To'liqin uzunligi, to'liqin soni va chastotalarning o'zaro bog'lanishi haqidagi ma'lumotlar quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

**To'liqin uzunligi, to'liqin soni va chastotalarning o'zaro bog'lanishi**

<b>m</b>	<b>10<sup>-10</sup></b>	<b>10<sup>-8</sup></b>	<b>10<sup>-6</sup></b>	<b>10<sup>-4</sup></b>	<b>1</b>	
nm	10 <sup>-1</sup>	10	10 <sup>3</sup>	10 <sup>5</sup>	10 <sup>9</sup>	1
Å	1	10 <sup>2</sup>	10 <sup>4</sup>	10 <sup>6</sup>	10 <sup>10</sup>	
~n	sm <sup>-1</sup>	10 <sup>8</sup>	10 <sup>6</sup>	10 <sup>4</sup>	10 <sup>2</sup>	10 <sup>-2</sup>
n	Gs	10 <sup>+18</sup>	10 <sup>16</sup>	10 <sup>14</sup>	10 <sup>12</sup>	10 <sup>8</sup>

Bundan tashqari, spektroskopik o'lchov birligi sifatida erg va elektron voltlardan ham foydalaniladi. Chunki energiya  $E = h \cdot \nu = h \cdot n$ , temperaturani o'lchasak K° larda, kuchlanishni elektron voltlar (ev) da o'lchash mumkin. Shuningdek, ko'pchilik hollarda kal/mol – o'lchov biriligidan ham foydalaniladi.  $1 \text{ ev} \gg 8000 \text{ sm}^{-1} \gg 23000$

моль

кал

»12000K»10<sup>-12</sup>

Turli birliklarda o'lchangan spektroskopik kattaliklar orasidagi munosabat quyidagi 2-jadvalda keltirildi.

2-jadval

**Spektroskopik kattaliklarning turli o'lchov birliklariga o'tkazish uchun zarur ko'paytuvchilar to'g'risida ma'lumot**


O'lchov birli gi	sm <sup>-1</sup>	sek <sup>-1</sup> (gs)	erg	ev	°K	kal/mol
1 sm <sup>-1</sup>	1	2,997 93×10 <sup>-10</sup>	1,986 18×10 <sup>-16</sup>	1,2397 7×10 <sup>-4</sup>	1,438 8	2,858 4
1 sek <sup>-1</sup>	3,33 56×10 <sup>0-11</sup>	1	6,625 2×10 <sup>-16</sup>	4,1354 1×10 <sup>-11</sup>	4,799 4×10 <sup>-11</sup>	0,954 47×10 <sup>0-10</sup>
1 erg	5,03 48×10 <sup>0-15</sup>	1,509 40×10 <sup>-26</sup>	1	6,2414 ×10 <sup>-11</sup>	7,244 0×10 <sup>15</sup>	1,440 7×10 <sup>16</sup>
1 ev	8066 ,0	2,418 14×10 <sup>-14</sup>	1,602 21×10 <sup>-12</sup>	1	1160 5,4	23082
1 °K	0,69 502	2,083 6×10 <sup>-10</sup>	1,380 44×10 <sup>-16</sup>	0,8616 7×10 <sup>-11</sup>	1	1,988 8
1 kal/mol	0,34 947	1,047 7×10 <sup>-10</sup>	6,941 2×10 <sup>-17</sup>	4,3323 ×10 <sup>-11</sup>	0,502 82	1

14

Nurlanish yoki yutilishning kvant nazariyasi bo'yicha asosiy qonuni  $E_i - E_j = h \nu$  hisoblanadi. Bu yerda  $E_i$  va  $E_j$  lar  $i$ -chi va  $j$ chi energetik sathlarning energiyasini bildiradi. Energetik sathlar diskret, uzlukli va uzluksiz bo'ladi. Misol uchun oddiy vodorod atomida elektronning proton bilan bog'langan holati diskret sathga to'g'ri keladi.

Optikaviy spektrlar turli spektral asboblar: spektroskoplar, spektrometrlar, spektrograflar, spektrofotometrlar yordamida o'rganiladi. Bu asboblar prizmalı, interferension, difraksion va h. k. bo'lishi mumkin.


Optikaviy spektr hosil qilishning eng oddiy usuli shundan iboratki, bunda yorug'lik dastasi shishadan, kvarsdan va boshqalardan yasalgan uch yoqli prizmadan o'tkaziladi (10- rasm). O tirqishdan chiqayotgan L yorug'lik nuri R prizмага tushadi va unda turli rangdagi (turli to'lqin uzunlikdagi) nurlarga ajralib, ekranda, odatda, optika



10\_rasm


viy spektr deb ataluvchi yo uzluksiz, yo uzlukli rangli polosa hosil qiladi. Bu qurilma eng oddiy spektroskopdan iborat. Uning ajrata olish kuchi, ya'ni spektrning bir-biriga yaqin qismlarini to'liq uzunligi bo'yicha taqsimlash qobiliyati uncha katta emas. Ajrata olish kobiliyatini oshirish uchun ancha takomillashgan spektral asboblari qo'llaniladi.

11- rasmda spektrning ko'zga ko'rinadigan sohasida ishlatiladigan shisha prizmalı ISP- 51 tipidagi hozirgi zamon uch prizmalı spektrografning prinsipial optikaviy sxemasi tasvirlangan. Bu yerda I yorug'lik manbai bo'lib, uning nurlanishi  $Q_x$  kondensator yordamida  $O_g$  ob'ektivning fokal tekisligida joylashgan tirqishga (kengligi millimetrning o'ndan va yuzdan bir ulushi tartibida) yo'naltiriladi. Maxsus trubaga o'rnatilgan S tirqish va  $O_1$  ob'ektiv birgalikda kollimator deb ataladi.  $O_g$  ob'ektivdan yorug'lik parallel nurlar dastasi holida chiqib,  $R_x$  prizmaning birinchi yog'iga kelib tushadi, so'ngra  $R_2, R_3$  prizmalardan o'tib, ularda Spektrga ajraladi.  $R_2$  prizmaning tomonlaridan biri nurni to'liq ichki qaytarishi hisobiga, u bir vaqtning



11-rasm.

o'zida nurni burib beruvchi ko'zgu vazifasini ham o'taydi. Yorug'lik prizmalar sistemasidan o'tib, spektrograf fotokamerasining  $O_2$  ob'ektiviga kelib tushadi. Bu ob'ektiv nurni spektrning suratini tushirishga mo'ljallangan fotoplastinka o'rnatilgan  $RN$  tekislikka to'plab beradi.  $RN$  tekislikda tirqishning monoxromatik, ya'ni aniq, to'liq uzunligiga moe keluvchi nurlardagi qator tasvirlari hosil bo'ladi. Tirqishning bu monoxromatik tasvirlar to'plami optikaviy spektrni beradi. Agar I manbaning nurlanishi bir qancha alohida monoxromatik nurlanishlardan tarkib topgan bo'lsa, u holda  $RN$  tekislikda S tirqishga parallel, turli xil ravshanlikka ega bo'lgan bir nechta rangli chiziqlar hosil bo'ladi (12- rasm). Agar manba uzluksiz chastotalar to'plamidan iborat yorug'lik tarqatayotgan bo'lsa, spektrografning  $RN$  fokal tekisligida ranglar uzluksiz o'zgaradigan polosa hosil bo'ladi.  $K_x$  kondensor spektrograf S tirqishining yoritilishini kuchaytirib beradi; bu esa spektr ravshanligi-




12-rasm.

ning ortishiga olib keladi.

ISP- 51 spektrografning prizmalar sistemasi maxsus mexanizm yordamida aylana oladigan va spektrning kerakli qismini foto-plastinkaga tushirib bera oladigan

maxsus stolchalar sistemasiga o'rnatiladi.  $O_2$  ob'ektiv, shu ob'ektiv o'rnatilgan truba va foto-kassetani tutib turgichlar—bularning hammasi birgalikda spektrning suratini oluvchi fotokamerani tashkil etadi. Asbobning nomi—*spektrograf* shundan kelib chiqqan. Agar  $O_a$  ob'ektivning fokal tekisligiga spektrni ko'z bilan qarash uchun yoki vizual kuzatish deb nom olgan kuzatishlar o'tkazish uchun okulyar o'rnatilgan bo'lsa, asbob *spektroskop* bo'ladi. Nihoyat, agar  $O_2$  ob'ektivning spektrning tasvirni hosil bo'ladigan fokal tekisligiga bir rangdagi nurlarni o'tkazadigan ingichka tirqish qo'yilsa, u holda bunday spektroskop *monoxromator* deb ataladi. 13- rasmda ISP-51 spek-



13- rasm.

trografining tashqi ko'rinishi tasvirlangan. Asbobning detallari sonlar bilan ko'rsatilgan: 1— spektrografning kirish tirqishi (rasmda u kopqoq bilan berkitilgan); 2— tirqishni aniq ochish uchun mo'ljallangan darajalangan baraban; 3— kollimator trubasi; 4— ob'ektivni optikaviy o'q bo'ylab siljitish uchun mo'ljallangan kremalera; 5— prizmalar joylashtirilgan quticha; 6— fotokamera trubasi; 7— fotokamera ob'ektivini siljitish uchun mo'ljallangan kremalera; 8— fotoplastinkali kassetalarni o'rnatish uchun mo'ljallangan yo'naltiruvchi salazkalar; 9— fotoplastinkali kasseta. 10— spektrografning staninasi; 11 va 12— yordamchi detallarni o'rnatish uchun mo'ljallangan relelar (optikaviy skameykalar).

ISP- 51 spektrografdan tashqari spektrning ultrabinafsha, ko'zga ko'rinuvchi va infraqizil sohasini tadqiq qilish uchun qo'llanadigan qator boshqa prizmalı asboblar ham ishlab chikarilmoqda. Prizmalı asboblar bilan birga, spektrning barcha sohalarida difraksion panjara yordamida ishlaydigan yuqori sifatli asboblar ham chiqarilmoqda. Barcha asboblar uchun fotografik registratsiyadan tashqari, spektrning fotoelektrik registratsiyasi uchun qo'llanadigan quyma ham tayyorlanadi. Infraqizil sohada nurlanishlarni qabul qilgichlar sifatida termoparalar, bolometrlar, yarim o'tkazgichli sezgir elementlar ishlatiladi.

Spektral asboblarda yorug'lik kuchi, dispersiya va ajrata olish qobiliyati eng muhim xarakteristikalar hisoblanadi. Spektral asbob ob'ektivlarining diametrlari qanchalik katta va fokus masofalari qanchalik kichik bo'lsa, ularning *yorug'lik kuchi*




shunchalik katta bo‘ladi. Asbobning *dispersiyasi* spektrning ikki sohasi orasidagi chiziqli oraliqning shu uchastkalarni xarakterlovchi to‘lqin uzunliklar farqiga bo‘lgan nisbati, ya’ni


(5.4)

orqali aniqlanadi. Bu yerda  $D$  — chiziqli dispersiya;  $\Delta l$  — spektrdagi to‘lqin uzunliklar shkalasi bo‘yicha  $\Delta\lambda$ , ga farqlanuvchi ikki soha orasidagi oraliq. Prizmalı spektrografning chiziqli dispersiyasi prizma asosi uzunligining undan o‘tayotgan yorug‘lik dastasi kengligiga bo‘lgan nisbatiga, prizmalar soniga, prizma moddasi nur sindirish ko‘rsatkichining to‘lqin uzunligi bo‘yicha olingan hosilasi  $\left(\frac{dn}{d\lambda}\right)$  ga va fotokamera ob‘ektivining fokus masofasiga to‘g‘ri proporsional.

Ilmiy adabiyotda spektr ko‘pincha grafik ravishda tasvirlanib, bunda gorizontāl o‘q bo‘yicha yorug‘lik tebranishlar chastotasi yoki to‘lqin uzunligi, vertikal o‘q bo‘yicha tebranish amplitudasining kvadratiga proporsional bo‘lib, shu to‘lqin uzunligiga mos kelgan quvvat joylashtiriladi. 14-rasmda 12-rasmdagi spektral chi-



14- rasm.



15- rasm.

ziqlarga mos keluvchi spektrning grafik tasviri ko‘rsatilgan. Grafikdagi vertikal chiziklarning uzunligi tegishli spektral chiziklarning ravshanligiga proporsional bo‘ladi. Aslida esa ideal monoxromatik nurlanishni hosil qilish mumkin bo‘lmaganligi sababli (barcha real nurlanishlar kvazimonoxromatik hisoblanadi) ideal ingichka chiziqlar (masalan, 14- rasmdagi chiziqlar) o‘rniga, spektral chiziklar yoki tutash spektrdan ajratib olingan, chekli kenglikka ega bo‘lgan ingichka sohalar hosil bo‘ladi (15-rasmga q.) Shunday qilib, spektral chiziqlar uncha keng bo‘lmagan, ammo har holda chekli kenglikka ega bo‘lgan polosalardan iborat bo‘ladi. Ularga mos yorug‘lik amalda monoxromatik (bir rangli) deb kabul qilinadi.

Yorug‘likning korpuskulyar xossalari haqida biz keyinroq gapirishni mo‘ljallagan bo‘lsak ham, bu yerda spektral apparatlar tufayli fotonlar haqidagi tasavvurlarga asoslanib spektral xarakteristikalariga oid bir nechta mulohaza aytib o‘tishimiz mumkin. Foton energiyasi

$$E = h\nu \quad (5.5)$$

Plank formulasi bilan aniqlanadi. Bu yerda  $h$  — Plank doimiysi;  $\nu$  — tekshirilayotgan yorug‘lik nurlanishining tebranish chastotasi. Bu yerdan ko‘rinib turibdiki, yorug‘likning kvant nazariyasida tebranish chastotasi o‘rniga berilgan  $E$  energiyali fotonlarning spektral chizig‘ini xarakterlashimiz mumkin ekan. Spektrdagi intensivlik (ravshanlik) yorug‘likning fotonlar nazariyasiga ko‘ra, yorug‘lik tebranishlarining amplitudasi bilan emas, balki energiyali fotonlar soni bilan yoki aniqrog‘i, 1 sek da *ma’lum* energiya intervalida nurlanayotgan fotonlar soni bilan aniqlanadi; bu yerda berilgan kvazimonoxromatik nurlanishning kengligini aniqlaydi.

Spektral qurilmalar ba’zi xarakteristikalarini:

Burchak dispersiyasi

$$D_{\varphi} = \frac{d\varphi}{d\lambda}$$

Chiziqli dispersiya

$$D_l = \frac{dl}{d\lambda}$$

Ko‘p holda teskari dispersiya qo‘llaniladi

$$\frac{1}{D_l} = \frac{d\lambda}{dl} \left[ \frac{A^\circ}{mm} \right]$$

Material dispersiyasi bilan chalkshtirish kerak emas.

Ideal qurilmada tirqish tasviri fokal tekislikda ingichka chiziqlar sifatida ko‘rinishi kerak edi. Lekin real qurilmada bunday emas. Bir qancha sabablar borki tasvir buzilib ko‘rinadi. Qurilmani ta’siri:


Tirqish kengligi chekli qiymatga ega.

Difraksion hodisalar hisobiga tasvir kengayishi.

Optik sistemasini defektlari.

Registratsiya vositasi kiritadigan kengayish.

Demak spektral qurilma monoxromatik yorug‘lik qayd qilganda bitta chiziq o‘rniga qandaydir konturni registratsiya qiladi.



Ana shu konturdan kichik bir bo'lak olsak

$$dF = F f(\lambda) d\lambda$$

Bu eda  $F$  to'lqin oqimga mos integral signal.  $f(\lambda)$  funktsiya qurilmani apparat funktsiyasi diyiladi

Apparat funktsiya normallangan bo'ladi

$$\int_0^{\infty} f(\lambda) d\lambda = 1$$

Apparat funktsiya qanaqa bo'lishi mumkin ba'zi hollarini ko'ramiz.

1-hol. Tirqish cheksiz kichik nur monoxromatik bo'lsin. U holda fokal tekislikdagi tasvir faqat difraksiya bilan aniqlanadi.

$$E_{\varphi} = E_0 \frac{\sin^2 \varphi}{n^2} \text{ bu erda } n = \frac{\pi b}{\lambda} \sin \varphi$$

$b$ -diafragma o'lchami


$\varphi$  — markazdan boshlab har ikki tomonga sanaladigan burchak  $\varphi$  lar kichik bo'lganda  $\sin \varphi \approx \varphi$  deb olish mumkin.

$$f(\varphi) = \frac{E_{\varphi}}{E_0} = \frac{\sin^2 \frac{\pi b}{\lambda} \varphi}{\left(\frac{\pi b}{\lambda} \varphi\right)^2}$$

Bu funktsiyaning ko'rinishi ma'lum. Bu bog'lanishni  $f_1(x)$  — yozish mumkin

$\varphi = \frac{x}{r}$  — linzaning fokus masofasi

$$f_1(x) = \frac{\sin^2 \left(\frac{\pi b x}{\lambda r}\right)}{\left(\frac{\pi b x}{\lambda r}\right)^2}$$




2-hol. Tirqish keng nurlanish monoxramatiktirqish nolinci difraksion maksimumdan ancha keng uholda difraksiani hisobga olmasa bo'ladi va tasvir bir tekis yoritilgan deb hisoblaymiz.

$$f_2(x) = \begin{cases} \frac{1}{a_1}, & x \leq \frac{a_1}{2} \\ 0, & x \geq \frac{a_1}{2} \end{cases} \quad a_1 - \text{tasvir kengligi}$$

Demak xulosa qilib aytish mumkinki boshqa ta'sirlarni hisobga olmaganda apparat funksiya bu sistemaga monoxramatik yorug'lik tushganda chiqishdagi yoritilganlik taqsimotini berdigan funksiya.

Tirqish kengligi etarlicha katta lekin dispersiya mavjud, yani dispersiyani hisobga olishga to'g'ri keladi. U holda tirqishni bir qator cheksiz kichik tirqishlarga bo'lamiz. Tirqish tekisligini y-koordinata bilan belgilaymiz u holda elementar tirqish kengligi  $dy$  uning koordinatasi  $y_1$  deb olamiz. U holda har bir elementar tirqish fokal tekisligida ifraksion tasvir hosil qiladi. Hosil bo'lgan tasvir maksimumlari  $x_1$  nuqtaga to'g'ri keladi, bu yoritilganlik (1) ko'rinishidagi funksiya bilan aniqlanadi. Faqat argumentni  $x$  ( $x - x_1$ ) o'zgartirish kerak  $y_1(x)f_1(x - x_1)$



Tirqishlar kogerent emas. U holda umumiy yoritilganlikni aniqlash uchun  $f_1(x - x_1)$  ni  $-\frac{a_1}{2}$  dan  $\frac{a_1}{2}$  gacha integrallash kerak. Demak

$$F(x) = \int_{-\frac{a_1}{2}}^{\frac{a_1}{2}} f_1(x - x_1) dx_1 = \int_{-\frac{a_1}{2}}^{\frac{a_1}{2}} \frac{\sin^2\left(\frac{\pi(x - x_1)}{\delta l}\right)}{\left(\frac{\pi(x - x_1)}{\delta l}\right)^2} dx_1$$

bu erda  $\delta l = \frac{\lambda r}{b}$ . Agarda tirqishlar kogerent bo'lsa u holda

$$F(x) = \left[ \int_{-\frac{a_1}{2}}^{\frac{a_1}{2}} \frac{\sin\left(\frac{\pi(x - x_1)}{\delta l}\right)}{\left(\frac{\pi(x - x_1)}{\delta l}\right)} dx_1 \right]^2$$

Endi chiziqli kengayish 2 ta turli sabablar hisobiga kelib chiqadi deb hisoblaymiz. U holda

$f_1(x)$  - birinchi sabab konturi

$f_2(x)$  - ikkinchi sabab konturi

Yig'indi konturni olish uchun yana integrallash kerak bo'ladi. YA'ni misol uchun  $f_1(x)$  -ni mayda integrallarga bo'lamiz bu elementlar koordinatasi  $x_1$ , kengligi  $dx_1$  Har bir  $f_1(x)$ -ni elementi  $f_2(x)$ -ni ta'siri natijasida kengayadi va kengaygan kontur  $f_2(x)$  bilan aniqlanadi lekin koordinata  $x_1$  ga suriladiva yoritilganlik  $f_1(x_1)dx_1$ -ga proporsional bo'ladi. Demak shu elementning ta'siri umumiy konturga xnuqtadagi ta'siri

$$F(x) = f_1(x_1)f_2(x - x_1)dx_1$$

Umumiy kontur

$$F(x) = \int_{-\infty}^{\infty} f_1(x_1)f_2(x - x_1)dx_1 \quad (2)$$

Chap tomonda turgan integral svertka deb ataladi. Ko'p hollarda  $f_1(x)$  va  $f_2(x)$  lar biror  $x_1 < x < x_2$  oraliqda noldan katta bo'ladi. U holda

$$F(x) = \int_{x_1}^{x_2} f_1(x')f_2(x - x')dx$$

deb yozish mumkin.

Svertkada qaysi funksiya qay biriga qo'shilishini ahamiyati yo'q. YA'ni

$$F(x) = \int_{x_1}^{x_2} f_1(x')f_2(x-x')dx' = \int_{x_1}^{x_2} f_1(x-x')f_2(x')dx'$$

Svertkaning yana bitta muhim xususiyati, agrda uchta tasvir bo'lsa u holda

$$F_n(x) = \int_{-\infty}^{\infty} f_3(x-x') \left[ \int_{-\infty}^{\infty} f_1(x')f_2(x-x')dx' \right] dx''$$

agarda  $n$  ta funksiya ta'sir etsa

$$F_n(x) = \int_{-\infty}^{\infty} f_n(x-x')F_{n-1}(x')dx'$$

2- integralga qaytamiz bu integralda  $F(x)$  va  $f_2(x)$  ma'lum bo'lsa  $f_1(x)$  aniqlash mumkin (isbotsiz). Bu takidlash optika va radiofizika kata o'rin egallaydi.

Spektral chiziqlar kengligi shu paytgacha ideal holatni ko'rib spektrografga tushayotgan yorug'lik monoxromatik deb hisoblash keldik. Lekin aslida har qanday spectral chiziq kenglikka ega va undagi energiya taxminan

$$\varphi(\lambda) = \frac{d\Phi}{d\lambda}$$

Ko'p hollarda  $\varphi(\lambda)$  maksimumdan ikkala tarafda asimtotik ravishda nolga intiladi. Shuning uchun uning kengligini aniq aytib bo'lmaydi. Shu sababli spektral chiziq kengligi deb uni yarim balandlikdagi kengligi olingan.

Bu interval chiziq yarim kengligi deyiladi ba'zi holda  $\frac{I_{max}}{e}$  ga nisbati olinadi. Xuddi shunday spectral qurilmaning apparat funksiyasi kengligi ham aniqlanadi. Misol: difraksion tasvir uchun to'g'ri burchakli konturda yarim kenglik

$$\Delta\varphi = 0,88 \frac{\lambda}{b}$$

Oxirgi natijamiz

$U(x)$ -tasvir,  $\varphi(x)$ -spektr kengligi,  $F(x)$ -apparat funksiya xisobga olib

$$U(x) = \int_{-\infty}^{\infty} F(x')\varphi(x-x')dx'$$

deb yozish mumkin


Demak spektrograf chiqishidagi tasvirni bilsak spektrograf apparat funksiyasini aniqlasak, u holda tushayotgan spektrni aniq aytib bera olamiz.

$\varphi(x)$ -ni analitik aniqlash hamma vaqt ham mumkin emas. Shuning uchun integrallamasdan turib ba'zi xususiy hollarni ko'ramiz.

1-hol. Spektr kengligi apparat funksiya kengligidan kichkina va  $\varphi(x)$  noldan  $[x - \Delta x ; x + \Delta x]$  oralig'ida farqli. Demak

$$U(x) = \int_{x-\Delta x}^{x+\Delta x} F(x')f(x-x')dx'$$

$F(x)$ -ni qiymati  $[x - \Delta x ; x + \Delta x]$  intervalida ko'p o'zgarmaydi



Shu sababli o'rtacha qiymat teoremasiga asosan funksiyani biror qiymat bilan shu orliqda almashtirsa bo'ladi.  $F(x) = F(\bar{x})$  bu erda  $\bar{x} \in [x - \Delta x ; x + \Delta x]$  u holda

$$U(x) = F(\bar{x}) \int_{x-\Delta x}^{x+\Delta x} \varphi(x-x') dx'$$

$$\int_{x-\Delta x}^{x+\Delta x} \varphi(x-x') dx' = 1$$

Demak  $U(x) = F(x)$

Yana bir marta  $F(x)$  ni berilgan intervalda ham o'zgarishini hisobga olsak u holda  $U(x) = F(x)$

Demak chiqish konturi apparat funksiya bilan mos kelayapti.

Xulosa. Agarda chiqish konturi apparat funksiya bilan mos tushsa u holda kirishdagi nurlanishni monoxromatik deb hisoblasa bo'ladi.

Teskari ham o'rinni. Nurlanishda energiyani to'liq uzunliklari bo'yicha taqsimotini aniqlash uchun (sektorni aniqlash), spektral qurilmaning apparat funksiyasi spektr kengligidan kichik bo'lishi kerak. Odatda apparat funksiya kengligini angstrom yoki  $\frac{1}{sm}$  da o'lchanadi.

O'lchash xatoliklari ta'siri, ya'ni asosiy natijaga qaytamiz.

$$U(x) = \int_{-\infty}^{\infty} F(x') \varphi(x-x') dx'$$

Agarda  $F(x)$  ma'lum bo'lsa  $U(x)$  ni o'lchab olsak u holda  $\varphi(x)$  ni ixtiyoriy aniqlikda aniqlash mumkin degan xulosaga kalamiz, ya'ni qurilmaning sifati hech narsani aniqlamaydi.

Bu erda  $U(x)$  va  $F(x)$  larni aniqlashdagi xatolik hisobga olinmagan. Qurilmaning xatoliklar kiritishi uchun ajrata olish qobiliyati bilan aniqlanadi. Ajrata olish qobiliyatini aniqlashdan oldin ikkita chiziqni qaysi holda ajralgan diymiz. Shuni aniqlab olamiz. Chiziqlarni ajralganini Reliy kriteriysi bilan farqlash qulay bo'ladi. Reliy kriteriysi: eng kichik ajrata olishi mumkin bo'lgan interval deb shu konturdagi bosh maksimum va birinchi minimum orasidagi masofani aytamiz.

Burgan o'lchov birliklarida

$$\delta\varphi = \frac{\lambda}{b}$$

Demak ikki monoxramatik bir xil yorqinlikdagi chiziqlar ajralgan bo'ladi. Agarda birinchisini minimumi kkinchisini maksimumiga mos kelsa

Bu konturlar chiziqlari kesishgan joy  $\varphi = \frac{b}{2\lambda}$  shu qiymatni

$$\frac{E_\varphi}{E_0} = \frac{\sin^2 \frac{\pi b}{\lambda} \varphi}{\left(\frac{\pi b}{\lambda} \varphi\right)^2} = \frac{1}{\left(\frac{\pi}{2}\right)^2} = 0,4$$

U holda yoritilganlik 0,8 yoritilganlik beradi. Demak yoritilgandagi chuqurlik maksimumdan 20 % ni tashkil qiladi. Bu farqni ko'z ilg'ay oladi. Shu sababli ikki chiziq  $\delta\varphi = \frac{\lambda}{b}$  masofada joylashgan bo'lsa, u holda ular alihida ko'rinadi. Endi burchak dispersiyasi formulasini eslaymiz.

$$D_\varphi = \frac{d\varphi}{d\lambda} d\lambda = \frac{d\varphi}{D_\varphi} \delta\lambda = \frac{\lambda}{bD_\varphi}$$

Eng kichik ajraladigan interval, ya'ni qurilmaning ajratish chegarasi.

Ishlatishga boshqa kattalik qulayroq bo'ladi.

$R = \frac{\lambda}{\delta l} = bD_\varphi$  Reliy kritiriysi boyicha ajrata olish kuchi, yoki nazariy ajrata olish kuchi.

Bu krittiriy mukammal emas.

Misol: ikki yonma-yon chiziq yorqinliklari 10:1 munosabatda bo'lsin va ular orasidagi masofa  $\frac{\lambda}{b}$  bo'lsin u holda ularni ajratib bo'lmaydi.

Demak Reliy kriteriysi ikki chiziq ajralishi haqida aniq tasavvur bo'lmaydi, lekin qurilmalarni solishtirishda juda qulay kriteriy.

## Nazorat savollari

Yorug'lik spektri xaqida tushuncha. Spektrlar turlari, ularni qisqacha xarakteristikalari, ularni xosil bo'lish sabablari.

Eng sodda spektral qurilma blok sxemasi. Spektral qurilmalar asosiy xarakteristikalari.

Monoxromator, polixromator, spektroskop, spektrograf va spektrometr iboralar bilan ataladigan qurilmalarning farqi. Spektral qurilma fokal tekisligida xosil bo'ladigan tirkish tasvirini kengayish sabablari.

Spektral qurilma apparat funksiyasi, uni xususiyatlari.

Spektral qurilmada spektr chizig'i kengayishiga sabablar. Svertka xaqida tushuncha va uni xossalari.

Tirqish kengligi nolinchii difraksion maksimumi kengligidan bir necha marta katta bo'lgan xol uchun spektral qurilma apparat funksiyasi.

Apparat funksiyani aniqlashdagi va fokal tekislikdagi yoritilganlik taxsimotini o'lchashdagi xatoliklarning xaqiqiy spektrni aniqlashdagi roli.

Spektral chiziq kengligi xaqida tushuncha, spektral chiziq kengayishi sabablari.



Ajratiladigan chiziklar orasidagi eng kichik intervalni aniqlashda Reley kriteriysi. Reley kriteriysiga asosan ajrata olish qobiliyati.

Spektral chizik kengligi apparat funktsiya kengligidan ko'p marta kichik bo'lgan xolda spektral qurilma fokal tekisligida yoritilganlik taxsimoti.

Kvars va shisha prizmalarning solishtirma xarakteristikasi. Dispersiyalovchi element sifatida ishlatiladigan prizmalarga qoyiladigan talablar.

Nurning prizmadan o'tishini xarakterlaydigan asosiy kattaliklar. Bu kattaliklarni bog'lovchi tenglamalar. Sindirish burchagi uchun chegaraviy qiymat. Eng kam og'ish burchagi.

Prizmaning ajrata olish qobiliyati. Prizmalar sistemasining ajrata olish qobiliyati. Prizma ajrata olish qobiliyatiga ta'sir etuvchi omillar.

Prizmaning burchak kattalashtirishi. Prizma va prizmalar sistemasining dispersiyasi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

David L. Andrews. Fundamentals of Photonics and Physics. Published by John Wiley & Sons. Inc., Hoboken, New Jersey.

B. Salex, M. Teyx. Optika i fotonika. Printsipy i primeneniye. Per s angl. Dolgoprudnyy, Izdatelskiy dom «Intelekt», 2012

.<http://www.photonics.com>

[www.optics.arizona.edu](http://www.optics.arizona.edu)»Research»

Specialties [www.manchester.ac.uk](http://www.manchester.ac.uk)

### 3-mavzu: Prizmalı spektral qurilmalar. Prizmalı spektral qurilmalarning ishlash soxasi, apparat funksiyasi, dispersiyasi, ajrata olish qobiliyati, chiziqli kattalashtirishi.

#### Reja

Prizmalı spektral qurilmalar.

Prizmalı spektral qurilmalarning ishlash soxasi

Apparat funksiyasi

Dispersiyasi, ajrata olish qobiliyati

Chiziqli kattalashtirishi

Avvalgi ma'ruzalarda osmon jismlarining spektrlarini o'rganish orqali ularning kimyoviy tarkibi, harorati, bosimi, aylanishi va boshqalar haqida qanday ma'lumot olish mumkinligi ko'rsatilgan. Quyida biz astronomiyada ishlatiladigan spektral asboblarning asosiy turlarini ko'rib chiqamiz. Birinchi marta yulduzlar va sayyoralar spektrlarini o'tgan asrda italiyalik astronom Secchi kuzatishni boshladi. Uning ishidan keyin ko'plab boshqa astronomlar spektral tahlilni boshladilar. Birinchidan, vizual spektroskop ishlatilgan, keyin spektrlar suratga olingan va endi fotoelektr spektrini yozib olish ham qo'llanilmoqda. Spektrni fotosuratga oladigan spektral asboblarda odatda spektrograflar, fotoelektrlari esa spektrometrlar deyiladi.




Рис. 117. Оптическая схема призмного спектрографа.

117-rasmda prizma spektrografining optik sxemasi ko'rsatilgan. Prizma oldida kollimator hosil qiluvchi tirqish va ob'ektiv joylashgan. Kollimator prizmaning parallel nurlarini yuboradi. Prizma materialining sinish ko'rsatkichi to'lqin uzunligiga bog'liq. Shuning uchun prizmadan keyin har xil to'lqin uzunliklariga mos keladigan parallel nurlar har xil burchak ostida ajralib chiqadi va ikkinchi ob'ektiv (kamera) fokal tekislikda spektr beradi, u suratga olinadi. Agar kameraning fokus tekisligiga ikkinchi tirqish qo'yilsa, spektrograf monoxromatorga aylanadi.

**Ikkinchi tirqishni spektr bo'ylab siljitish yoki prizmani aylantirish orqali spektrning alohida, ko'p yoki ozroq tor qismlarini tanlash mumkin. Agar biz monoxromatorning chiqish tirqishi ortida fotoelektr detektorini joylashtirsak, biz spektrometrni olamiz.**

Hozirgi vaqtda prizma spektrograflari va spektrometrlari bilan bir qatorda difraksion spektrometrlari keng qo'llanilmoqda. Ushbu qurilmalarda prizma o'rniga dispers (ya'ni spektrga ajralish) elementi difraksion panjara hisoblanadi. Eng ko'p ishlatiladigan reflektorli difraktsiya panjaralari hisoblanadi.

Prizma yordamida spektrni olsak, biz ikkita muhit chegarasida yorug'likning sinishi hodisasini qo'llaymiz. Difraksion panjaraning ishlashi boshqa turdagi hodisalarga asoslangan - yorug'likning difraktsiyasi va interferentsiyasi. Difraksion panjaraning ishlash printsiptini batafsil tushuntirmasdan (u fizika kursida o'rganiladi), biz faqat prizmadan farqli o'laroq, u bir emas, balki bir nechta spektrlarni berishini ta'kidlaymiz.

Bu prizma bilan solishtirganda yorug'likning ma'lum bir yo'qotilishiga olib keladi. Natijada, Astronomiyada difraksion panjaralardan foydalanish azaldan Quyoshni o'rganish bilan cheklanib kelgan. Ushbu kamchilik Amerika optikasi Vud tomonidan yo'q qilindi. U panjarali oluklarga ma'lum bir profil berishni taklif qildi, masalan, energiyaning katta qismi bitta spektrda to'planadi, qolgan qismi esa juda zaiflashadi. Bunday panjaralar yo'naltiruvchi yoki esetellar deb nomlanadi.

**Spektral qurilmaning asosiy xarakteristikasi - bu spektrni ajrata olish kuchi hisoblanadi.**

$$R = \frac{\lambda}{\Delta\lambda},$$

bu erda  $\Delta\lambda$  - bu alohida sifatida ro'yxatdan o'tgan ikkita yaqin chiziq orasidagi minimal masofa. Ajrata olish kuchi qanchalik baland bo'lsa, spektrni shunchalik batafsil o'rganish mumkin va natijada chiqaradigan ob'ektning xususiyatlari haqida ko'proq ma'lumot olish mumkin. Yonaltiruvchi difraksion panjarali spektral qurilmalarni ajrata olish, prizmalı spektral qurilmalarga nisbatan ancha yuqori. Lekin ularni boshqa barcha kattalıkları teng.

**Spektral qurilmalarning yana bir muhim xarakteristikasi bu burchakli dispersiyadir**

$$C = \frac{\Delta\alpha}{\Delta\lambda},$$

bu erda  $\Delta\alpha$  - dispersiyalash elementidan o'tgan va to'lqin uzunligi bilan farq qiladigan parallel nurlar orasidagi burchak. Miqdor

$$C' = f \frac{\Delta\alpha}{\Delta\lambda},$$

bu erda  $f$  - kameraning fokus masofasi, chizikli dispersiya deb ataladi, bu kameraning fokus tekisligidagi spektrning ko'lamini ifodalaydi va angstromga millimetrda, yoki (kichik dispersiyalar uchun) millimetrga angstromlarda belgilanadi Demak, spektrografning dispersiyasi  $250 \text{ \AA} / \text{mm}$ , degan ma'noni anglatadi spektrogramdagi millimetr to'lqin uzunligi intervalgacha  $\Delta\lambda = 250$  correspond ga to'g'ri keladi.

Optik sxemaning xususiyatlari va astronomik spektral asboblarni dizayni ular mo'ljallangan vazifalarning o'ziga xos xususiyatiga juda bog'liq. Yulduz spektrlarini

olish uchun qurilgan spektrograflar (yulduz spektrograflari) tumanlik spektrlari o'rganilayotgan tumanliklardan sezilarli farq qiladi. Quyosh spektrograflari ham o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Agar ob'ekt kuchsiz bo'lsa, ya'ni. undan ozgina yorug'lik chiqadi, keyin uning spektrini juda batafsil o'rganish mumkin emas, chunki rezolyutsiya kuchining oshishi bilan har bir aniqlanadigan elementga tushadigan energiya miqdori kamayadi. Shu sababli, eng yuqori aniqlik kuchiga tabiiy ravishda quyosh spektral asboblari ega. Katta quyoshli spektraflarda u 106 ga etadi. Ushbu qurilmalarning chiziqli dispersiyasi  $10 \text{ mm} / \text{\AA}$  ( $0,1 \text{ \AA} / \text{mm}$ ) ga etadi.

Eng kuchsiz obektlarni o'rganayotganda, o'zini 100 yoki hatto 10 darajadagi ajrata olish kuchi va  $\sim 1000 \text{ \AA} / \text{mm}$  dispersiyalar bilan cheklash kerak. Masalan, xira yulduzlarning spektrlari ob'ektiv prizma yordamida olinadi, ya'ni. eng oddiy astronomik spektral asbob. Ob'ektiv prizma to'g'ridan-to'g'ri teleskop linzalari oldida joylashtirilgan va natijada yulduzlar tasvirlari spektrga cho'zilgan. Teleskopning o'zi kamera vazifasini bajaradi va kollimator kerak emas, chunki yulduzning yorug'ligi parallel nur shaklida keladi. Ushbu dizayn qurilmadagi yutilish tufayli yorug'lik yo'qotilishini minimallashtiradi. 118-rasmda ob'ektiv prizma bilan olingan yulduzlar maydonining fotosurati ko'rsatilgan.





Рис. 118. Фотография звездных спектров, полученная с объективной призмой  
Для некоторых звезд указаны спектральный класс.

Yorug'lik filtrlari yordamida nurlanishning spektral tarkibi to'g'risida taxminiy fikrni olish mumkin. Spekrning fotografik va vizual sohalarida ko'pincha rangli shisha filtrlardan foydalaniladi. 119-rasmda, ba'zi bir yorug'lik filtrlari uchun uzatishning to'lqin uzunligiga bog'liqligini ko'rsatadigan egri chiziqlar ko'rsatilgan bo'lib, ular bir yoki boshqa qabul qilgich bilan bir necha yuz angstromdan ortiq bo'lmagan

maydonlarni tanlashi mumkin. Rangli shisha filtrlar yorug'likni yutish (yutish) ning to'lqin uzunligiga bog'liqligini ishlatadi. Ushbu turdagi yorug'lik filtrlari assimilyatsiya filtrlari deb ataladi. Yorug'lik filtrlari spektrning tor qismini tanlash uchun yorug'lik interferensiyasiga asoslangan.

Prizmalik spektral qurilmalar spektrlarni o'rganishdagi birinchi qurilma. Spektral prizma bu shaffof materialdan tayyorlangan, katta dispersiyaga ega bo'lgan ko'p qirrali jism. ( $\frac{dn}{d\lambda}$ -dispersiya) demak prizma yasaladigan materialga bir qator talablar qoyiladi.




YA'ni material tadqiqot o'tkaziladigan to'lqin uzunliklarida shaffof va yuqori dispersiyaga ega bo'lishi kerak.  $\frac{dn}{d\lambda}$  yana u optik jihatdan bir jinsli va izotrop bo'lishi kerak. Qolaversa unga oson ishlov berilishi kerak va u arzon bo'lishi kerak.

Tabiiy kvars 2000÷4000 Å orasida yaxshi dispersiya ega. Lekin 4000 Å qiyin dispersiya tez kamayadi. Eritilgan kvars ham shunga o'xshash lekin dispersiyasi kamroq o'zi arzonroq. Tabiatda kata kvars kristallari kam uchraydi u ham qimmat turadi.

Shisha: 5000÷ 7000 Å orasida, dispersiyasi yaxshi “(kvarsda kam)

O'tkazish spektri



Kvarsda: o'tkazish qobiliyati 2500 Å dan boshlab birga yaqin ba'zi tabiiy kristallar 2000 Å da yaxshi o'tkazishi mumkin.


Shisha: ~4200 Å lardan boshlab o'tkazish birga yaqin.

Xulosa: Ultrabinafsha sohada 2000 Å kata to'liqlarda tabiiy kvartsning alohida namunalari ishlashi mumkin. 2500 Å uzun to'liqlarda kvarts prizmalar ishlatishga qulay. 4200 Å lardan boshlab shisha prizmalar qulay bo'ladi.

O'lchamlari:

Prizmalar odatda 10 sm dan kichik bo'ladi. Undan kata prizma ishlab chiqish qiyin va qimmat bo'ladi. Keng detallar bilan ishlash kerak bo'lganda, prizma shaklidagi idishga dispersiyasi katta suyuqlik solinadi. Ba'zida esa bir qancha prizmalarni birgalikda ishlatiladi. (murakkab prizmalar)

Faraz qilaylik  $n$  va  $\frac{dn}{d\lambda}$  prizmaning butun hajmi boyich bir xil. Prizmaga tushayotgan barch nurlarni traektoriyasini aniqlash qiyin. Shuning uchun soddalashtirilgan hol bo'lgan asosiy kesimda yotuvchi nurlarni ko'ramiz.



Asosiy kesimda nurlarni sinishi

$$\begin{cases} \varphi = \alpha_1 + \alpha_2(\beta_1 - \beta_2) \\ A = \beta_1 + \beta_2 \\ \sin \alpha_1 = n \sin \beta_1 \\ \sin \alpha_2 = n \sin \beta_2 \end{cases}$$

Ko'p hollarda  $A$ ,  $n$ ,  $\alpha$  larni oldindan aniqlash mumkin. Qolganlarini yuqoridagi spektrdan aniqlasa bo'ladi.

#### Prizmani xarektelovchi kattaliklar.

Chegaraviy burchak. Chegaraviy burchakni aniqlash uchun  $\alpha_1 = \alpha_2 = 90^\circ$  ( $\sin \alpha_1 = \sin \alpha_2 = 1$ ) u holda  $\beta_1 = \beta_2 = \arcsin \frac{1}{n} A_{max} =$

$2 \arcsin \frac{1}{n}$  Agarada  $A > A_{max}$  u holda prizмага tushgan ixtiyoriy nur ikkinchi sindiruvchi tomonga to'la ichki qaytish burchagidan kata burchakda tushadi va prizma asosidan chiqadi.

Agarada  $n = 1,5 \div 1,8$  o'rtasida bo'ladi, u holda  $A_{max} = 84^\circ \div 64^\circ$  bo'ladi. Ko'p holda  $A \approx 60^\circ$  olinadi.

Eng kata og'ish burchagi yana o'sha tenglamalar sistemasidan aniqlash mumkinki  $\alpha_1 = \alpha_2 = \alpha_0$  bo'lganda  $\varphi = \varphi_{min}$  Bu holda tushuvchi va chiquvchi nurlar prizмага nisbatan simmetrik bo'ladi va prizma ichida asosiga parallel bo'ladi.

Uning qiymatini aniqlash uchun

$A = 60^\circ$ ,  $n = 1,6$  deb olamiz unda

$$\alpha_0 = n \sin \frac{A}{2} = \sin \frac{A+\varphi}{2} \text{ bu erda } \varphi_{min} \approx 46^\circ$$


Prizmaning burchak kattalashtirishi

Bir ikki kattaliklarda prizmagga bitta nur tushayapti deb faraz qildi. Aslida prizmagga gatosentirik nurlar dastasi tushadi.

b va d- lar tushuvchi va chiquvchi dasta kesimlari.

$$\text{Burchak kuchaytirishi deb } \omega = \frac{\psi}{\theta} = \frac{b}{a}$$

Prizmaning burchak kattalashtirishi son jihatdan to'liq frontini prizmadan o'tganda siqilishiga teng.



Parallel dastalar ham siqilishi va kengayishi mumkin.

Qurilmaning burchak dispersiyasi  $D_\varphi =$  buni aniqlash uchun yana o'sha asosiy tenglamalar sepsmasini differensiyallash kerak bo'ladi va  $\frac{d\alpha_1}{d\lambda} = 0$  tushish burchagini o'zgarmas deb hisoblasak u holda prizmani eng kata og'ish burchagida o'rnatilgan deb dispersiya uchun olamiz.

$$\frac{d\varphi}{d\lambda} = 2 \frac{\sin \beta}{\cos \alpha} \frac{dn}{d\lambda} = \frac{2 \sin \frac{A}{2}}{\sqrt{1 - n^2 \sin^2 \frac{A}{2}}} \frac{dn}{d\lambda}$$

Ba'zi belgilashlar kiritaylik shu tasvirdan

$$\sin \beta = \frac{1}{2} \frac{T}{a} \cos \beta = \frac{b}{a}$$

$$\text{Demak } \frac{d\varphi}{d\lambda} = \frac{T}{a} \frac{dn}{d\lambda} \quad (1) \text{ A-burchakni } 60^\circ \text{ eb olsak } \frac{d\varphi}{d\lambda} = \frac{2}{\sqrt{4-n^2}} \frac{dn}{d\lambda}$$

Ko'p hollarda prizmalar eng kam og'ish burchagiga qoyiladi va ularni sindirish burchagi  $A=60^\circ$  bo'ladi. Bu ikkala formula ham ba'zi soddalashtirish evaziga olingan bo'lsa ham yaxshi natijalar beradi.

Agarda bizda prizmalar sestemasi berilgan bo'lsa u holda

$$\frac{d\varphi_{um}}{d\lambda} = \frac{d\varphi_1}{d\lambda} + \frac{d\varphi_2}{d\lambda}$$

Agarda prizmalar eng kam og'ish holatida bo'lsa, agarda bus hart bajarilmasa

$$\frac{d\varphi_{um}}{d\lambda} = \omega_2 \frac{d\varphi_1}{d\lambda} + \frac{d\varphi_2}{d\lambda}$$

Agarda bizda kata prizma bo'lsa u holda

$$\frac{d\varphi_{um}}{d\lambda} = \frac{d\varphi_{k-1}}{d\lambda} \omega_k + \frac{d\varphi_k}{d\lambda}$$

Agrad sindirish burchaklar teskari tomonlarga qarasa u holda yig'indida ishora minus olinadi. Ajrata olish qobilyati  $R = \frac{\lambda}{\delta\lambda} = bD_\varphi$

Lekin haqiqiy ajrata olish qobilyati bu qiymatdan ancha kam bo'lar ekan.

Sababi bu qiymat geometric optika yaqinlashishida olingan va unda prizma qirralaridagi difraksiya hisobga olinmagan. Difraksiyani hisobga olish eng kam og'ish holati bajariladi va quyidagicha aniqlanadi.

$$R = (t_1 - t_2) \frac{dn}{d\lambda}$$

Agarda dasta prizmani to'la qoplasa u holda  $R = T \frac{dn}{d\lambda} bD_\varphi > T \frac{dn}{d\lambda}$

Shuning uchun  $R = bD_\varphi$  nazariy ajrata olish qobilyati deyiladi. Shisha va kvars prizmalarning eng asosiy kamchiliklaridan biri dispersiyaning qiymati. To'lqin uzunligi oshishi bilan kamayadi.

Misol: TF-5 tipidagi shisha uchun spektrning havo rang qismi uchun  $\frac{dn}{d\lambda} = 3200 \text{ sm}^{-1}$ , qizil qismi uchun  $\frac{dn}{d\lambda} = 1170 \text{ sm}^{-1}$ . U holda bazasi 5 sm bo'lgan prizma uchun  $R=5000$ , havo rang uchun  $R=15000$ .

Demak spektrni qurilayotgan diapozonoga qarab tuzatish kiritish kerak.

Olingan natijalardan foddalanib bizni qiziqtirgan chiziqlarni ajrata olish uchun qanday prizma kerakligini aniqlash mumkin.

Misol: natriyning  $6000\text{A}^\circ$  -dagi duplet chiziqlari orasida masofa  $6 \text{ A}^\circ$  demak ajratish uchun  $R = \frac{6000}{6} = 1000$  qizil diapazonligini hisobga olib.

$\frac{dn}{d\lambda} = 1170 \text{ sm}^{-1} R = T \frac{dn}{d\lambda} T \approx 1 \text{ sm}$ . Agarda vodorot izotopi dupletini olsak u ham  $6000 \text{ A}^\circ$  yaqin orasi  $2 \text{ A}^\circ$   $R=3000$  va  $T=3 \text{ sm}$

Ajrata olish qobilyatini oshirish uchun  $k$  - ta prizmadan tuzilgan sestema ishlatish mumkin. Bu holda  $R_{um} = \sum_{i=1}^k R_k$

Ajrata olish qobilyatiga turli faktorlar manfiy ta'sir qilish mumkin: yutilish, prizma ishlab chiqarishdagi defektlar qaytarish bu  $\delta_0$  shuning uchun ham  $R_{real} \ll R_{reley}$  Prizmalarning turli xarakteristikalarini yaxshilash uchun prizmalarning turli formadagi turlicha ketma-ketligi birlashmalari ishlatiladi. Bunday prizmalar deyiladi. Misol: Rezerford prizmasi, Amichi prizmasi, Abbe prizmasi va boshqalar

### **Nazorat savollari**

Yorug'lik spektri xaqida tushuncha. Spektrlar turlari, ularni qisqacha xarakteristikalarini, ularni xosil bo'lish sabablari.

Eng sodda spektral qurilma blok sxemasi. Spektral qurilmalar asosiy xarakteristikalarini.

Prizmalı spektral qurilmalar.

Prizmalı spektral qurilmalarning ishlash sohasi,



Prizmalı spektral qurilmalarning apparat funksiyasi, dispersiyasi, ajrata olish qobiliyati, chiziqli kattalashtirishi.

#### **4-MAВ3Y: Difraktsion panjarali spektral qurilmalar, ularning asosiy xarakteristikalari ularni farqlari va amaliyotda ishlatilishi.**

##### **Reja**

1. Difraktsion panjara.
2. Shaffof fazaviy difraktsion panjaralarning turlari.
3. Spektral qurilmalarning dispersiyasi.
4. Spektral qurilmalarning ajrata olish kuchi.
5. Rentgen nurlarining difraktsiyasi. Vulf–Bregg formulasi.
6. Ob'ektivning ajrata olish kuchi.

##### **Tayanch so'zlar**


Difraktsion panjara, difraktsion panjara davri, difraktsion panjara kengligi, difraktsiya maksimumi, burchakiy dispersiya, chizig'iy dispersiya, spektral qurilmalarning ajrata olish kuchi, Vulf–Bregg formulasi, Laue shartlari, ob'ektivning ajrata olish kuchi.

Spektral qurilmalar deb optik diapazondagi elektromagnit nurlanishni monoxromatik tarkibiy qismlarga parchalanishi amalga oshiriladigan optik qurilmalarga aytiladi. Bunday qurilmalar moddadan chiqarilgan, yutilgan, qaytarilgan yorug'likni spektral tarkibini sifatli va miqdoriy o'rganish uchun ishlatiladi. Ushbu tadqiqotlar moddaning xossalari, kimyoviy tarkibi va nurlanish bilan bog'liq bo'lgan fizik jarayonlarning tabiati yoki nurning moddalar bilan o'zaro ta'siri to'g'risida fikr yuritishga imkon beradi. Spektral asboblar berilgan spektral tarkibni nurlanishini olish uchun ham ishlatiladi.

SOL Instruments tomonidan taklif qilingan spektral qurilmalar nurlanishning spektral parchalanish usuli bo'yicha "klassik" hisoblanadi. Ushbu qurilmalarda difraktsion panjara dispers element sifatida ishlatiladi, bu nurlanishning spektrga fazoviy parchalanishini amalga oshiradi (to'lqin uzunliklari bo'yicha).

## 1. Difraktsion panjara


Bir-biridan bir xil masofada joylashgan juda ko'p sonli bir xil tirqishlar to'plami *difraktsion panjara* deb ataladi (15.1-rasm). Qo'shni tirqishlarning o'rtalari orasidagi  $d$  masofa *panjara doimiysi* yoki *davri* deb ataladi. Optikada ishlatiluvchi difraktsion panjarada tirqishlar jula kichik bo'ladilar, ya'ni  $b$  difraktsion panjara doimiysidan ko'p marta kichikdir ( $b \ll d$ ).



$N$  tor tirqishlardan tashkil topgan difraktsion panjara o'lchami *difraktsion panjara kengligi*  $L$  deyiladi va quyidagicha  $L = Nd$  formula orqali topiladi (15.1-rasm).

Panjaraga parallel qilib yig'uvchi linza qoyamiz va uning fokal tekisligiga ekran joylashtiramiz. Panjaraga to'lqin uzunligi  $\lambda$  bo'lgan yassi yorug'lik to'lqini

tushganda yetarlicha uzoq masofada difraktsion manzara hosil bo'ladi. Qavariq linza yordamida bu difraktsion manzara yassi tekislikda ma'lum bir masofada kuzatiladi (15.2-rasm).



15.2-rasm

Agar biz tushuvchi elektromagnit to'lqinning fazoviy kogerentlik radiusi  $\rho_k$  ni panjara kegligi  $L$  dan bir necha marta ortiq, ya'ni  $\rho_k \gg L$ , deb hisoblasak, u hoda barcha tirqishlardan tarqaluvchi tebranishlarni bir-biriga nisbatan kogerent deb hisoblashimiz mumkinligi kelib chiqadi. Bu holda to'lqinlar difraktsiyasini sezuvchi kompleks amplituda tirqishlarning har biridan tarqaluvchi to'lqinlarning

kompleks amplitudalari yig'indisiga teng bo'ladi.

Bir xil tirqishlarning burchak tarqaluvchanligini e'tiborga oluvchi

$$F(\varphi) = E_0 \int_{-b/2}^{b/2} \exp(ikx \sin \varphi) dx = E_0 b \frac{\sin\left(\frac{k b \sin \varphi}{2}\right)}{\left(\frac{k b \sin \varphi}{2}\right)} \quad (15.1)$$

formula bilan hisoblanuvchi panjaraning har bir tirqishidan tarqaluvchi to'lqinlarning kompleks amplitudalari bir-biridan faqat fazaviy ko'paytuvchisi bilan farq qiladilar. Bunda to'lqinlar qo'shni tirqishlardan tarqaluvchi to'lqinlarning fazasi bir xil  $\Delta$  kattalikka farqlanadilar (15.2-rasm):

$$\Delta = kd \sin \varphi \quad (15.2)$$

bu yerda  $\varphi$  – kuzatish nuqtasi  $P$  yo'nalishidagi burchak,  $k = 2\pi/\lambda$  – to'lqin son. Aytilganlarga muvofiq, kuzatish nuqtasi  $P$  dagi kompleks amplituda  $E(P)$ , agarda har bir tirqishdan tarqaluvchi to'lqinlarning fazalarini birinchi tirqishdan tarqaluvchi to'lqin fazasiga nisbatan hisoblasak, quyidagicha topiladi:

$$E(P) = E_0 b \frac{\sin\left(\frac{k b \sin \varphi}{2}\right)}{\left(\frac{k b \sin \varphi}{2}\right)} [1 + e^{i\Delta} + e^{2i\Delta} + e^{3i\Delta} + \dots + e^{i(N-1)\Delta}]. \quad (15.3)$$


Bu ifodada qavs ichidagi yig'indi maxraji  $q = \exp(i\Delta)$  bo'lgan geometrik progressiya ekanligini e'tiborga olsak, quyidagini olamiz:

$$E(P) = E_0 b \exp\left(\frac{(N-1)\Delta}{2}\right) \frac{\sin\left(\frac{k b \sin \varphi}{2}\right) \sin\left(\frac{N\Delta}{2}\right)}{\left(\frac{k b \sin \varphi}{2}\right) \sin\left(\frac{\Delta}{2}\right)}. \quad (15.3,a)$$

bu yerdan difraksion panjaradan uzoq masofada to'lqinning intensivligi  $I(P)$  uchun ifoda quyidagicha bo'lar ekan:

$$I(P) = I_c \left[ \frac{\sin\left(\frac{k b \sin \varphi}{2}\right)}{\left(\frac{k b \sin \varphi}{2}\right)} \right]^2 \left[ \frac{\sin\left(\frac{N\Delta}{2}\right)}{\sin\left(\frac{\Delta}{2}\right)} \right]^2, \quad (15.3,b)$$

bu yerda  $I_c = I_0 b^2 / R^2$  – difraksion panjaradan  $R$  masofadan joylashgan



difraksion manzara markazidagi intensivlik,  $I_0 = E_0^2 / \zeta$  – difraksion panjara sirtini yorituvchi to'lqin intensivligi.

(15.3,b) ga muvofiq intensivlikning taqsimlanish xarakteri difraksion manzara maksimumlarining navbatlashib kelishi kabi ko'rinishda bo'ladi, ularning orasida ikkilamchi zaif difraksion maksimum va minimumlar joylashadi (15.3-rasm).

Bosh difraktsion maksimumlarning intensivliklari  $\varphi_m$  yo'nalishlarda joylashadilar, ularda uzatish nuqtasida tirqishlardan tarqaluvchi to'lqinlar  $\lambda$  ga karrali bo'lgan yo'l ayirmasiga ega bo'ladi, ya'ni:

$$\sin(\varphi_m) = m\lambda / d, \quad (15.4)$$

bu yerda  $m = \pm 1, \pm 2, \pm 3, \dots$  – butun sonlar.

Yo'nalishga mos keluvchi bosh difraktsiya maksimumi  $m$ -tartibli difraktsiya maksimumi deyiladi. Difraktsiyaning markaziy maksimumi nolinci ( $m=0$ ) tartibli maksimumi deyiladi va eng katta qiymatga ega bo'ladi:


$$I_{\max}(P) = \tilde{C}I_0 b^2 N^2. \quad (15.5)$$

Difraktsiya maksimumining tartibi ortgani sari tirqish yo'naluvchvnligi diagrammasining ta'siri sababli uning intensivligi kamayadi. Tor tirqishlarda ( $b \ll d$ ) bu kamayishni e'tiborga olmaslik mumkin.

Agar difraktsion panjaraga oq yorug'lik tushayotgan bo'lsa, u holda markaziy difraktsiya maksimumidan tashqari barcha difraktsiya maksimumlari ( $|m| \geq 1$ ) tushayotgan to'lqinning spektral tashkil etuvchilarining ranglariga boyalgan bo'ladi. Bu difraktsiya maksimumlari (15.4) ning to'lqin uzunligi  $\lambda$  ga bog'liqligidan kelib chiqadi. Kichik to'lqin uzunlikli spektral tashkil etuvchilar difraktsiya manzarasining markaziga, to'lqin uzunlikli spektral tashkil etuvchilar esa difraktsiya manzarasining chetlariga yaqin joylashadilar.

## 2. Shaffof fazaviy difraktsion panjaralarning turlari.

Maykelson esheloni. Shaffof fazaviy difraktsion panjaralarning ko'rinshlaridan biri Maykelson tomonidan 1898 yilda taklif qilingan. turlari. Maykelson esheloni bir xil



kenglikdagi chiqishlarga ega bo'lgan qator (30-40 tagacha) o'ta parallel qilib qoyilgan shisha plastinkalardan tashkil topgan (15.4-rasm). Plastinkalar yuqori darajada bir jinsli va bir xil qalinlik (1 – 2 cm gacha) ka ega. O'zaro bir-birlariga qisilgan bir jinsli yassi parallel plastinkalar xuddi tutash bir jinsli shishadan zinapoyani vujudga keltiradi. S manbadan chiqqan yorug'lik L linzadan o'tgach Maykelson esheloniga parallel nurlar singari tushadi. Eshelon orqali o'tgan nurlar zinapoya poyalari chetlarida difraktsiyalanadilar. Am'lum bir burchaklar ostida difraktsiyalangan nurlar o'zaro interferentsiyalashib, mos keluvchi maksimumlarni va minimumlarni beradilar. Alohida nurlar orasida yo'llar ayirmasi, nafaqat shishaning sindirsh ko'rsatgichi  $n$  ga, balki poya balandligi  $l$ , uning kengligi  $h$  va difraktsiya burchagi  $\varphi$  ga ham

bog'liqdir.  $\varphi$  burchak ostida difraktsiyalanuvchi qo'shni nurlar orasida yo'llar ayirmasi quyidagicha bo'ladi:

$$\Delta = l \sin \varphi + h(n - \cos \varphi).$$

Difraktsiya burchagi juda kichikligi sababli,  $\sin \varphi \approx \varphi$  va  $\cos \varphi \approx 1$ . Bunda bosh maksimumlar sharti quyidagicha bo'ladi:

$$l\varphi + h(n - 1) = m\lambda.$$

Difraktsiya burchagi juda kichikligi sababli ushbu ifodaning cham qismidagi birinchi hadni hisobga olmaslik mumkin. U holda biz quyidagini olamiz:

$$h(n - 1) = m\lambda.$$

Bu yerdan interferentsiya tartibi uchun quyidagini olamiz:

$$m = \frac{h(n - 1)}{\lambda}.$$

Optik asboblarning spektral xarakteristikalarini bilan tanishganimizdan, difraktsion panjaraning ajrata olish kuchi

$$R = mN$$

ekanligini ko'ramiz, bu yerda  $N$  - interferentsiyalanuvchi nurlar soni. Bunga  $m$  ning yuqorida keltirilgan ifodasini qo'ychak, quyidagini olamiz:


$$R = \frac{Nh(n - 1)}{\lambda}.$$

Yana shuni qayd etish zarurki, Maykelson eshelonidan tashqari yana Maykelson-Vilyams esheloni ham mavjud.

## 2. Spektral qurilmalarning dispersiyasi

Har qanday spektral asbobning asosiy xarakteristikasi uning dispersiyasi va ajrata olish qobiliyatidir. Dispersiya bir-biridan to'liq uzunligi boyicha  $1 \text{ \AA}$  ga farqlanuvchi ikki spektral chiziq orasidagi burchakiy yoki chizig'iy masofani belgilaydi. Ajrata olish qobiliyati spektrda bir-biridan ajratib qabul qilish mumkin bo'lgan ikki chiziqqa to'g'ri keladigan to'liq uzunliklarining minimal  $\delta\lambda$  farqini belgilaydi. *Burchakiy dispersiya* deb

$$D = \frac{\delta\varphi}{\delta\lambda} \quad (15.6)$$



kattalikka aytiladi; bunda  $\delta\varphi$  – bir-biridan to’lqin uzunligi boyicha  $\delta\lambda$  ga farqlanadigan spektral chiziqlar orasidagi burchakiy masofadir.

Difraktsion panjaraning burchakiy dispersiyasini topish uchun bosh maksimumning (15.4) shartining chap tomonini  $\delta\varphi$  boyicha, o’ng tomoninn esa  $\delta\lambda$  boyicha differentsiallaymiz. Minus ishorani tashlab yuborib, quyidagini hosil

qilamiz:

$$d \cos\varphi \delta\varphi = m \delta\lambda;$$

bundan

$$D = \frac{\delta\varphi}{\delta\lambda} = \frac{m}{d \cos\varphi}. \quad (15.7)$$

Kichik burch klar uchun  $\cos\varphi \approx 1$  va

$$D = \frac{m}{d}. \quad (15.8)$$

Bu olingan ifodadan ko’rinadiki, burchakiy dispersiya panjaraning davriga teskari proporsionaldir. Spekrtning tartibi qancha yuqori bo’lsa, dispersiya shuncha katta bo’ladi.

*Chizig’iy dispersiya* deb

$$D = \frac{\delta l}{\delta\lambda}$$

kattalikka aytiladi; bunda  $\delta l$  – bir-biridan to’lqin uzunligi boyicha  $\delta\lambda$  ga farqlanuvchi spektr chiziqlar orasidagi chizig’iy masofa bo’lib, bu masofa ekrandan yoki fotoplastinkadan o’lchab topiladi.

15.5-rasmdan ko’rinadiki, kichik  $\varphi$  burchaklar uchun  $\delta l \approx f' \delta\varphi$  bo’ladi; bu yerda  $f'$  –difraktsiyalanuvchi nurlarni ekranda yig’uvchi linzaning fokus masofasidir. Binobarin, chizig’iy dispersiya burchakiy dispersiya  $D$  orqali ifodalanishi mumkin:


$$D_{chiz} = f' D.$$

Difraktsion panjara uchun (kichik  $\varphi$  burchak uchun)

$$D_{chiz} = f' \frac{m}{d}. \quad (15.9)$$

### 3. Spektral qurilmalarning ajrata olish kuchi

Ikki yaqin spektral chiziqlarni *ajratish* (ya'ni bir-biridan ajratib qabul qilish) imkoni faqat ular orasidagi masofagagina bog'liq bo'lmasdan (bu masofa asbobning dispersiyasi bilan belgilanadi), spektral maksimumning kengligiga ham bog'liq.



15.6-rasmda ikki yaqin maksimumlarning (punktir egri chiziqlar) ustma-ust tushishida kuzatiladigan natijaviy intensivlik (tutash egri chiziqlar) ko'rsatilgan. Birinchi holda ikkala maksimum bitta maksimumdek qabul qilinadi (15.6,a-rasm). Ikkinchi holda esa, maksimumlar orasida minimum mavjud bo'ladi (15.6,b-rasm). Reley tomonidan taklif qilingan kriteriyga

muvofiq, agar bir maksimumning o'rtasi ikkinchi maksimumning chetiga to'g'ri kelsa (15.6,b-rasm), spektral chiziqlar to'la ajratilgan deb hisoblanadi. Bu holda chiziqlar orasidagi minimum maksimumlarning 80% ini tashkil kiladi. Maksimumlarning bunday o'zaro joylashishi  $\delta\lambda$  ning ma'lum (berilgan asbob uchun) qiymatida hosil bo'ladi. Spektral asbobning ajrata olish kuchi deb quyidagi o'lchamsiz kattalikka aytiladi:

$$R = \frac{\lambda}{d\lambda}. \quad (15.10)$$

Difraksion panjaraning ajrata olish kuchini topamiz.  $\lambda + \delta\lambda$  to'lqin uzunligi uchun  $m$ -inchi maksimum o'rtasining o'rni quyidagi shart bilan aniqlanadi:

$$d \cdot \sin \varphi_{\max} = m(\lambda + \delta\lambda).$$

$\lambda$  to'lqin uzunligi uchun  $m$ -inchi maksimumning chetlari quyida munosabatni qanoatlantiruvchi burchaklar ostida joylashgan bo'ladi:

$$d \cdot \sin \varphi_{\min} = \left(m \pm \frac{1}{N}\right)\lambda.$$

$\lambda + \delta\lambda$  to'lqin uzunligidagi maksimumning o'rtasi  $\lambda$  to'lqin uzunligidagi maksimumning cheti bilan ustma-ust tushishi uchun quyidagi shart bajarilishi kerak:

$$m(\lambda + \delta\lambda) = \left(m + \frac{1}{N}\right)\lambda.$$


bundan

$$m\delta\lambda = \frac{\lambda}{N}.$$

Ushbu munosabatni  $\lambda/\delta\lambda$  ga nisbatan yechib, quyidagini topamiz:

$$R = mN. \quad (15.11)$$

Shunday qilib, difraksion panjaraning ajrata olish kuchi spektrning  $m$  tartibiga va tirqishlarning  $N$  soniga proporsionaldir.



Bu formulani Stefan tajriba natijalarini tahlil qilish natijasida topdi, lekin xato qilib ixtiyoriy jism uchun o'rinli deb hisobladi. Boltsman esa bu qonunni termodinamik usul asosida topdi va absolyut qora jism uchun o'rinli ekanligini ko'rsatdi. Ba'zi ishlarda bu qonun ixtiyoriy jism uchun o'rinli ko'rinishini topishga harakatlar bo'ldi:  $\epsilon_T = VT^n$ , lekin  $V$  ham  $n$  ham turli xil temperaturalar uchun turlicha bo'lib chiqaveradi. 4.7-rasmda absolyut qora jism nur chiqarish qobiliyatining to'lqin uzunligiga bog'liqligi (spektral taqsimoti) turli xil temperatura  $T$  lar uchun keltirilgan. Bu rasmdan: 1) absolyut qora jism nurlanish spektri uzluksizligi; 2) har bir temperaturaga oid bo'lgan nurlanishning energetika taqsimotini ifodalovchi egri chiziqda aniq maksimum bo'lib, u temperatura oshgan sari qisqa to'lqin sohasiga siljishi ko'rinib turibdi.

**Vinning siljish qonuni.** Bu qonunga binoan, issiqlik nurlanishining spektral zichligi maksimumi mos kelgan  $\lambda_{\max}$  to'lqin uzunligi jismning absolyut temperaturasiga teskari proporsional ravishda kamayadi:

$$\lambda_{\max} = \frac{b}{T}, \quad (4.20)$$


bu yerda  $b = \frac{2\pi\hbar c}{4,965 k_B} = 0,28979 \cdot 10^{-2} \text{ m}\cdot\text{grad}$  - Vin doimiysi. (4.20) dan

ko'rinadiki,  $T$  qancha yuqori bo'lsa,  $\lambda_{\max}$  shuncha kichikroq qiymatga ega bo'ladi, ya'ni temperatura oshgan sari absolyut qora jism nur chiqarish, qobilyatining maksimumi qisqa to'lqin uzunliklar sohasiga siljiydi.

4.7-rasmdagi grafikni tushuntirish uchun ko'p urinishlar bo'lgan. Bulardan Vin termodinamik mulohazalar asosida

$$\varepsilon_{\lambda,T} = \frac{\gamma}{\lambda^5} \exp\left[-\frac{\beta}{\lambda T}\right] \quad (4.21)$$

ifodani hosil qiladi. Bunda  $\gamma$  va  $\beta$  - tajribalardan foydalanib tanlanadigan doimiylardir. Vin taklif etgan (4.20) ifoda qisqa to'lqin uzunliklar sohasida yaxshi mos keladi. Lekin katta to'lqin uzunliklar sohasida Vin formulasi  $\varepsilon_{\lambda,T}$  uchun tajribadagidan kichikroq qiymatlarni beradi.



20.8-rasm. Bu yerda quyuq chiziq – Vin qonuni, nuqtalar – tajriba natijalari, punktir chiziq – Reley-Jins qonuni.

«**Ultrabinafsha halokat**». Reley-Jinsning absolyut qora jism issiqlik nur chiqarish qobiliyati uchun formulasini quyidagicha yozsa bo'ladi:

$$\varepsilon_{\lambda,T} = \frac{2\pi c k_B T}{\lambda^4}. \quad (4.22)$$

Bu ifoda katta to'lqin uzunliklar sohasida tajriba bilan mos keladi. Vinning siljish qonuni, tajribada olingan natijalar va Reley-Jins qonunidan olingan natijalar grafik ravishda 4.8-rasmda tasvirlangan. 4.8-rasmdan ko'rinib

turibdiki, qisqa to'lqin sohasida  $\varepsilon_{\lambda,T}$  cheksiz katta («ultrabinafsha halokat», P.Erenfest) qiymatlarga ega bo'ladi. Reley-Jins formulasidan Stefan-Boltsman qonunini keltirib chiqarishga urinishlar ham natija bermadi.

$$\varepsilon_T = \int_0^{\infty} \varepsilon_{\lambda,T} d\lambda = 2\pi c k_B T \int_0^{\infty} \frac{d\lambda}{\lambda^4} = \infty. \quad (4.23)$$

Reley-Jins ifodasi klassik fizika qonunlariga qat'iy amal qilgan holda chiqarilgan bo'lib, u muhim tajribalar natijalarini tushuntirishga qodir emasligini ko'rsatadi.

Reley-Djins formulasining eng asosiy kamchiligi, bu formuladagi nurlanishning spektral zichligini cheksiz o'sishi yuqori chastotalar qismiga to'g'ri keladi. Bu esa eksperiment bilan keskin qarama-qarshidir, unga asosan  $\omega \rightarrow \infty$  dan spektral zichlik nolga intiladi. Bundan tashqari, Reley-Djins formulasidan issiqlik nurlanishining to'liq (chastota bo'yicha integral) energiyasi cheksizlikka teng, bunga esa aql bovar

qilmaydi. Bu ham spektrning qisqa to'liqlik (ultrabinafsha) qism bilan bog'liq bo'lganligi sababli, «*ultrabinafsha halokat*» yoki *Reley-Djins parodoksi* deyiladi.

#### 4. Plank gipotezasi. Plank formulasi

Klassik fizika qonuniga asosan, jism harorati baland bo'lsa (ya'ni katta chastotali nurlanishda) jismning nur chiqarish qobiliyati qiymati cheksizlikka intilish effektini, ya'ni «ultrabinafsha xalokati» effektini qarab chiqdik. Lekin jismning nur chiqarish qobiliyati cheksizlikka intilishi noto'g'ri tushunchadir, bu klassik fizika, ya'ni makrojism fizikasi asosida kelib chiqqan tushunchadir. Klassik fizikaga asosan har qanday termodinamik sistema energiyasi uzluksiz o'zgarishi va natijada har qanday energiya olish mumkin.

Shunda Maks Plank (1900)- bu yerda klassik fizika asosida kamchiliklar bor degan xulosaga keladi va o'z gipotezasini ilgari surdi: ya'ni jismlarning nurlanishi uzluksiz emas, balki alohida kvantlar sifatida chiqariladi. har bir nurlanish kvantining energiyasi:

$$\varepsilon = h\nu = h\frac{c}{\lambda} \quad (4.24)$$

ga teng. Bunda  $\nu = \frac{c}{\lambda}$  nurlanishning chastotasi  $h$  – Plank doimiysi ( $h = 6,62 \cdot 10^{-34}$  J·s). (4.24) ga asosan  $\lambda \rightarrow 0$  da kvant energiyasi shu darajada ortib ketadiki, natijada jism issiqlik harakatining energiyasi, hatto, bittagina kvant chiqarishga ham yetmaydi va  $\varepsilon_{\lambda,T}$  ning qiymati keskin kamayib ketadi.

Issiqlik nurlanishi uchun Plank:

$$\varepsilon_{\lambda,T} = \frac{2\pi hc^2}{\lambda^5} \cdot \frac{1}{e^{\frac{hc}{\lambda k_B T}} - 1} \quad (4.25)$$

formulani chiqardi. Bu formula Plank formulasi deb ataladi. Bu formula tajribada olingan natijalarni to'la tushuntiradi va undan absolyut qora jism nurlanishi uchun olingan hamma qonunlar kelib chiqadi. Bundan Stefan-Boltsman qonunini olish uchun (4.25) ni to'liq uzunlikning 0 dan  $\infty$  gacha intervalida integrallaymiz:

$$\varepsilon_T = \int_0^{\infty} \varepsilon_{\lambda,T} d\lambda = 2\pi hc^2 \int_0^{\infty} \frac{d\lambda}{\lambda^5 (e^{\frac{hc}{\lambda k_B T}} - 1)} \quad (4.26)$$

Hisoblashlarni bajarish uchun yangi o'zgartiruvchilarni kiritaylik:

$$X = \frac{\lambda k_B T}{hc}; \quad \lambda = \frac{hc}{k_B T} X; \quad d\lambda = \frac{hc}{k_B T} dX;$$

Bularni (4.26) ga qoysak:

$$\varepsilon_T = 2\pi^5 hc^2 \left( \frac{k_B T}{hc} \right)^4 \int_0^\infty \frac{dX}{X^5 (e^{\frac{1}{X}} - 1)}$$

ifodani hosil qilamiz. Bundagi integral  $\pi^4/15$  ga teng. Shuning uchun

$$\varepsilon_T = \frac{2\pi^5 k_B^4}{15c^2 h^3} T^4 = \sigma T^4$$

Bu ifodada

$$\sigma = \frac{2\pi^5 k_B^4}{15c^2 h^3} \quad (4.27)$$

Stefan-Boltsman doimiysidir.

Plank formulasidan Vinning siljish qonunini topish uchun maksimumga mos keluvchi  $\lambda_{\max}$  ni topish kerak, buning uchun

$$\frac{d\varepsilon_{\lambda,T}}{d\lambda} = 0.$$

Hosila olib nolga tenglashtirib, olingan tenglamani yechsak,

$$\lambda_{\max} = \frac{hc}{4,97k_B T}$$

ko'rinishda bo'ladi. Bu ifodani

$$\lambda_{\max} T = \frac{hc}{4,97k_B} \quad (4.28)$$

shaklga yozib, uning o'ng tomondagi hadni

$$b = \frac{hc}{4,97k_B}$$

tenglab hisoblash mumkin.

### Nazorat savollari

Nurlanish manbalariga qanday talablar qoyiladi?

Optik nurlanishlarini qayd qiluvchi qurilmalarning asosiy xarakteristikallari qaysilar?

Optik nurlanishlarini qayd qiluvchi qurilmalarning farqi va afzalliklari qanday.

Issiqlik nurlanishi nima.

Issiqlik nurlanishi energiyasining to'lqin uzunligi va chastotaga bog'lanishi qanday bo'ladi.

Spektr deb nimaga aytiladi.

Spektral analiz nima.

Lazerlarni spektroskopiya uchun ahamiyatli xossalari qanday?

### Foydalanilgan adabiyotlar

David L. Andrews. Fundamentals of Photonics and Physics. Published by John Wiley & Sons. Inc., Hoboken, New Jersey.

B. Salex, M. Teyx. Optika i fotonika. Printsipy i primeneniye. Per s angl. Dolgoprudnyy, Izdatelskiy dom «Intelekt», 2012.

W. Lucke. Introduction to Photonics. Draft. Technical University of Clausthal. 2005  
[www.manchester.ac.uk](http://www.manchester.ac.uk).

## Amaliy mashg'ulot mavzulari

### 1-amaliy mashg'ulot

Prizmalı spektral qurilmalarda olingan natijalarni taxlil qilish.

Masala yechish namunasi.

1-masala. Shishadan yasalgan to'g'ri burchakli uch yoqli prizmaning AB yog'idagi biror O nuqtaga perpendikulyar holda qizil va binafsha yorug'lik nurlari tushmoqda. Nurlar prizmadan chiqqanda qanday burchakda tarqaladi (78- rasm)? Nurlar orasidagi masofa 10 sm bo'lishi uchun ekranni qayerga o'rnatish kerak? Prizmaning sindirish burchagi  $\theta=10^\circ$ . Qizil rangli yorug'lik uchun  $n_q=1,64$ , binafsha rangli yorug'lik uchun esa  $n_b=1,69$ .

Berilgan:  $\alpha_0=0^\circ$ ;  $d=10 \text{ sm}=0,1 \text{ m}$ ;  $n_q=1,64$ ;  $n_b=1,69$ ,  $\theta=10^\circ$ .

Topish kerak:  $\gamma$  —?  $l$  —?

Yechilishi. 1- usul. Tushish burchagi  $\alpha_0=0$  bo'lgani uchun O nuqtada nurlar sinmaydi. BC yoqqa nurlarning tushish burchagi  $\alpha=\theta=10^\circ$  (o'zaro perpendikulyar tomonlar orasidagi burchakka o'xshash). Sindirish ko'rsatkichi har xil rangli yorug'lik uchun turlicha qiymatga ega bo'lgani sababli qizil rangli nur prizmadan  $\beta_q$  burchak ostida, binafsha rangli nur esa  $\beta_b$  burchak ostida chiqadi, binobarin,  $\gamma=\beta_b-\beta_q$  bo'ladi.

$$\sin \beta_q = n_q \sin \alpha = \sin 10^\circ \cdot 1,64 = 0,1736 \cdot 1,64 = 0,2847,$$

$$n_q = \frac{\sin \beta_q}{\sin \alpha}$$

$$\beta_q = 16^\circ 32'.$$

$$l = \frac{d}{\sin \gamma} = \frac{0,1 \text{ m}}{\sin 32'} = \frac{0,1 \text{ m}}{0,0093} \approx 11 \text{ m}.$$

$$\sin \beta_b = \sin \alpha \cdot n_b = 0,1736 \cdot 1,69 = 0,2934.$$

$$\beta_b = 17^\circ 4'.$$

$\Theta = 60^\circ$  sindirish ko'rsatgichiga ega bo'lgan shisha prizma yorug'lik nuri tushadi. Agar nur prizma ichida simmetrik yurganda og'ish burchagi  $\sigma = 40^\circ$  bo'lsa, shishaning sindirish ko'rsatgichi  $n$  aniqlansin.

Shisha prizmaning sindirish burchagi  $\Theta = 30^\circ$ . Yorug'lik nuri prizma qirrasiga uning sirtiga tik ravishda tushadi va dastlabgi yo'nalishdan  $\sigma = 20^\circ$  burchakka og'gan holda, boshqa qirrasidan havoga chiqadi. Shishaning sindirish ko'rsatgichi  $n$  aniqlansin.

Yorug'lik nuri shisha prizma qirrasiga uning sirtiga tik ravishda tushadi va dastlabgi yo'nalishdan  $\sigma = 25^\circ$  burchakka og'gan holda qarama qarshi qirrasidan chiqadi. Prizmaning sindirish burchagi  $\Theta$  aniqlansin.

Sindirish burchagi  $\Theta = 60^\circ$  bo'lgan shisha prizmaning qirrasiga  $\varepsilon_1 = 45^\circ$  burchak ostida yorug'lik nuri tushadi. Nurning prizmadan chiqishdagi sinish burchagi  $\varepsilon_2$  va nurning dastlabgi yo'nalishdan og'ish burchagi  $\sigma$  topilsin.

Prizmaning sindirish burchagi  $\Theta = 60^\circ$ . Nurning dastlabgi yo'nalishdan eng kam og'ish burchagi  $\sigma = 30^\circ$ . Prizma yasalgan shishaning sindirish ko'rsatgichi  $n$  aniqlansin.

O'tkir uchli pona shaklidagi prizmaning sindirish burchagi  $\Theta = 2^\circ$ . Agar shisha prizmasining sindirish ko'rsatgichi  $n = 1,6$  bo'lsa, nurning prizma orqali o'tishidagi eng kam og'ish burchagi aniqlansin.

## 2-amaliy mashg'ulot

Difraksion panjarali spektral qurilmalarda olingan natijalarni taxlili.

To'lqin uzunligi  $0,45 \text{ mkm}$  bo'lgan binafsha yorug'likning ikkinchi tartibli spektri uchun difraksiya burchagini aniqlang. Difraksion panjaraning  $1 \text{ mm}$  uzunligida  $5$  ta shtrix bor deb oling.

Berilgan:  $\lambda = 0,45 \text{ mkm} = 4,5 \cdot 10^{-7} \text{ m}$ ;  $k = 2$ ;  $N_0 = 5 \text{ mm}^{-1}$

$= 5 \cdot 10^3 \text{ m}^{-1}$ .

Topish kerak:  $\varphi$  — ?

Yechilishi. Difraksion manzarada maksimumlarning vaziyatini belgilaydigan formuladan difraksiya burchagining sinusi:

$$\sin \varphi = \frac{k\lambda}{d}.$$

Panjaraning uzunlik birligida joylashgan shtrixlarning soni  $N_0$  bilan panjara doimiysi orasida quyidagicha bog'lanish bor



$$N_0 = \frac{1}{d}$$

U holda:  $\sin \varphi = k\lambda N_0$

bo'ladi, bundan  $\sin \varphi = 2 \cdot 4,5 \cdot 10^{-7} \text{ m} \cdot 5 \cdot 10^3 \text{ m}^{-1} = 4,5 \cdot 10^{-3} = 0,0045$ .

Demak,  $\sin \varphi = 0,0045$  ekan. Trigonometrik jadvaldan foydalanib

$\varphi$  ning qiymatini topamiz:  $\varphi = 0^\circ 16'$ .

To'lqin uzunligi  $\lambda$  bo'lgan yorug'likning davri  $5\lambda$  bo'lgan difraksiya panjarasida difraksiyalanishida 2- tartibli maksimum qanday burchak ostida kuzatiladi?

Difraksion panjaraning 1 mm masofasida 500 ta shtrix bo'lsa va ikkinchi tartibli maksimum  $30^\circ$  burchak ostida kuzatilayotgan bo'lsa, yorug'likning to'lqin uzunligi qanday (pm)?

Davri 1,5 pm bo'lgan difraksion panjara  $30^\circ$  burchakka og'dirgan birinchi tartibli spektral chiziqqa mos keladigan to'lqin uzunligini toping (nm).

Difraksiya panjarasining davri 2  $\mu\text{m}$ . Natriyning to'lqin uzunligi 589 nm bo'lgan sariq chizig'ining difraksiya manzarasidagi eng katta tartib nomerini toping.

Doimiysi 1,1  $\mu\text{m}$  bo'lgan difraksion panjaraga to'lqin uzunligi 0,5  $\mu\text{m}$  bo'lgan yassi monoxromatik to'lqin normal tushmoqda. Kuzatish mumkin bo'lgan maksimumlar sonini toping.

Difraksiya panjarasiga tik tushayotgan oq yorug'lik difraksiyanganida 3- tartibli spektrdagi 780 nm to'lqin uzunlikli chiziq bilan 4- tartibli spektrdagi qanday to'lqin uzunlikli (nm) chiziq ustma-ust tushadi?

Natriy sariq chizig'ining to'lqin uzunligi 5890  $\text{A}^\circ$ . Difraksion panjaraning davri 2 pm bo'lsa, spektrning eng katta tartibi qanday?

Agar interferensiya manzarasi  $n=100$  ta yo'lga siljigan bo'lsa, Maykelson interferometrda ko'zguning ko'chishi aniqlansin. Tajriba to'lqin uzunligi  $\lambda=546$  nm bo'lgan yorug'lik bilan o'tkazilgan.

### 3-Amaliy mashg'ulot

Yuqori ajrata olish qobiliyatli spektral qurilmalar ishlatilish xususiyatlari.


Agar polyarizator va analizator orqali o'tgan tabiiy yorug'likning intensivligi 4 marta kamaygan bo'lsa, polyarizator bilan analizator bosh kesimlari orasidagi burchak nimaga teng? Yorug'likning yutilishini hisobga olmang.

Berilgan:  $I_{\text{tab}}/I = 4$ .

Topish kerak:  $\alpha$  — ?

Yechilishi. Yassi qutblangan yorug'lik analizatoridan o'tganda intensivligi Malyusqonuniga muvofiq kamayadi, ya'ni  $I = I_0 \cdot \cos^2 \alpha$ , bunda:  $I$  — analizatoridan o'tgan yorug'likning intensivligi;  $I_0$  — polarizator orqali o'tib analizatorga tushayotgan yassi qutblangan yorug'likning intensivligi  $\alpha$  — polarizator bilan analizator bosh kesimlari orasidagi burchak.

Bu ifodadan



bo'ladi. Tajribalarda aniqlanishicha, tabiiy yorug'likni o'zaro perpendikulyar tekisliklarda yassi qutblangan ikkita yorug'likning yig'indisidan iborat deb hisoblash mumkin ekan. Binobarin, tabiiy yorug'lik polarizatoridan o'tganda uning intensivligi ikki marta kamayadi. Shuning uchun:

$$\frac{I_{tab}}{I_0} = 2, \text{ bundan: } I_0 = \frac{I_{tab}}{2} \quad \cos \alpha = \sqrt{I \cdot \frac{2}{I_{tab}}} = \sqrt{\frac{1}{4} \cdot 2} = \sqrt{\frac{1}{2}} = \frac{\sqrt{2}}{2}, \text{ yoki } \alpha = 45^\circ$$

Uzunligi  $l=1,2$  mm bo'lgan yo'lga tebranish chastotasi  $\nu=5 \cdot 10^{14}$  Gs bo'lgan monoxramatik yorug'likning nechta to'lqin uzunligi joylashadi. 1) vakumda 2) shishada

Suvda  $l_2 = 3$  mm kesmada qancha to'lqin uzunligi joylashsa, vakumda shuncha to'lqin uzunligi joylashishi uchun lozim bo'lgan kesmaning uzunligi  $l_1$  aniqlansin. Yassi to'lqin uchun to'rtinchi Frenel zonasining radiusi 3 mm. Oltinchi Frenel zonasining radiusini aniqlansi.

Yorug'lik nuri yassi-parallel shisha plastinkaga  $30^\circ$  burchak bilan tushib, undan dastlabki nurga parallel holda chiqadi. Shishaning sindirish ko'rsatkichi 1,5. Agar nurlar o'rtasidagi masofa 1,94 sm bo'lsa, plastinkaning d qalinligi qancha?

Yassi-parallel sirtli qalinligi 1sm shisha plastinkaga (shishaning sindirish ko'rsatkichi 1,73)  $60^\circ$  burchak bilan nur tushib, uning bir qismi qaytadi, ikkinchi qismi esa sinib, shisha orasiga o'tadi; bu qism plastikaning ostki sirtidan qaytadi va ikkinchi marta sinib, yana havoga birinchi qaytgan nurga parallel holda chiqadi. Nurlar o'rtasidagi l masofa topilsin.

Suv to'ldirilgan stakan ustiga qalin shisha plastinka qoyilgan. Suv bilan shishaning bo'linish sirtidan to'la ichki qaytish roy berishi uchun yorug'lik nuri plastinkaga qanday burchak bilan tushishi kerak? Shishaning sindirish ko'rsatkichi 1,5.

*Javob:*  $\sin r = 1,33$  ya'ni  $\sin i > 1$  masala shartini amalga oshirib bo'lmaydi.

10 sm balandlikka qadar suv bilan to'ldirilgan idishning tubiga nuqtaviy yorug'lik manbai joylashtirilgan. Suv ustida tiniq bo'lmagan doiraviy plastinka markazi yoru'g'lik manbai ustida turadigan holda suzib yuribdi. Birona ham nur suv sirtidan chiqmasligi uchun mazkur plastinka qanday eng kichik radiusga ega bo'lishi kerak?

Ba'zi bir shisha navlarining qizil va binafsha nurlar uchun sindirish ko'rsatkichi 1,51 va 1,53 ga teng. Bu nurlar shisha-havo chegarasiga tushganida to'la ichki qaytish limit burchaklari topilsin.

#### 4-Amaliy mashg'ulot


Spektral tadqiqotlarda nurlanish manbaining o'rni.

1- masala. Sindirish ko'rsatkichi 1,5 ga teng bo'lgan shisha plastinkaga yorug'lik nuri tushadi. Qaytgan va singan nur orasidagi burchak  $90^\circ$ . Yorug'likning plastinkaga tushish burchagini toping.

Berilgan:  $n = 1,5$ ;  $\gamma = 90^\circ$ .

Topish kerak:  $n$ —?

Yechilishi.



rasmdan ko'rinadiki,  $\alpha + \beta + \gamma = 180^\circ$ , binobarin,  $\alpha + \beta = 90^\circ$ , bundan:  $\beta = 90^\circ - \alpha$  bo'ladi. Yorug'likning sinish qonuniga asosan:

$$n = \frac{\sin \alpha}{\sin \beta}, \text{ u holda } \sin \alpha = n \sin \beta = n \sin(90^\circ - \alpha) = n \cos \alpha.$$

Demak,  $n = \frac{\sin \alpha}{\cos \alpha} = \operatorname{tg} \alpha$ . Bu ifodadan  $\alpha$  ni topamiz:

$$\operatorname{tg} \alpha = 1,5; \alpha = \operatorname{arctg} 1,5 = 56^\circ 18'.$$

Oq yorug'lik shisha-havo bo'linish sirtiga  $41^\circ$  burchak bilan oq nur tushirilsa, nima roy beradi?

Monoxromatik nur sindirish burchagi  $40^\circ$  bo'lgan prizmaning yon sirtiga normal tushmoqda. Bu nur uchun prizma materialining sindirish ko'rsatkichi 1,5. Prizmadan chiqayotgan nurning dastlabki yo'nalishdan og'ishi topilsin.

Monoxromatik nur prizmaning yon sirtiga normal tushadi va undan  $25^{\circ}$  ga og'ib chiqadi. Bu nur uchun prizma materialining sindirish ko'rsatkichi 1,7. Prizmaning sindirish burchagi topilsin.

Teng yonli prizmaning sindirish burchagi  $10^{\circ}$ . Monoxromatik yorug'lik nuri prizma yon sirtiga  $10^{\circ}$  burchak ostida tushadi. Agar prizma materialining sindirish ko'rsatkichi 1,6 bo'lsa, nurning dastlabki yo'nalishidan og'ish burchagi topilsin.

Ba'zi bir monoxromatik nur uchun prizma materialining sindirish ko'rsatkichi 1,6 ga teng. Nur prizmadan chiqayotganida to'la ichki qaytish roy bermasligi uchun bu nurning prizmaga eng katta tushish burchagi qanday bo'lishi kerak? Prizmaning sindirish burchagi  $45^{\circ}$  ga teng.

Natriyning sariq chizig'i uchun ( $\lambda=5,89 \cdot 10^{-7} \text{m}$ ) kvars linzaning bosh fokus masofasi 16 sm bo'lsa, simob spektri ultrabinafsha chizig'i uchun ( $\lambda=2,59 \cdot 10^{-7} \text{m}$ ) kvars linzaning bosh fokus masofasi topilsin. Ko'rsatilgan to'lqin uzunliklari uchun kvarsning sindirish ko'rsatkichi mos holda 1,504 va 1,458.

### 5-amaliy mashg'ulot

#### Spektral tadqiqotlarda nurlanish manbaining o'rni

Kishi yaqindan ko'rar ko'z bilan optik kuchi  $D = -4$  dioptriya bo'lgan ko'zoynakda o'qimoqda. Ko'zoynaksiz eng yaxshiko'rish masofasini aniqlang. Berilgan:  $D = -4$  D  $d_0 = 25 \text{ sm} = 0,25 \text{ m}$ .

Topish kerak:  $f = ?$

Yechilishi. Yaqindan ko'radigan kishining ko'zoynagi sochuvchi linzalardan bo'lib, uning fokus masofasi quyidagicha ifodalanadi.

$$F = \frac{1}{D}.$$

Sochuvchi linzaning formulasidan bu fokus masofasi:

$\frac{1}{F} = \frac{1}{d_0} + \frac{1}{f}$  bo'ladi, bunda  $d_0$  normal ko'zning eng yaxshi ko'rish masofasi. Bu ifodadan  $f$  ni topamiz:

$$\frac{1}{f} = \frac{1}{F} - \frac{1}{d_0}; f = \frac{F \cdot d_0}{d_0 - F} = \frac{\frac{1}{D} \cdot d_0}{D \cdot d_0 - 1} \cdot D = \frac{d_0}{d_0 D - 1}$$

Hisoblash:

$$f = \frac{0,25 \text{ m}}{0,25 \text{ m}(-4) D - 1} = -0,125 \text{ m}.$$

Ko'zoynakdan tasvirgacha bo'lgan masofa ko'zning eng yaxshi ko'rish masofasidir. Minus ishora tasvirning mavhum ekanligini bildiradi.

Bir shishaning sindirish ko'rsatkichi 1,5, ikkinchisniki 1,7. Ikkala shishadan shakli bir xilda bo'lgan ikkita bir xil ikki yoqlama qavariq linza yasalgan. 1) Bu linzalar fokus masofalarining nisbati topilsin. 2) Agar linzalar sindirish ko'rsatkichi 1,6 bo'lgan tiniq suyuqlikka botirilsa, ularning har biri optik o'qqa parallel bo'lgan nurlarga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Ikki yoqlama qavariq linza yuzlarining egrilik radiuslari  $R_1=R_2=50$  sm. Linza materialining sindirish ko'rsatkichi  $n=1,5$ . Linzaning optik kuchini toping.

Optik kuchi 10 dioptriy bo'lgan ikki yoqlama qavariq linzadan 15 sm masofada, optik o'qqa perpendikulyar qilib balandligi 2 sm keladigan buyum qoyilgan. Tasvirning vaziyati va balandligi topilsin. Chizmasi chizilsin.

Egrilik radiuslari bir xil va sindirish ko'rsatkichi  $n = 1,5$  bo'lgan ikki yoqlama qavariq linzaning bosh fokuslari egrilik markazlarida yotishi isbot qilinsin.

Fokus masofasi 16 sm bo'lgan linza buyumning oralari 60 sm bo'lgan ikki vaziyatida aniq tasvir beradi. Buyumdan ekrangacha bo'lgan masofa topilsin.

Sferik sirtlar bilan chegaralangan egrilik radiuslari 12 sm dan bo'lgan ikki yoqlama qavariq linza buyum bilan ekran o'rtasida shunday masofaga qoyilganki, ekrandagi tasvir buyumdan  $k$  marta katta chiqqan. Agar 1)  $k=1$ , 2)  $k=20$  va 3)  $k=0,2$  bo'lsa, buyumdan ekrangacha bo'lgan masofa aniqlansin. Linza materialining sindirish ko'rsatkichi 1,5.

Linzaning havodagi fokus masofasi 20 sm bo'lsa, linza suvga botirilgandagi fokus masofasini toping. Linza yasalgan shishaning sindirish ko'rsatkichi 1,6.

## 6-amaliy mashg'ulot

Qabul qilgichlarning spektral sezgirligi.

Egrilik radiuslari mos ravishda 0,2 m va 0,3 m bo'lgan ikki yoqlama botiq linza yordamida buyumning 10 marta kichiklashgan tasviri olinadi. Linza yasalgan moddaning sindirish ko'rsatkichi 1,5. Linzaning fokus masofasi, linzadan buyumgacha va linzadan tasvirgacha bo'lgan masofalarni toping. Chizmasini chizib, qanday tasvir hosil bo'lishini aniqlang.

Berilgan:  $R_1=0,2$  m;  $R_2=0,3$  m;  $n=1,5$ ;  $k=0,1$ .

Topish kerak:  $F - ?$   $d - ?$   $f - ?$

Yechilishi. Linzaning fokus masofasi formulasi

$$F = - \frac{1}{(n-1) \left( \frac{1}{R_1} + \frac{1}{R_2} \right)}$$

dan foydalanib,  $F$  ni hisoblaymiz, bu yerda minus ishora botiq linza fokusining mavhumligini bildiradi.

$$F = - \frac{1}{(0,5-1) \left( \frac{1}{0,2} + \frac{1}{0,3} \right)} \text{ m} = 0,24 \text{ m.}$$

Ikki yoqlama botiq linzaning formulasi

$$\frac{1}{d} - \frac{1}{f} = - \frac{1}{F}.$$

Linzaning kattalashtirish formulasi  $k = \frac{f}{d}$  dan  $d = \frac{f}{k}$  ni topamiz va linza formulasiga keltirib qo'yamiz:

$$\frac{k}{f} - \frac{1}{f} = - \frac{1}{F}.$$

Bu tenglamani  $f$  ga nisbatan yechamiz:  $f = -(k-1)F$ .

Hisoblash:

$$f = -(0,1-1) \cdot (0,24) \text{ m} = -(-0,99)(0,24) \text{ m} = 0,216 \text{ m};$$

$$d = \frac{0,216}{0,1} \text{ m} = 2,16 \text{ m.}$$

Tasvir yasashda optik o'qqa parallel bo'lgan va linzaning optik markazidan o'tuvchi nurlardan foydalanamiz. Tasvir mavhum, to'g'ri va kichiklashgan bo'ladi.

Egrilik radiusi 30 sm va sindirish ko'rsatkichi 1,5 bo'lgan yassi-qavariq linza buyum tasvirini ikki barobar kattalashtiradi. Buyum va tasvirdan linzagacha bo'lgan masofa topilsin. Chizmasi chizilsin.

Egrilik radiuslari birday,  $|R_1| = |R_2| = 8$  sm bo'lgan flintglasdan qilingan ikki yoqlama qavariq linzaning boylama xromatik aberratsiyasi topilsin. Flintglasining

qizil nur ( $\lambda_1 = 7,6 \cdot 10^5$  sm) uchun sindirish ko'rsatkichi 1,5 va binafsha nur ( $\lambda_2 = 4,3 \cdot 10^5$  sm) uchun sindirish ko'rsatkichi 1,8.

Lupa normal ko'z uchun  $k=10$  marta kattalashtirishi uchun lupani chegaralovchi sirtlarining egrilik radiuslari ( $|R_1| = |R_2|$ ) qanchaga teng bo'lishi kerak? Lupa yasalgan shishaning sindirish ko'rsatkichi  $n=1,5$ .

Fokus masofasi 50 sm bo'lgan uzoqni ko'rish trubasi cheksizlikni ko'radigan qilib qoyilgan. Truba okulyari bir muncha surilgandan keyin obyektivdan 50 m uzoqlashtirilgan buyumlar ravshan ko'rinishga boshlagan. To'g'rilash paytida okulyar qancha masofaga surilgan?

Mikroskop obyektivining fokus masofasi 2 mm, okulyarning fokus masofasi esa 40 mm. Obyektiv fokusi bilan okulyar fokusi o'rtasidagi masofa 18 sm. Mikroskopning kattalashtirishi topilsin.

Yuza  $2 \times 2$  m bo'lgan surat undan 4,5 m uzoqlikka qoyilgan fotoapparat bilan suratga olinmoqda. Tasvir  $5 \times 5$  sm o'lchamda hosil bo'lgan, apparat obyektivining fokus masofasi qancha bo'lgan? Suratdan obyektivgacha bo'lgan masofani obyektivning fokus masofasiga nisbatan katta deb hisoblansin.

Teleskop fokus masofasi 150 sm bo'lgan obyektiv va fokus masofasi 10 sm bo'lgan okulyarga ega. Agar to'lin Oy qurollanmagan ko'zga  $31'$  burchak bilan ko'rinsa, mazkur teleskopdan qanday ko'rish burchagi bilan ko'rinadi.

## LABARATORIYA MASHG'ULOTLARI

### 1. SPEKTROSKOPNI DARAJALASH, DARAJALANGAN EGRI CHIZIQ BO'YICHA YORUG'LIK TO'LQIN UZUNLIGINI ANIQLASH

**Ishdan maqsad:** dispersiya xodisasi bilan tajribada tanishish. Spektroskopni darajalashni urganish. Turli gazlar spektral chiziqlarining to'lqin uzunliklarini aniqlash. Spektroskop yordamida nurlanish spektrlarini kuzatish.

**Kerakli asboblari:** mikrometrik vintli spektroskop, spektral trubkalar, spektral trubkalarni yondirish asbobi, chiqishidagi kuchlanish 6 V ga yaqin bo'lgan to'g'rilagich, ulovchi simlar, kalit, uchiga paxta o'rab taglikka o'rnatilgan sim, spirtli kolba, gugurt, osh tuzi, millimetrli qog'oz.

**Ishdan kutiladigan natijalar:** talabalar nurlanish turlarini, ularning qo'llanish sohasini, yorug'likning nurlanish qonunlarini bilib oladilar.

**Nazariy qism.**

**Moddalarning optik hossalari.** Moddaning optik hossalari nurlarni qaytarish, sindirish va yutishi bilan xarakterlanadi. Bu hodisalar sindirish ko'rsatkichi, yutilish koeffitsientlari orqali ifodalanadilar. Optik muhitlarning nochiqlik xususiyatini bu yerda ko'rmaymiz, sindirish ko'rsatkichi va yutilish koeffitsientlarini nurlanish quvvatiga bog'liq emas, deb hisoblaymiz. Muhitda X o'qi bo'yicha tarqalayotgan  $\omega$  chastotali yassi monoxromatik to'lqinning elektr maydoni kuchlanganligi:

$$E(x) = E(0)e^{-i\omega(t-\frac{x}{v})}; \quad (9.1)$$

qonun bo'yicha o'zgaradi, bu yerda  $v = \frac{c}{\sqrt{\epsilon}}$  to'lqinning muhitdagi tarqalish tezligi.

$s$  – yorug'lik vakuumdagi tezligi,

$$\epsilon' = \epsilon + iG \quad (9.2)$$

$\epsilon, G$  - mos ravishda muhitning dielektrik sindiruvchanligi va elektr o'tkazuvchanligi,  $\epsilon'$ - kattalik,  $n$  - sindirish ko'rsatkichi va  $\kappa$  - yutilish koeffitsienti bilan quyidagicha bog'langan.

$$\sqrt{\epsilon} = n' = n + in\kappa; \quad (9.3)$$

Biz monoxromatik, ya'ni bitta rangga ega bo'lgan yorug'likni nazarda tutdik. Agar to'lqinlar chastotalar gruppasi ko'rinishida mavjud bo'lsa unda umumiy hol yuz beradi. Masalan, oq yorug'lik taxminan  $4000 \text{ \AA}^0$  dan to  $7600 \text{ \AA}^0$  gacha bo'lgan tutash spektrga ega bo'ladi.

Xususiyl holni ya'ni ikkita bir xil amplitudali, lekin bir -birlaridan kichik farq qiluvchi  $\omega_1$  va  $\omega_2$  chastotali to'lqinlarning qo'shilishini ko'rib chiqaylik. (9.1) formulaning haqiqiy qismidagi elektr maydon kuchlanganligining o'zgarishlarini

$$E_{1x} = E_0 \cos(\omega_1 t - k_1 x) \quad \text{va} \quad E_{2x} = E_0 \cos(\omega_2 t - k_2 x) \quad (9.4)$$

formulalar orqali ifodalaymiz. Amplitudalarini qo'shib:

$$E = E_{1x} + E_{2x} = 2E_0 \cos\left[\frac{(\omega_1 - \omega_2)}{2}t - \frac{(k_1 - k_2)}{2}x\right] \times \cos\left[\frac{(\omega_1 + \omega_2)}{2}t - \frac{(k_1 + k_2)}{2}x\right] \quad (9.5)$$

ifodani hosil qilamiz.  $\frac{\omega_1 + \omega_2}{2}$  ifoda chastotalari bir-biridan kam farq qilganligi uchun u (9.4) ifodaning istagan birini chastotasiga yaqin bo'lgan to'lqinni ifodalaydi. To'lqinning amplitudasi kattaligi  $2E_0$  bo'ladi. U  $\frac{\omega_1 + \omega_2}{2}$  chastota va



$\frac{k_1 + k_2}{2}$  toʻlqin sonining oʻzgarishiga qarab juda ham sekin oʻzgaradi. Koʻpchilik moddalarda keng diapozondagi chastotaga ega boʻlgan oq yorugʻlik toʻlqinlari amalda susaymasdan tarqaladi. Misol tariqasida koʻzga koʻrinadigan yorugʻlikni shisha, havo, suv va boshqa shaffof gaz va suyuqliklardan oʻtishini keltirishimiz mumkin. Natijada bunday yorugʻlikni yutmaydigan muhitlarning dielektrik singdiruvchanligi  $\varepsilon(\omega)$  qaralayotgan chastotalar uchun haqiqiy va musbat boʻladi. U holda vektori haqiqiy va moduli boʻyicha

$$\kappa = \frac{\omega}{c} \sqrt{\varepsilon'(\omega)} = \frac{\omega}{c} n(\omega) \quad (9.6)$$

ga teng, bu yerda  $n$  – muhitning sindirish koʻrsatkichi.  $n(\omega)$  – moddalarning optik xossasining juda muhim xarakteristikasi. Sindirish koʻrsatkichi orqali toʻlqinning fazoviy tezligi ham ifodalanadi.

$$v_{\phi} = \frac{\omega}{k} = \frac{c}{n(\omega)}; \quad (9.7)$$

Fazaviy tezlik chastotaga bogʻliq boʻlishi hodisasi *dispersiya* deb ataladi. Dispersiyaning mavjud boʻlishi, eksperimentda tutash spektrning monoxromatik tashkil etuvchilarini ajratish imkonini beradi, chunki prizma qirrasiga biror burchak ostida yorugʻlik tushayotganida sinib oʻtgan spektrda bu tashkil etuvchilar turli yoʻnalishlarda tarqaladilar. Ana shu printsipda prizmalı spektral asbob (stilaskop, spektrograflar va monoxramatorlar) ishlatiladi.

Yuqorida koʻrilgan monoxromatik toʻlqinlarda turli fazaviy tezliklar bor.


$$\frac{\omega_1}{k_1} \neq \frac{\omega_2}{k_2};$$

Toʻlqin amplitudasi maksimumining tezligi, yaʼni gruppaviy tezligi

$$\frac{\omega_1 - \omega_2}{k_1 - k_2} = \frac{\Delta\omega}{\Delta k}; \quad (9.8)$$

ifoda bilan aniqlanadi

Ikki toʻlqin superpozitsiyasining koʻrinishi turgʻun saqlanmaydi va paket profili vaqt oʻtishi bilan oʻzgarib boradi. Agar toʻlqinlar gruppasi bir-biridan kam farq chastotalardan tashkil topgan boʻlsa, u holda gruppaviy tezlik uchun ifoda:




$$\frac{\Delta\omega}{\Delta k} = \frac{d\omega}{dk} \quad (9.9)$$

ko`rinishida yoziladi. Gruppaviy tezlik paket amplitudasining maksimal tezligidir. Shuning uchun bu tezlik paket energiyasining tarqalish tezligi hisoblanadi. Gruppaviy va fazaviy tezliklar orasidagi bog`lanish

$$v_{gp} = \frac{d\omega}{dk} = \frac{d}{dk} (k \times v_{\phi}) = v_{\phi} + k \frac{dv}{dk} = v_{\phi} - \lambda \frac{dv}{d\lambda} \quad (9.10)$$

ga teng bo`ladi. Bunda  $k = \frac{2\pi}{\lambda}$ , odatda  $\frac{dv}{d\lambda} > 0$  hosil musbat, chunki  $v_r < v_f$  bo`ladi.

Bu hol *normal dispersiyani* ifodalaydi. Biroq, anomal dispersiya ham yuz berishi



mumkin. Bu hol  $\frac{dv}{d\lambda} < 0$  – manfiy va  $v_r > v_f$  bo`lganda yuz beradi.

Yorug`likni yutmaydigan muhitlar asosan dielektrik hisoblanadi. Ular uchun normal dispersiya yuz beradi, faqat dielektrikni tashkil etuvchi atomlarning xususiy rezonans chastotalaridan uzoq spektral sohalardagina normal dispersiya yuz beradi. 6.1-rasmda uchta egri chiziq, keltirilgan bo`lib, ular:

- I. Dispersiya yuz bermaydigan muhit uchun o`zgarmas va  $v_r = v_f$  (bunda masalan vakuum)
- II. Normal dispersiya sohasi, bunda -  $v_r < v_f$
- III. Anomal dispersiya sohasi, bunda -  $v_r > v_f$

Buyuk ingliz fizigi I.Nyuton 1666 yilda oq yorug`likni uchburchakli shaffof prizma orqali o`tkazib, uni tarkibiy qismlarga ajratishga muvaffaq bo`ldi (9.2-rasm). Nyuton bunda yettita rangni: qizil, pushti, sariq, yashil, zangori, ko`k, binafsha ranglarni ajratdi. U bu ranglardan iborat polosani *spektr* deb atadi. Nyutonning tajribalaridan quyidagi xulosa kelib chiqadi: muhitning sindirish ko`rsatkichi yorug`likning rangiga bog`liq. Bu xodisa yorug`likning *dispersiyasi* deyiladi. Ana shu xodisaga asoslanib spektrlarni o`rganuvchi asbob *spektroskop* deyiladi. Ranglari bilan farq qiluvchi nurlar to`lqin uzunliklari bilan farq qiladi. Prizma orqali o`tayotgan yorug`lik nurlari sindirishi natijasida tashkil qiluvchi qismlar har xil rangli polosalar (yo`llar) ga ajraladi.


Qizil yorug`lik to`lqinining uzunligi  $\lambda_q = 7,6 \cdot 10^{-5}$  sm, binafsha yorug`lik to`lqinining uzunligi  $\lambda_b = 4 \cdot 10^{-5}$  sm.

Spektrdagi boshqa ranglarga to`g`ri keladigan to`lqinlarning uzunliklari qizil bilan binafsha nurlarning to`lqin uzunliklari oralig`ida bo`ladi.

Spektrni o`rganish uchun spektroskopdan foydalaniladi. Spektroskopning optik tuzilishi va unda nurlarning yo`li 9.4-rasmda ko`rsatilgan.

Umuman olganda jismlarning yorug`lik chiqarishining bir nechta turi bor. Shulardan biri jismlarning issiklik nurlanishidir.

**Spektroskopning tuzilishi va ishlashi.** Spektroskopning umumiy ko`rinishi 6.3-rasmda ko`rsatilgan. Bunda 1 – okulyar, 2 – ko`rish trubasi, 3 – mikrometrik vint, 4 – ob`ektivlar ( $O_1$  va  $O_2$  linzalar), 5 – kollimator, 6 – tirqish, 7 – prizma.



0 3 rasmi


Spektr (va ip) ning haqiqiy tasviriga lupada qaralgandek, okulyar orqali qaralganda spektrning faqat bir qismigina ko`rinadi. Spektrning ayrim qismlarini ko`rish uchun ko`rish trubasini 3 mikrometrik vint yordamida burib kuzatish kerak.

Spektroskop ishini, hamda nurlanish va yutilish spektrlarini ko`rib chiqaylik (9.4-rasm). Spektroskop ikkita trubadan tashkil topgan: kollimator va ko`rish trubalarini ob`ektivlari fokus masofasi – 150 mm,

okulyarning fokus masofasi – 32 mm, kollimator va ko`rish trubalari teshigining nisbati 1:6,5, prizmasining o`rtacha dispersiyasi 0,019 bo`lib, ko`rish soxasidagi spektrlari (400 – 760 nm) soxasida spektral analiz bo`yicha tajriba o`tkazishga mo`ljallangan.

$O_1$  ob`ektivning fokal tekisligida tor tirqish joylashgan, tirqish rasm tekisligiga perpendikular xolda o`rnatiladi. Tirqish orqali o`rganilmokchi bo`lgan nur bilan yoritiladi.

Ob`ektivdan chiqayotgan parallel nurlar prizma orqali o`tadi. Prizmadan o`tgan nurlar to`lqin uzunliklariga bog`liq xolda har xil: qizil nurlar kichik, binafsha nurlar katta burchaklarga og`adilar, qolgan rangdagi boshqa nurlar ana shu ikki rang oralig`ida joylashgan xolda prizmadan o`tadi.



0 4 rasmi

To`lqin uzunligi bir xil bo`lgan nurlar prizmadan parallel xolda chiqadilar va  $O_2$  ob`ektiv ularni  $S$  fokus tekislikda 1 nuqtaga yig`adi. Bu tekislikda bir xil rangdagi nurlar  $S$  tirqishning tasvirini beradi.

Tekshirilayotgan nurlar dastasiga taalluqli hamma rangdagi nurlarning geometrik o`rni berilgan nurlanishning prizmatik spektri deb ataladi.  $S$  spektrning tasviri juda kichik o`lchamda hosil bo`lgani uchun, uni lupa kabi kattalashtirish qobiliyatiga ega  $O_3$  okulyar bilan kattaytiriladi.

Kollimator trubka 4 tor tirqishdan tushayotgan nurlar dastasini prizмага yo`naltirish uchun xizmat qiladi. Tor tirqish esa prizmaning sindiruvchi prizmasiga parallell bo`lgan ob`ektiv fokal tekisligiga joylashtirilgan. Tirqishni aniq qilib o`rnatish uchun tirqish o`rnatilgan gardishni vertikal holatga burish mumkin.

Prizma B yorug`likni yoyish uchun xizmat qiladi. Kollimatordan chiqqan yorug`lik dastasi prizmaning oldingi yon qirrasiga tushadi, unda yoyiladi va prizmadan to`lqin uzunliklariga mos xolda har-xil rangdagi yorug`liklar parallel dastasi shaklida chiqadi.

### 9.1-jadval.

№	Chiziqlarning rangi va holati	To`lqin uzunligi, <i>nm</i>
1	Binafsha (pastki chegara)	390 – 450
2	Ko`k	450 – 480
3	Havo rang	480 – 510
4	Yashil	510 – 550
5	Yashil-sariq	550 – 570
6	Sariq	570 – 585
7	Zarg`aldoq	580 – 620
8	Qizil (yuqori chegara)	620 – 800

Vintli makrometr 7 rangli polosalarning spektrda bir-biriga nisbatan joylashishini aniqlash uchun zarur. Mikrometrning vinti qadamlari 1 *mm* dan bo`lib, barabanchasiga 50 ta bo`limga bo`lingan shkala joylashtirilgan

Spektrometrni graduirovka (shkala qiymatlarini aniqlash) lash uchun neon lampasidan foydalaniladi. Bu lampa tor tirqishga to`g`irlab qo`yilishi kerak.

Neon nurlari spektrida spektrning turli soxalarida joylashgan qator yorqin chiziqlar mavjud. Neon yorug`likdagi chiziqlar to`lqin uzunliklari jadvallarda keltiriladi. Neon nuri spektrining to`lqin uzunliklari bo`yicha tarkibi.

Ana shu chiziqlarning joylashish soni aniqlanib, mikrometrik baraban shkalasida belgilab qo`yiladi. To`g`ri burchakli koordinata sistemasida esa mikrometr uchun darajalash grafigi chiziladi.

Bunda abstsissa o`qiga baraban shkalasi bo`limlari qo`yilsa, ordinata o`qiga neon yorug`lik chiziqlarining to`lqin uzunliklari qo`yilib, unga mos keluvchi grafiu

chiziladi. Bu grafik bizga spektrning xoxlagan chizig`ining to`lqin uzunligini aniqlashga imkon beradi.

**Eslatma:** to`lqin uzunliklari nanometr va angestremlarda o`lchanadi.  $1 \text{ nm}$  (nanometr) =  $10^{-9} \text{ m}$ ,  $1 \text{ \AA}$  (angestrem) =  $10^{-10} \text{ m}$ .

### Ishni bajarish tartibi

Tabiiy yorug`lik manbai tomonga spektroskopning kollimatori to`g`irlanib, spektroskopning ko`rish trubasi orqali qaralganda tutash spektr kuzatiladi.

Spektroskopning mikrometr barabani vinti harakatga keltirilib, ko`rish trubasi ichidagi vizir ipi spektrning eng chekka qizil chegarasiga keltiriladi.

Mikrometr barabani shkalasidagi ko`rsatkichi belgilanib, spektrning navbatdagi rangi – zarg`aldoq rangiga vizir ipi mos keltiriladi va mikrometr barabani ko`rsatkichi yozib olinadi.

Qolgan ranglarga ham mos keluvchi mikrometr barabani ko`rsatkichlari shunday tartibda xuddi shunday usul bilan yozib olinadi va jadvalga tushiriladi (9.2-jadval).

**9.2-jadval.**

№	Chiziqlarning rangi va holati	To`lqin uzunligi, nm	Mikrometr barabani ko`rsatkichi
1	Binafsha (pastki chegara)	390 – 450	
2	Ko`k	450 – 480	
3	Havo rang	480 – 510	
4	Yashil	510 – 550	
5	Yashil-sariq	550 – 570	
6	Sariq	570 – 585	
7	Zarg`aldoq	580 – 620	
8	Qizil (yuqori chegara)	620 – 800	

Millimetrlı qog`ozga mikrometr barabani ko`rsatkichlari koordinataning abstsissa o`qiga, ranglarning to`lqin uzunliklari orrdinata o`qiga joylashtirilib, nuqtalar belgilanadi va tutashtirilib, egri chiziq olinadi.

Spektroskopning kollimatori mahsus yoritgichga qaratiladi va undagi spektrning diskret chiziqlari kuzatiladi.

Mikrometr barabani harakatga keltirilib, vizir ipi diskret chiziqlarga mos keltiriladi, baraban shkalasidagi ko`rsatkich yozib olinadi.

Keyin mikrometrning darajalash grafigi bo`yicha bizni qiziqtirayotgan chiziqlarning mikrometr ko`rsatkichlari darajalash grafigining abstsissa o`qiga qo`yiladi va egri chiziq bilan kesishish joyidan ordinata o`qidan to`lqin uzunlik qiymati olinadi. Shunday tarzda boshqa yorug`lik manbalarining ham to`lqin uzunliklari mikrometrning darajalash grafigi bo`yicha aniqlanadi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

Spektr nima?

Dispersiya deb nimaga aytiladi?

Dispersiyani so`zlab bering.

Nurlanish spektri qachon hosil bo`ladi?

Spektrlardan qaysi biri tutash, qaysinisi uzlukli bo`ladi?

Elektromagnit nurlanishning qanday turlarini bilasiz?

## **RANGLI SUYUQLIKDAN O`TAYOTGAN YORUG`LIK SPEKTRINI TAHLIL QILISH**

Qisqacha nazariya

### **a) Yutilish**

Yoruglik niuri vakuumda intensivligi va qutblanishi o`zgarmasdan. Nur yo`liga qoyilgan plastina yoki filtrlar bir qancha effaktlarni hosil qiladi.

Birinchiidan, plastina yoki filtr yorug`lik nuri bir qism energiyasini boshqa turdagi energiyaga masalan, issiqlikka aylantirishi mumkin. Bu hodisaga yutilish deyiladi.

Ikkinchiidan, ular tushayotgan nurlanish energiyasining bir qismini ajratib barcha yo`nalishlar boylab chastotasini o`zgartirmasdan sochadi. Bu hodisaga elastik sochilish deyiladi. Umuman olganda nurni tushish yo`nalishi va qutblanishidan farq qiluvchi boshqa yo`nalishda va qutblanishda sochadi.

Yutilish va sochilishi natijasida tushayotgan nur energiyasi yutilgan va sochilgan nur energiyasiga teng miqdorda kamayadi. Bu yoqotilish so`nish deyiladi. Bu so`nish darajasi tushayotgan nur qutblanish tashkil qiluvchilari uchun turlicha bo`lishi mumkin. Bu xodisa dixorizm deyiladi va bu xodisa nurning palstina yoki filtrdan o`tgandan keyin nurning qutblanganlik holatini o`zgartirishi mumkin.

**Shaffoflik** yorug`lik intensivligining plastin yoki filtrdan o`tgandan keying va oldingi qiymatlari nisbati bilan belgilanadi. Shaffoflik quyidagi formula bilan aniqlanadi

$$T = \frac{I}{I_0}$$

bu erda  $I_0$  dastlabki intensivlik va  $I$  nurning plastina yoki filtrdan o'tgandan keyingi intensivligi. Shaffoflik yorig'likning plastina yoki filtrdan necha foizi o'tganligini ko'rsatadi. Plastina yoki filtrning shaffofligi 50% deyilsa, demak ularda yorug'lik intensivligi ikki marta kamayadi.

Shaffoflik (T) va yutilish (A) o'rtasida quyidagicha bog'lanish mavjud:

$$A = \log_{10} \left( \frac{1}{T} \right)$$

Birinchiidan, agar ma'lum to'lqin uzunlikli yorug'lik nuri biror miqdorda aralashmali eritmada o'tganda fotonlar ko'p bo'lmagan miqdordagi yutuvchi kimyoviy birikmalar bilan to'qnashadi va mos holda yuqori shaffoflikni va past spectral yutilishni kutishimiz mumkin. Agar shu nur konsentratsiyasi yuqori bo'lgan eritmada o'tsa fotonlar ko'p miqdordagi yutuvchi kimyoviy birikmalar bilan to'qnashadi va mos holda past shaffoflikni va yuqori spectral yutilishni kutishimiz mumkin. Shunday qilib spectral yutilish namuna konsentratsiyasiga bog'liq.

Ikkinchiidan, agar nur namunada uzoq yo'l o'tsa o'tkazish koeffitsiyenti past va spectral yutilishli katta bo'ladi, hamda nur namunada kam yo'l o'tsa o'tkazish koeffitsiyenti yuqori va spectral yutilishli kichik bo'ladi. Bu ikki mulohaza quyidagi proporsionallikka olib keladi:

$$A \propto k \times l \times c$$

Bu erda,  $k$  proporsionallik koeffitsiyenti,  $l$  nur yo'li uzunligi va  $c$  yutuvchi material konsentratsiyasi. Nur yo'li santimetrlarda, yutuvchi birikmalar konsentratsiyasi mollarda o'lchanganda proporsionallik koeffitsiyentini molyar yutilish qobiliyati deyish mumkin va proporsionallik **Bira-Lambert** qonuniga aylanadi:

$$A = \varepsilon \times l \times c$$


## b) Rang shakllanish modellari

Har bir rang modelida ranglarni tavsiflashning o'z usuli mavjud. Har bir rang modelida turlicha rang gammasiga ega bo'lgan turlicha rang kengligi mavjud. Masalan, RGB modelidagi sRGB rang gammasi Adobe RGB modelidagi rang gammasidan farq qiladi.

Shuningdek, tasvir hosil qilish (monitorlar, televizor ekranlari) yoki printer kabi tasvir chop qilish qurilmalarida ham o'z rang modeli va rang gammasi mavjud. Ekranda raqamli tasvirning hosil qilinishini keyin tasvirning chop qilinishini ko'rib chiqaylik. Ekranda ko'ringan tasvirdagi alohida ranglar printerda chop qilinganda o'zgarishi mumkin, chunki printer boshqach o'ziga xos rang modeli va rang gammasiga asosan chop qiladi

## RGB rang modeli

RGB rang modelida (RGB = Red-qizil, Green-yashil, Blue-ko'k) barcha ranglar uchta qizil, yashil va sariq ranglarning qo'shilishidan hosil qilinadi. Demak, bizda faqat 3 ta asosiy rang bor bo'lib, qolgan barcha ranglar shu uchta rangni aralashtrishdan hosil qilinadi. Agar biz qizil va yashil ranglarni aralashtrirsaq sariq, qizil va ko'kni aralashtrirsaq binafsha rang, ko'k va yashilni aralashtrirsaq havo rangni olamiz. 1-rasmga qarang.



1-rasm. RGB rang modeli: Red-qizil, Green-yashil va Blue-ko'k.

Agar barcha uchta rangni ham aralashtrirsaq oq rangni olamiz, uchta rangning birortasi bo'lmasa qora rangni olamiz. Elementar ranglar qo'shilishi bilan hosil qilingan rang aralashgan rang deyiladi.

3 asosiy rangning har biri 0 da 255 gacha qiymatga ega. Har bir asosiy rang 255 ta darajaga ega. Agar 3 rangning barchasi 0 darjada bo'lsa ularning yig'indisi qora rangni beradi. Agar barchasining darajasi 255 ga teng bo'lsa oq rangni olamiz. Agar 3 asosiy ranglarda birining darajasi 255 ga boshqalariniki 0 ga teng bo'lsa, biz sof birinchi rangga ega bo'lamiz.

Grafik dasturlarda, asosiy ranglar rang kanallari bilan tavsiflanib unda rang haqida ma'lumotlar saqlanadi. Barcha asosiy uchta qizil, yashil va ko'k ranglardagi barcha 256 ta rang tonlarini


ko'paytirib (256x256x256) nazariy jihatdan 16.7 million rang gradatsiyalarini hosil qilish mumkin.

## CMYK rang modeli

CMYK modelda asosiy ranglar Cyan-havo rang, Magenta-pushti rang, Yellow-sariq va Black-qora ranglardan iborat. K- qora rangni bildirib qora rangni beruvchi kalitni (barcha rangni uzuvchi) bildiradi. Rangli torli va lazerli printerlar asosan CMYK ranglar bilan ishlaydi. Suyuq ranglarni aralastirish subtraktli rang aralastirish deyiladi.

Ranglarning subtraktiv aralastirish ozidan nur chiqarmaidigan jismlarda sodir bo'ladi. Subtraktiv rang aralastirishda rang quyidagicha paydo bo'ladi, jism yoki filtrdagi rang pigmentlari rang tashkil qiluvchilarining ba'zilarini yutadi qolganini ekranga qaytaradi.

Masalan sariq rang RGB model kabi asosiy ranglar qizil va yashil ranglarni qo'shishdan hosil qilinmaydi. Subtraktiv rang aralastirishda sariq rang qizil va pushti ranglarni olib tashlash bilan 2-rasmga ko'rsatilgani kabi hosil qilinadi.



2-rasm. CMYK rang modeli: Cyan-havo rang, Magenta-pushti rang va Yellow-sariq.




Agar biz oq tabiiy nurning yashil tashkil qiluvchini filtrlab olib tashiasak pushti rang hosil bo'ladi. Ko'k rangni filtrlash sariq rangning pydo bo'lishiga olib keladi. Mana shu uch rangdan CMYK (cyan, magenta, yellow) rang modeli tashkil topadi va barcha ranglar spektri mana shu asosiy ranglarni kerakli miqdorda aralashtirish bilan hosil qilinadi.

### c) To'g'ri ko'rishli prizma

Prizma sirtiga tushayotgan nur sinadi chunki nur sirtida ikkinchi muhitga o'tadi. Muhitning sindirish ko'rsatkichining tushayotgan nur to'lqin uzunligiga va chastotasiga bog'liqligiga dispersiya deyiladi. Ko'pgina moddalar qisqa to'lqin uzunlikli yorug'lik nurini uzun to'lqin uzunlikli yorug'lik nurga qaraganda ko'proq sindiradi. Ko'k nur qizil nurga qaraganda ko'proq sinadi. Shunday qilib prizma yorug'lik nurini to'lqin uzunligiga qarab ajratadi.



Ayniqsa spektroskopiyada to'g'ri ko'rish yo'nalishli prizmalar juda muhim hisoblanadi. Bu prizma sindirish ko'rsatkichi turlicha bo'lgan bir-biriga ketma-ket joylashtirilgan uchta yoki beshta prizmalardan iborat bo'ladi. Ko'p uchraydigan tipik tuzilish ketma-ketligi masalan, optik shisha, kronglas, optik shisha.



3-rasm. Ko'rish yo'nalishli prizma tuzilishi.

Ko'rish yo'nalishli prizma avfzalligi shundaki, sodda tuzilishga ega va chiqshdagi nurlar kiruvchi nurga va prizma o'qiga (asosiga) parallel chiqadi. Ko'rish yo'nalishli prizma tuzilishi 3-rasmda keltirilgan. Bu erdan ko'rinadiki yashil nur kirish nuriga eng parallel nur hisoblanadi.

## Xavfni baholash


Fuksin	
 Xavfli	<p><b>Xavf-xatar:</b></p> <p>H 302 Istemol uchun zararli (Xn)</p> <p>H 317 Terining allergiyasini keltirib chiqarishi mumkin.</p> <p>H 334 Bug'idan nafas olinsa nafas yo'llarni allergiyasini yoki astmani paydo qilishi, yoki nafas olishini qiyinlashtirishi mumkin.</p> <p>H 351 Saraton keltirib chiqarish xavfi bor.</p> <p><b>Xavfsizlik:</b></p> <p>P 261 Chang, tutun, gaz, tuman, bug' va aerezollardan bug'ilishdan saqlaning.</p> <p>P 280 Himoya qo'lqopi/ himoya kiyimi/ kiying yuzni himoya qiling.</p> <p>P 342 + 311 Yallig'lanish hollari va simptomalari kuzatilganda tibbiyot markaziga murojat qiling.</p>
	

## Tajribalar

Rangli suyuqlikning yutilish spektri xossalarini o'lchash va ko'rish mazkur tajribada amalga oshiriladi:

### 1-Tajriba:

Bu tajribada ko'rish yo'nalishli prizma spektri o'qganiladi.



4-rasm. Yorug'lik nuri spektrini tahlil qilish qurilmasi.

Ish stoli qurilmalari:

1Optik stol, S1 profil, 1 m

460 310

2	Qisqichli rider, qisqichi bilan	460 311
3	Qisqichli rider, qisqichi bilan, 45/35	460 312
1	Transformator, 6/12 V	521 210
1	Lampa patroni kabeli bilan	450 60
1	Lampalar, 6 V/30 W, E14, 2 komplekt	450 511
1	Diafragma tutgichli kondenser	460 20
1	Ramkali linza, $f=100$ mm	460 30

1	Prujina qisqichli tutgich	460 22
1	Prizma stoli	460 25
1	Ko'rish yo'nalishli prizma	466 05
1	Ekran	441 53

Dastlab, patroniga 6 V/30 W lampani qoying. Lampa ro'parasiga difragma tutgichli kondenserni shunday joylashtiringki tutgich 6-rasmdagi kabi vertikal bo'lsin. Keyin asosga diafragma tutgichi o'rnatilgan taglik-surgichni o'rning.



5-rasm. Difragma tutgichi va kondenser o'rnatilgan lampa.

Lampani relsning eng chap chekkasiga o'rning. Boshqa tomoniga esa shaffof ekranni 5-rasmdagi kabi joylashtirng.


Endi ramkali linzani( $f=100$  mm) lampadan keyin o'rning. Linzani shunday suringki tirqishning aniq tasviri ekranda paydo bo'lsin. Har bir optik asbob bir xil balandlikdaligiga e'tibor qiling. Ish tartibida asboblar quyidagicha masofalarda joylashtiriladi: lamp patroni tutgichi– linza tutgichi: 19 sm. Linza titgichi – ekran tutgichi: 49 sm.

Keyingi bosqichda ko'rish yo'nalishli prizmani nur yo'liga qoyng. Shuning uchun prizma stoli va ekran orasini yoping. Prizma stoli tutgichi – ekran tutgichi: 23 sm. Endi ko'rish yo'nalishli prizmani nur yo'liga shunday qoyingki nur prizma sirtiga 7-rasmda ko'rsatilgani kabi tushsin. Nur prizma o'qlariga parallel bo'lishi kerakligini yodda tuting.



6-rasm. Tushuvchi nur birinchi prizmaning birinchi sirti o'rtasiga tushadi.


Bir vaqtning o'zida to'g'ridan to'g'ri tushayotgan nurni va spektrni ekranda ko'rish uchun rizmali stol ozroq pastlatilishi zarur. Yorug'lik nuri dastasining yuqorigi yarmi linza ustidan, pastki yarmi linza ichidan o'tishi lozim. Natija 8-rasmda ko'rsatilgan.



7-rasm. Yuqorida: Sharp image of the slit. Quyida: Continuous spectrum of a light bulb through the direct-vision prism.

## 2-TAJRIBA:

Bu tajribada rangli suyuqlik spektri tadqiq qilinadi.



8-rasm. Rangli suyuqlik spektri tadqiq qilish qurilmasi.

Setup on Bench:

1	Optik stol, S1 profil, 1 m	460 310
2	Qisqichli rider, qisqichi bilan	460 311
3	Qisqichli rider, qisqichi bilan, 45/35	460 312
1	Transformator, 6/12 V	521 210
1	Lampa patroni kabeli bilan	450 60
1	Lampalar, 6 V/30 W, E14, 2 komplekt	450 511
1	Diafragma tutgichli kondenser	460 20
1	Ramkali linza, $f=100$ mm	460 30
2	Prizma stoli	460 25
1	Shisha stakan –kyuveyta	477 14
1	Yo'naltiruvchi prizma	466 05
1	Ekran	441 53
1	Fukusin, 250 g	672 0810

### Rangli suyuqlikni tayyorlash

Fukusinli qizil-binafsha rangli eritmani tayyorlash: qizil-binafsha rangli eritma olish uchun menzurkaga fukusin kukuni solinadi va 50 ml suq quyiladi. Agar eritma juda ham past rangli yoki

juda ham qizg'ish bo'lib ketsa, zarur rang olish uchun ko'proq fukusin yoki erituvchi suv qo'shiladi. 9-rasmda ishga tayyor eritma rangi keltirilgan.

Bu tajriba uchun qurilma tarkibi birinchi tajribadagi bilan mos tushadi. Shu bilan birga, bu qurilmada ikkinchi prizmalı stol linza va prizma orasiga 9-rasmdagi kabi o'rnatiladi.

Endi kyuvetani rangli suyuqlik bilan to'ldirish va kyuvetani prizmalı stolga qoyish mumkin. Kyuvetani prujinali qisqich bilan mahkamlang. Kyuveta uchun kitta o'rnatish holati mavjud: 9- va 10- rasmlarda ko'rsatilgani kabi ko'ndalang va boylama holatlar.




9-rasm. Qizil-binafsha rangli fukusinli eritmaning ko'ndalang joylashuvi.



10-rasm. Qizil-binafsha rangli fuksinli eritmaning boylama joylashuvi.

Natijalar:

Fuksinli qizil-binafsha boyoqli eritma spektri  
11-rasmda keltirilgan.



11-rasm. Fuksinli qizil-binafsha eritma spektri. Chapda: transversal. O'ngda: longitudinal.

Ikkala spektrda ham yashil rang yo'q, natijaviy rang olov rang. Qo'shimcha ranglar yutiladi va boshqalari o'tkaziladi.


Ko'ndalang holatda ko'k rang ko'proq yutiladi va natija rang esa qizil.

11-rasmda kameraning sezgiligi tufayli ko'k rang deyarli ko'rinmaydi.


### **Tozalash va utilizatsiya**

Utilizatsiya turli mintaqalarda turlicha tartibda amalga oshiriladi va shuning uchun bung mas'ul tashkilotlarni surishtirish kerak bo'ladi.

Qo'shimchalar:



12-rasm. Fuksinli qizi-binafsha eritmaning yorug'likni o'tkazish koeffitsiyenti. Ko'ndalang.



13-rasm. Fuksinli qizi-binafsha eritmaning yorug'likni o'tkazish koeffitsiyenti.Boylama.

12 va 13 rasmlar 467251 spektrometrida olingan batafsilroq spektr sifatida keltirilgan. Bu erda yashil rang yutilishini va yutilish sohasining kengligini ko'ramiz.

Ko'k va qizil ranglar fuksinda katta yutilishlarsiz o'tmoqda.

### 3.BUGER-LAMBERT-BEER QONUNINI O'RGANISH

**Ishni bajarishdan maqsad:** Har xil suyuqliklarda yorug'likning yutilishini o'rganish hamda Buger-Lambert-Beer qonunini tekshirish.

**Kerakli asboblari:** Buger-Lambert-Beer qonunini tekshirish yasalgan qurilma, yarim o'tkazgichli lazer, distillangan suv, mis kuporasining suvdagi eritmasi.

#### Ishga oid nazariy ma'lumotlar:

Yorug'likning moddalar (suyuqliklar, gazlar, qattiq jismlar) bilan o'zaro ta'siri uning absorbtsiya, refraktsiyasi, qutblanishi, sochilishi va hokazolar orqali namoyon bo'ladi. Bu hodisalarning har birini miqdoriy tavsiflash uchun ma'lum bir kattaliklar

orqali ifodalanadi: bular-yutilish koeffitsienti, qutblanish darajasi, sochilgan nurning intensivligi va hokazolar bilan nomlanadi.

Yorug'likning ikki muhit chegarasida qaytishi va sinishini o'rganayotganda uning yutilishi va sochilishini hisobga olmaymiz. Shuning uchun bu jarayon faqat bitta kattalik-sindirish ko'rsatgichi  $n$  orqali ifodalanadi. Agar biz yorug'lik intensivligini kamayishini ham hisobga olmoqchi bo'lsak u holda sindirish ko'rsatgichi bilan bir qatorda muhitda yorug'likni yutilishi va sochilishini hisobga oluvchi ekstinktsiya koeffitsienti (yoki yutilish ko'rsatkichini) kiritishimiz kerak bo'ladi.

Biror muhitdan o'tayotgan yorug'lik to'lqinining elektromagnit maydoni ta'sirida muhitning elektronlari tebranadi va to'lqin energiyasining bir qismi elektronlarni (optik elektronlarni, ya'ni odatda atomga eng kuchsiz bog'langan valent elektronlarni yorug'lik dispersiyasining klassik nazariyasidagi modelga e'tibor Beerling) tebrantirishga sarf bo'ladi.

Moddaning sirtiga  $I_0$  intensivlikli monoxromatik parallel nurlar dastasi (yassi to'lqin) tushayotgan bo'lsin, intensivlikning ( $dI$ ) kamayishi moddaning qalinligi ( $dx$ ) ga va muhitdan o'tayotgan ( $I$ ) intensivlikka proporsional bo'ladi.

$$-dI = \beta I dx \quad (1)$$

Birinchi formuladan

$$-\frac{dI}{I} = \beta dx$$

Bu ifodani  $I_0$  dan  $I$  gacha va  $0$  dan  $x$  gacha integrallab: quyidagini olamiz:

$$I = I_0 e^{-\beta x} \quad (2)$$

Bu yerda:  $I_0$ —modda sirtiga tushayotgan yorug'lik intensivligi,  $x$ —modda qatlamining qalinligi .

Olingan (2) ifoda adabiyotda **Buger qonuni** nomi bilan aytiladi. Bu qonunni Buger (1729 yil) tajribada topgan va nazariy jihatdan asoslagan.

Undagi  $\beta$  ko'pincha ekstinktsiya koeffitsienti (yoki yutilish ko'rsatkichi) deb ataladi va muhitdan o'tayotgan yorug'likning intensivligini susayishini ifodalaydi. Agarda biz ko'rayotgan moddada yorug'likni sochilishi hisobga olmaslik darajada kam bo'lsa (yutilishga nisbatan) ekstinktsiya koeffitsientini yutilish ko'rsatkichi deb olinadi. Aksincha, agar yorug'likning sochilishi uning yutilishiga nisbatan katta bo'lsa, sochilish hisobiga yuzaga kelgan ekstinktsiya koeffitsienti deyishimiz o'rinliroq bo'ladi.

Bu ishimizda yorug'likning sochilishini uning yutilishiga nisbati juda kam bo'lgani uchun yorug'lik intensivligini kamayishi

asosan yutilish hisobiga sodir bo'ladi, ya'ni (1) dagi proporsionallik koeffitsienti ( $\beta$ ) yutilish ko'rsatkichini bildiradi va yorug'likning yutilish ko'rsatkichi

$$\beta = \frac{1}{x} \ln \frac{I(x)}{I_0} \quad (3)$$

orqali hisoblanadi.

Bu  $\beta$ -koeffitsientning son qiymati moddaning yorug'lik intensivligini yeq **2,72** marta kamaytiruvchi qatlamining qalinligini ko'rsatadi. Bundan ko'rinib turibdiki yutilish ko'rsatkichining o'lchov birligi  $\text{sm}^{-1}$  yoki  $\text{m}^{-1}$  ko'rinishda bo'ladi.

Yorug'likning yutilish qonuni yuqorida aytganimizdek Buger tomonidan aniqlangan. Keyinchalik **Lambert** va **Beer** lar har tomonlama o'rganishgan. Shuning uchun bu qonunni **Buger-Lambert-**

**Beer** qonuni ham deyiladi. Bu qonunni q o'llanish sohasini **Vavilov** o'rgangan va u tushayotgan yorug'lik intensivligini  $10^{10}$ - $10^{20}$  martagacha o'zgartirganda ham **Buger** qonuni o'rinni ekanligini aniqlagan.

Aralashmali suyuq liklarda yorug'likni yutilishini har tomonlama o'rganib, Beer yutilish ko'rsatkichini (ekstinktsiya koeffitsientini), yorug'likni solishtirma yutilish ko'rsatkichi (**k**) va aralashma kontsentratsiyasi (**c**) ko'paytmasi sifatida tekshirdi:

$$\beta = kc \quad (4)$$

Bu yerda **k** – solishtirma yutilish ko'rsatkichi. Bunda Buger qonuni q oyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$I = I_0 e^{-ksx} \quad (5)$$

va yangi kattalik solishtirma yutilish ko'rsatkichi uchun quyidagi ifodani olamiz.

$$k = \frac{1}{cx} \ln \frac{I(x)}{I_0} \quad (6)$$

Beerning tajribalaridan olingan asosiy xulosalardan biri solishtirma yutilish ko'rsatkichi (**k**) aralashmalarning kontsentratsiyasiga bog'liq ligidir. Bu xulosa Beer qoidasi deb ataladi va asosan kichik kontsentratsiyali aralashmalar uchun o'rinnidir. Bundan tashqari ekstinktsiya (yutilish ko'rsatkichi) koeffitsienti kontsentratsiyaga proporsional ( $\beta$ , **s**) bo'lishi bilan birgalikda solishtirma yutilish ko'rsatkichi (**k**) tashqi faktorlarga bog'liq bo'lishi mumkin (temperatura, erituvchining tabiatiga va hokazo).

Xuddi shunga o'xshash bir jinsli moddalar uchun yutilish ko'rsatkichi moddaning zichligiga ( $\rho$ ) proporsional ekanligini qayd qilish mumkin, ya'ni

$$\beta = k\rho \quad (7)$$

(4) va (7) ifodalarni Beer qonuni (qoidasi) ham deyiladi. (4) va (7) lardagi:

$$k_c = \frac{\beta}{c} \quad (8) \text{ va } k_\rho = \frac{\beta}{\rho} \quad (9)$$

$k_c$  va  $k_\rho$ -larning doimiyligi aralashmalardagi molekulalarning

o'zaro ta'siri (kichik konsentratsiyalar) ekstinktsiya koeffitsientiga ta'sir qilmaslik darajada kichik bo'lganda o'rinli bo'ladi. Bu qoidaning fizik ma'nosi molekulaning yutish qobiliyati atrofidagi molekulalar ta'siriga bog'liq emasligidan iboratdir.

Konsentratsiya ancha kattalashganda, ya'ni yutuvchi modda molekulalari orasidagi masofalar kichiklashganda bu qonundan chetlashishlar kuzatiladi.

Buger-Beer qonuni (6) yorug'lik yutishni o'lchash yo'li bilan yutuvchi modda konsentratsiyasini aniqlash uchun juda foydalidir. Bu usul ko'pincha ximiyaviy analizi juda murakkab bo'lgan moddalar konsentratsiyasini tez topish uchun laboratoriya va sanoatda qo'llaniladi.

Bulardan tashqari ximiyaviy toza suyuq likni yoki aralashmani optik xususiyatlarini xarakterlash uchun muhitda yorug'likni o'tish koeffitsienti

$$A = \frac{I(x)}{I_0} = \text{yexr}(-\beta x) \quad (10)$$

va yorug'likni yutilishini xarakterlaydigan kattalikni aniqlash mumkin.


$$V = \frac{I_0 - I(x)}{I_0} \quad (11)$$

**A** va **V** koeffitsientlar ayniqsa tajriba har xil to'lqin uzunlikli yorug'likda olib borilganda spektral o'tish va yutilishni xarakterlovchi kattaliklar sifatida katta ahamiyatga ega bo'ladi.

## **QURILMA VA O'LCHASH METODIKASI.**

Suyuqliklarda yorug'likni yutilishini o'rganish va Buger-Lambert-Beer qonunini tekshirish uchun yasalgan qurilmaning sxemasi 1-rasmda berilgan.





Rasm 1.

U umumiy asosga (1) oʻrnatilgan boʻlib, gorizontal joylashgan yarimoʻtkazgichli lazerdan (3) 45 gradus burchak bilan joylashgan, yassi koʻzgu (5) va vertikal holda oʻrnatilgan tsilindr koʻrinishidagi kyuvetadan (6) iborat. Kyuvetaning yuqori uchiga fotodiod (9) oʻrnatilgan va hosil boʻlgan fototokni oʻlchash uchun (keng oʻlchash diapozoniga ega boʻlgan) raqamli mikroampermetrga (11) ulangan. Kyuveta maxsus rezina truba (14) orqali qoʻshimcha shisha idishga (12) ulangan. Bu idishga oʻrganilayotgan suyuqlik (8) solinadi va uni har xil balandligini aniq qoyish uchun maxsus kran (13) oʻrnatilgan. qoʻshimcha shisha idishni eng yuqori koʻtarilishi kyuvetaning uchiga joylashgan fotodioddan 3-5 sm pastroq da boʻlishi kerak.

Yarimoʻtkazgichli lazer monoxromatik parallel nurlar dastasini hosil qiladi va bu nur dastasi koʻzgodan qaytib suyuqlik sirtining past qismiga tik tushadi. Suyuqlikning maʼlum qalinligidan oʻtgan nurning intensivligi fotodiodda elektr tokini (fototok) hosil qiladi.

Bizga maʼlumki fotoelementlarda hosil boʻlgan fototok uning yuziga kelib tushayotgan yorugʻlikning intensivligiga toʻgʻri proporsionaldir. Demak biz suyuqlikning har xil qalinligiga mos keluvchi fototokni oʻlchab Beerilgan intensivlikdagi nurni ( $I_0$ )

qancha qismi suyuqlik tomonidan yutib qalinligini ( $I_0-I$ ) va qancha qismi suyuqlikdan oʻtganligini ( $I$ ) bilishimiz mumkin.

Kyuvetaning tashqi sirtiga joylashtirilgan darajalangan oʻlchagichlar 7 yordamida suyuqlik qatlamining aniq bilib va unga mos keluvchi fototokni oʻlchagan holda  $\beta$

$= \frac{1}{x} \ln\left(\frac{I(x)}{I_0}\right)$  formula orqali Beerilgan suyuqlikda yorug'likning yutilish (yoki ekstinktsiya koeffitsientini) ko'rsatkichini hisoblaymiz.

Bu yerda  $I_0$  ni bilish ma'lum qiyinchiliklar hosil qilishi mumkin. Agar  $I_0$  ni suyuqlik sirtiga tushayotgan yorug'likning intensivligi deb, ya'ni kyuvetada suyuqlik yo'qligida o'lchangan fototok orqali belgilashimiz mumkin. Lekin suyuqlik sirtiga nur kelib tushganda uning bir qismi suyuqlik sirtidan qaytadi.

Bu qiyinchilikni yengish uchun berilgan suyuqlikning (distirlangan suv) yoki aralashma uchun har xil qalinliklari uchun (suyuqlik balandligini 5-10sm ga o'zgartirib) o'tgan yorug'lik intensivligiga mos keluvchi fototokni o'lchab yorug'likning yutilish koeffitsientini hisoblash kerak. Masalan  $x_1$  qalinlik uchun intensivlik  $I_1$  bo'lsa va  $x_2$  uchun  $I_2$  yutilish koeffitsienti

$$\beta = \frac{1}{(x_2 - x_1)} \ln\left(\frac{I_2}{I_1}\right) \quad \text{bo'ladi.}$$

Yuqorida qayd qilingan o'lchashlarni bajarishga kirishishdan oldin berilgan qurilma bilan mukammal tanishib chiqish tavsiya qilinadi. Undan tashqari optik xususiyatlari o'rganiladigan suyuqlik va har xil kontsentratsiyadagi aralashmalar tayyorlanib, kontsentratsiyasini son qiymati ko'rsatilgan shisha idishlarga solinadi. Beerilgan kontsentratsiyali aralashma uchun tajribalar o'tkazilib bo'lingandan so'ng o'lchash kyuvetasi distirlangan suv bilan bir necha bor chayib tashlanadi. Buning uchun qo'shimcha shisha idishga distirlangan suv solinib bir necha marta yuqoriga ko'tarilib pastga tushirib chayib tashlanadi.

**Eslatma:** Suyuqlikli shisha idishni yuqoriga ko'tarilganda uning balandligi fotodiodning balandligidan **5 sm** pastroqda bo'lishi shart!

## M A SH Q - 1.

Bu mashqni bajarishdan asosiy maqsad distirlangan suvda yutilish ko'rsatkichini  $\beta$  hamda o'tish  $A$  va yutilish  $V$  koeffitsientlari aniqlanib, Buger Beer qonunining bajarilishi tekshiriladi.

Mashqni bajarish uchun **0,5** litrli shisha idishli distirlangan suv olinadi. Birinchi bo'lib shisha idishga (kran Beer) distirlangan suv solinib, uni shtativga ma'lum balandlikda joylashtiriladi. Fototokni o'lchash sxemasi ulanib, uni ish holatida ekanligini tekshirib ko'riladi. Yorug'lik manbai sifatida ishlatilayotgan lazer yoqilib, uni ishlash rejimi stabillashguncha (1-2 **min.**) kutiladi va lazer nuri ko'zguga qarab yo'naltiriladi. Bunda fotodiodda hosil bo'lgan tok o'lchanadi. Bu tok yorug'lik intensivligi boshlang'ich qiymatiga ( $I_0$ ) mos keladi. Bunda bir necha marta tokning qiymatini o'lchab, o'rtachasi olinadi. So'ngra rezina trubkadagi kran

ochilib suv sathini balandligini **5 sm** gacha ko'tariladi va kran berkitiladi. Yana tokni o'lchash sxemasi ulanib shu qalinlikka mos keluvchi fototokni mikroamper ko'rsatishidan yozib olinadi. Suvning ustuni to **35 sm** bo'lguncha har bir **5 sm** balandligidagi (demak **7** ta nuqtada) fototok o'lchab boriladi va o'lchashlar suv har **5 sm** ga kamaytirilib tajriba qaytariladi. Bu o'lchashlar **4-6** marta (yuqoriga **2-3** marta, pastga qarab **2-3** marta) qaytariladi va har suvning qalinligi uchun tokning o'rtacha qiymati olinadi.

Olingan natijalardan foydalanib yutilish ko'rsatkichi  $\beta$  hamda (10) va (11) ifodalardagi o'tish **A** va yutilish **V** koeffitsientlarini topamiz va q oyidagi jadvalni tuldiring.

No	$h, m$	$I_{,A}$	$I_{0,A}$	$\beta_{юк}$	A	$V_{yuk}$
1						
2						
3						
4						
5						

## M A SH Q - 2.

Bu mashq ni bajarishdan asosiy maqsad mis kuporasining suvdagi ma'lum konsentratsiyali eritmasi yoki kanifolning spirdagi eritmasining distirlangan suvdagi aralashmasi uchun

yutilish ko'rsatkichini  $\beta$  hamda o'tish **A** va yutilish **V** koeffitsientlari aniqlanib, Buger–Lambert qonuni bajarilishini o'rganish.

Mashq ni bajarish uchun **0,5** litrli shisha idishda yarim litr miqdorda tayyorlangan mis kuporosining suvdagi eritmasi (**1-3 %** atrofida) olinadi.

Birinchi bo'lib shisha idishga (kran BeerK) mis kuporosining suvdagi eritmasi solinib uni shtativga ma'lum balandlikda joylashtiriladi.

Fototokni o'lchash sxemasi ulanib, uni ish holatida ekanligini tekshirib ko'riladi.

Yorug'lik manbai sifatida ishlatilayotgan lazer yoqilib, uni ishlash rejimi stabillashguncha (**1-2 min.**) kutiladi va lazer nuri ko'zguga qarab yo'naltiriladi.

Bunda fotodiodda hosil bo'lgan tok o'lchanadi. Bu tok yorug'lik intensivligi boshlang'ich qiymatiga ( $I_0$ ) mos keladi. Bunda bir necha marta tokning qiymatini o'lchab, o'rtachasi olinadi. So'ngra rezina trubkadagi kran ochilib eritma sathini balandligini **5 sm** gacha ko'tariladi va kran berkitiladi. Yana tokni o'lchash sxemasi ulanib shu qalinlikka mos keluvchi fototokni mikroamper ko'rsatishidan yozib olinadi. Eritma ustuni to **35 sm** bo'lguncha har bir **5 sm** balandligidagi (demak **7** ta nuqtada) fototok o'lchab boriladi va o'lchashlar suv har **5 sm** ga kamaytirilib tajriba qaytariladi. Bu o'lchashlar **4-6** marta (yuqoriga **2-3** marta, pastga qarab **2-3** marta) qaytariladi va har eritmaning qalinligi uchun tokning o'rtacha qiymati olinadi.

Olingan natijalardan foydalanib yutilish ko'rsatkichi  $\beta$  hamda (10) va (11) ifodalardagi o'tish **A** va yutilish **V** koeffitsientlarini topamiz.

Olingan natijalarni bir-biri bilan taqqoslab xulosalar chiqarish kerak.

### NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Ishning maqsadi va bajarilish tartibi.
2. Yorug'lik to'lqini suyuqliklarda tarqalganda qanday jarayonlar roy berishi mumkin?
3. Buger qonunini ta'riflang va ifodasini yozing.
4. Buger-Beer qonunini tushuntiring va ifodasini yozing.
5. Ushbu qonunlarning qo'llanish chegarasi nimalarga bog'liq ligini tushuntiring.
6. Yorug'likning yutilishining kvant nazariyasi.

#### Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni.

Mustaqil ish uchun talabalarning bilimlarini chuqurlashtiradigan, boshqa tabiiy fanlarga ham aloqasi bo'lishi mumkin bo'lgan fundamental mavzular tanlanadi. Mustaqil ish o'qituvchining talabalarga avvalda berib qoyiladigan fanning mavzulari asosida tashkil etiladi.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashi uchun fanning muayyan xususiyatlarini xisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanishi tavsiya etiladi:

Amaliy mashg'ulot, laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik va olingan natijalarni qayta ishlash;

darslik va o'quv qo'llanmalar boyicha fan boblari va mavzularini o'rganish;  
tarqatma materiallar boyicha maruzalar qismini o'rganish;  
avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;  
maxsus adabiyotlar boyicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;  
talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish; kurs ishiga tayyrlash va uni ximoya qilish;  
faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;

#### 4. Mustaqil ishlarning mavzulari:

№	Mustaqil ishlarning mavzulari	Berilgan topshiriqlar	Soat
1	Spektral qurilmalarning apparat funksiyasi. Spektr intensivligini chastota boyicha taqsimoti. Lorents va Gauss taqsimotlari.	O'quv adabiyotlari yordamida mustaqil ishlash	6
2	Spektral qurilmalarning ajrata olish qobiliyati. Prizmalı va difraksion panjarali spektral qurilmalar, ularning farqi va afzalliklari.	O'quv adabiyotlari yordamida mustaqil ishlash	6

3	Fotoelementlar, fotoqarshiliklar, fotodiodlar, fotoko'paytirgichlar, termoparalar va bolometrlar.	O'quv adabiyotlari yordamida mustaqil ishlash	6
4	Muxitlarni tashkil qilgan atom va molekulalarning xossalari sifat va miqdoriy analiz usullari yordamida o'rganish.	O'quv adabiyotlari yordamida mustaqil ishlash	8
5	Chiziqli (diskret) va uzliksiz spektrlarni xossalari.	O'quv adabiyotlari yordamida mustaqil ishlash	8
6	Dispersiyaning elementar nazariyasi.	O'quv adabiyotlari yordamida mustaqil ishlash	6
7	Molekulyar va kombinatsion nur sochilishining fizikaviy asoslari.	O'quv adabiyotlari yordamida mustaqil ishlash	6
8	Mexanik va elektr parametrik generatorining ishlash prinsiplari.	O'quv adabiyotlari yordamida mustaqil ishlash	8
9	Qattiq jism lazerlari.	O'quv adabiyotlari yordamida mustaqil ishlash	6
<b>Jami</b>			<b>60</b>

## GLOSSARY

**Spektrometr** – optik spektr nurlanishlarini fotoelektrik qayd etish orqali o'lchash va tahlil qilish asbobi.

**Spektrometr turlari**- Agarda dispersiyalovchi elementdan so'ng ingichka tirqish qoyilsa u holda chiqishda faqat bitta to'lqin uzunligidagi nur chiqadi. Bu turdagi qurilmani monoxramator.

Agarda bir nechta tirqish qoyilib bir nechta to'lqin uzunligini olsak u holda polixromator. Spektorni qayd qilish usullariga qarab:Spektroskop - agarda kuzatish vizual

**Spektrograf** - agarda spektr fotoplastikaga qayd qilinsa

**Spektrometr** - agarda fotoqabul qilgich ishlatilsa

**Yorug'lik spektri** -bu yorug'lik intensivligini (energiyasini) chastotalar (to'lqin uzunligi) bo'yicha taqsimoti.

Spektr modda atomini tuzilishini tushintirishda eng asosiy qurol.

Spektroskopiya-elektromagnit nurlanishning hamda akustik to'lqinlarning modda bilan o'zaro ta'sirini o'rganadigan fan.

Spektral qurilmalarni xarakterlovchi kattaliklar-1-tirqish, 2-dispersiya hosil qiluvchi element, 3-linza, 4-fokal ekislik, 5-qabul qilgich

**Frangoufer spektrometri.** Bu usul dispersiya hodisasiga asoslangan ya'ni  $n(\lambda)$ . Shunday moddadan yasalgan prizma spektrometr asosi bo'ladi.

Apparat funksiya - sistemaga monoxramatik yorug'lik tushganda chiqishdagi yoritilganlik taqsimotini berdigan funksiyadir.

Reliy kriteriyasi:- eng kichik ajrata olishi mumkin bo'lgan interval deb shu konturdagi bosh maksimum va birinchi minimum orasidagi masofani aytamiz.

**Qurilmaning burchak dispersiyasi**  $-D_{\varphi} =$  buni aniqlash uchun yana o'sha asosiy tenglamalar sepsmasini differensiyalash kerak bo'ladi va  $\frac{d\alpha_1}{d\lambda}=0$  tushish burchagini o'zgarmas deb hisoblasak u holda prizmani eng kata og'ish burchagida o'rnatilgan deb dispersiya uchun olamiz.

**Chiziqli spektr** -chiziqli spektrni olish uchun kop xollarda past bosmdagi gazlarda yoki metan parlaridan ekekr toki o'tkaziladi.

**Monoxromatik nurlanish** bu bitta to'lqin uzunligini o'z ichiga olgan nurlanishdir.

**Yarim otkazgichli lazerlar.**- Ularning spektral kengligi qattiq jismlarnikidan ham keng.

**Gaz lazerlari**- gaz lazerlarini eng yorqin nomoyondasi He-Ne lazer, uning nurlanishi ota tor diapozonda boladi.

**Kepen** - bu fotografik materiallarga yorug'lik bilan kirishga imkon beradigan qurilma (4.5 bo'lim).

**Samarali diafragma koeffitsienti** fotografik linzalarning yorug'lik uzatish koeffitsientini hisobga olgan holda diafragma nisbati hisoblanadi (4.1.3 bo'lim).

**Spektral ajratishi** yani ikki bir biriga yaqin chiziqlarni ajrata olish qobilyati ~20%

**.Qorayish darajasi** ekspozitsiyasiga nochiziqli ba ota murakkab boglangan shuning uchun emperik egri chiziq bilan ifodalanadi

**Ko'z bilan ko'rish qobilyati** (giperopiya) bu ko'rish qusuridir, unda juda uzoq masofadagi nuqta manbai nurlari retinaning orqasida joylashgan (2.4.2-bo'lim).

**Rangefinder** - masofalarni o'lchash vositasi.

**Ko'zning eng uzoq nuqtasi** - bu ko'zning bo'shashgan joyi uchun ko'zning to'r pardasida aniq tasvir hosil bo'ladigan ob'ektning pozitsiyasi (2.1.3-bo'lim).

**Ko'zni joylashtirish oralig'i** - bu ko'zning yaqin va uzoq nuqtalari orasidagi masofalarning o'zaro qiymatlari o'rtasidagi farq

**Spektral sezgirlik** -Turli fotokatodlar uchun turlicha, yarim balandligida spektral sezgirlik 200÷400A0 [m/vt] atrofida boladi.

**Sezuvchanlik**-, uni xarakterlash ancha murakkab, shuning uchun turli GOST lar mavjud. Shuning uchun ekvivalent kvant chiqishi tushunchasi kiritiladi.

**Fotoelektron kuchaytirgichlar**-Fotoelektron kuchaytirgichlar kuchsiz signallarni qabul qilishda ishlatiladi.Ularni ishlashi ikkilamchi emissiyasi xodisasiga asoslanga

**Nanozarrachalar** va yirik metallar yutilish spektrlaridagi farqlar ularning dielektrik singdiruvchanliklari farqi tufayli yuz beradi  $\epsilon = \epsilon_1 + \epsilon_2$ .

**O'lchamlik effekti** - yorug'likning rezonans yutilishi choqqisining siljishidir

**Dielektrik sindiruvchanlikni nurlanish chastotasiga bogliqligi**-Dielektrik sindiruvchanlik nurlanish chastotasiga monoton emas, balki elektronlar holatlari orasidagi otishlar tufayli tez ozgarib turuvchi holda boglangan.

**Mi nazariyasi**- unda yorug'lik yutilishining eng katta qiymatiga  $\epsilon_m = -\epsilon_1()$  sharoitida erishiladi.

**yoruglik yutilish sohasi kengligi**- zarrachalar olchamining murakkab funksiyasi bolib, u  $D_{1,1nm}$  atrofida eng katta qiymatga erishadi

**Diffraktsiya bilan cheklangan tizimlar** -bu optik tizimlar bo'lib, bunda abratsiyalar kichik va tasvir sifati asosan diffraktsiya hodisalari bilan aniqlanadi

**FAZOVIY SINXRONIZM**-jamlash to'lqini energiyasi uyg'ongan to'lqinlarga eng nafli tarzda uzatiladigan hol uchun optik jamlash to'lqini va uning muhitda uyg'ongan to'lqinlari fazalari orasidagi nisbat.

**GAZ LAZER**-Газовый лазер-faol muhiti gazdan iborat bo'lgan lazer.

**IKKILAMCHI NURLANISH**-tushayotgan elektromagnit nurlanish ta'sirida dipol elektrik momentlari majburiy tebranishlarni bajarayotgan atomlar yoki molekulalar chiqadigan elektromagnit nurlanish.

**IMPULS FOTOMETRIYA**-impulsning yorug'lik oqimlarini va ular yordamida jismlarning optik tavsiflari (qaytarish koeffitsiyenti, o'tkazish koeffitsiyenti va boshq.)ni o'rganuvchi fotometriya yo'nalishi.

**KOGERENT SINXROTRON NURLANISH**-quvvati dastadaga zarralar sonining kvadratiga mutanosib bo'lgan guruhlangan zarralar dastasining sinxrotron nurlanishi qismi.

**KOGERENT SOCHILISH** - tushuvchi to'lqinning fazasi sochilgan to'lqinning fazasini bir qiymatli aniqlab beradigan yorug'lik sochilishi.

**KOGERENTLIK** - bir nechta tebranma yoki to'lqin jarayonlarning ularning qo'shilishida namoyon bo'luvchi vaqt va fazoda uyg'un kechishi.

**KOGERENTLIK UZUNLIGI** – to'lqinning tarqalish yo'nalishida maydonning vaqt boyicha fazalar farqi saqlanadigan eng katta uzunligi

**LAZER**-inglizcha laser-Light Amplification by Stimulated Emission of Radiation“majburiy nurlanish tufayli yorug'likning kuchayishi” so'zlarining bosh harflaridan-optik rezonatorda joylashgan faol muhitning majburiy nurlanishi natijasida kogerent elektromagnit to'lqinlar chiqaruvchi kvant generator.

**LAZER SPEKTROSKOPIYA**-lazer nurlanish yordamida olingan yorug'likni chiqarish, yutilish va sochilish spektrlarini o'rganuvchi spektroskopiya bo'limi.

**kristallari elektronlarini qozgotish** kuchsiz boglangan elektron-kovak juftligi eksitonlar hosil bolishiga olib keladi

**Eksiton tarqalish** (delokalizatsiya) sohasi yarimo'tkazgich kristal panjarasi davridan ko'p marta ortiq bo'lishi mumkin

**Effektiv kengligini ortishi**- zarracha o'lchami kichrayishi taqiqlangan zona effektiv kengligi ortishiga olib keladi. .

**Kvant holati** -kvant sistemasi bolishi mumkin bolgan barcha xolatlar

**Holat vektori** - kvant sistemasini toliq tavsif qiladigan matematik kattaliklar yigindisi (koordinata, spin, impuls ...).

**Toza holat** - bitta holat vektori bilan tavsif qilinishi mumkin bolgan holat (bitta tolqin funksiyasini topish etarli).

**Aralash holat** - bitta holat vektori bilan tavsif qilinishi mumkin bolmagan va zichlik matritsasini talab qiladigan holat

**Matritsalar**- Matritsalar yordamida nafaqat nurning tarqalishini ifodalash mumkin, balki sferik tolqin tarkalishini xam ifodalasa boladi.

**Gauss taqsimoti**-Kuchaytiriladigan yoruglik kundalang kesimidagi intensivlik taksimoti kop xollarda Gauss taqsimotiga ega

**Fabri Pero interferometri** lazer kurilmalarida rezonator rolini bajaradi.

**Yorug'lik sochilishi**-elektronlarning majburiy tebranishlari tufayli paydo bo'ladigan ikkilamchi to'lqinlar yorug'liklik to'lqini olib kelayotgan energiyaning bir qismini chetga sochib yuborishi.

**YORUG'LIK LOKATSIYASI** - uzoqlashgan obektlarni oshkor qilish va holatini hamda shaklini ultrabinafshadan infraqizil nurlanishgacha diapazondagi elektromagnetik to'lqinlar yordamida aniqlash usullari majmui

**Xira muhitlar**- Optik nobirjinsiligi oshkor bo'lgan muhitlar

**Sochilish indikatrasi**-Turli yo'nalishlar boylab sochilgan yopyg'likning intensivligi taqsimotini ko'rsatuvchi grafik

**Reley qonuni**- Sochilgan yorug'likning intensivligi to'lqin uzunligining to'rtinchi darajasiga teskari proporsional ekan

**optik nobirjinslilik namoyon bo'lishi**- uning sababini L.I. Mandelshtam va M. Smoluxovskiylar zichlik fluktuatsiyasida deb topadi.

**Kritik opalestsentsiya**-Gaz yoki suyuqlikning kritik temperaturasida yorug'lik intensiv ravishda sochilishi (kritik opalestsentsiya)

**SPEKTROGRAF**-spektr va yunoncha grapho-yozaman-asbob optik tizimining fokal tekisligida yoyilgan barcha nurlanish spektrlarini bir vaqtda qayd qilish asbobi.

**SPEKTROMETR**-spektr va yunoncha metro-o'lchayman- 1) biror fizik kattalikning qandaydir parametr boyicha taqsimot funksiyasini o'lchash asbobi; 2) optik spektrlarni nurlanishning fotoelektrik qabul qilgichlari yordamida o'lchash asbobi.



**SPEKTROMETRIYA**-spektrlarni o'lchash nazariyasi va ularning usullariga bag'ishlangan fizika bo'limi.

**SPEKTROSKOPIYA**-elektromagnit nurlanish spektrlarini o'rganishga bag'ishlangan fizika bo'limi.

**SPEKTROFOTOMETR**-o'lchanadigan nurlanish oqimini nurlanishning uzluksiz yoki uzlukli to'lqin uzunliklar qatori uchun etalon bilan taqqoslaydigan spektral asbob.

**MAJBURIY SOCHILISH**-modda tarkibiga kiruvchi mikrozarralarning katta jadallikli yorug'lik to'lqini ta'sirida harakati o'zgarishi natijasida yorug'likning moddada sochilishi.

## ГЛОССАРИЙ

Спектрометр - это устройство, которое измеряет и анализирует оптическое спектральное излучение с помощью фотоэлектрической записи.

Типы спектрометров - если после диспергирующего элемента размещена тонкая щель, то на выходе излучается свет только одной длины волны. Этот тип устройства представляет собой монохроматор.

Если сделать несколько отверстий и получит несколько длин волн, то получится полихроматор.

В зависимости от метода записи спектра: Спектроскоп - если наблюдение визуальное.

Спектрограф - если спектр записан в фотопластике

Спектрометр - если используется фотоприемник

Спектр света - это распределение интенсивности (энергии) света по частотам (длинам волн).

Спектр - это самое основное оружие в объяснении структуры атома материи.

Спектроскопия - это исследование взаимодействия электромагнитного излучения и акустических волн с веществом.

Размеры, характерные для спектральных приборов - 1 щель, 2 элемента дисперсии, 3 линзы, 4 фокусное расстояние, 5 приемников.

Спектрометр Франгуфера. Этот метод основан на явлении дисперсии, то есть  $n(\lambda)$ . Призма из такого вещества - основа спектрометра.

Аппаратная функция - это функция, которая распределяет световой поток на выходе, когда в систему попадает монохроматический свет.

Критерий реле: - Наименьший различающий интервал - это расстояние между основным максимумом и первым минимумом в этом контуре.

Угловая дисперсия устройства  $-D_{ph} = \frac{da_1}{dl}$  = Чтобы определить это, нам нужно дифференцировать решение тех же основных уравнений, и если мы предположим, что угол падения  $(da_1) / dl = 0$  не меняется, то дисперсия устанавливается на максимальный угол наклона призмы. мы получаем за.

Линейный спектр - чтобы получить линейный спектр, эксцентрический ток часто пропускается через газы низкого давления или пары метана.

Монохроматическое излучение - это излучение, содержащее одну длину волны.

Полупроводниковые лазеры. Их спектральная ширина шире, чем у твердых тел.

Газовые лазеры - самым ярким представителем газовых лазеров является гелий-неоновый лазер, излучение которого находится в узком диапазоне.

Затвор - это устройство, позволяющее свету проникать в фотоматериалы (раздел 4.5).

Эффективный коэффициент диафрагмы - это светосила, учитывающая коэффициент светопропускания фотографического объектива (раздел 4.1.3).

Спектральное разделение, т.е. способность различать две близко расположенные линии  $\sim 20\%$

.Степень потемнения представлена эмпирической кривой, так что нелинейная база связана с комплексом.

Острота зрения (дальнозоркость) - это дефект зрения, при котором лучи точечного источника на очень большом расстоянии расположены позади сетчатки (раздел 2.4.2).

Дальномер - это инструмент для измерения расстояний.

Самая дальняя точка глаза - это позиция объекта, где на сетчатке глаза формируется четкое изображение для свободной области глаза (раздел 2.1.3).

Диапазон расположения глаз - это разница между взаимными значениями расстояний между ближней и дальней точками глаза.

Спектральная чувствительность - разная для разных фотокатодов, спектральная чувствительность на полувысоте составляет около  $200 \div 400 \text{ \AA}$  [м / w].

Чувствительность-, ее характеристика намного сложнее, поэтому есть разные ГОСТы. Поэтому вводится понятие эквивалентного квантового выхода.

Фотоэлектрические усилители - для приема слабых сигналов используются фотоэлектрические усилители, работа которых основана на явлении вторичной эмиссии.

Различия в спектрах поглощения наночастиц и крупных металлов возникают из-за разницы в их диэлектрической проницаемости  $\epsilon = \epsilon_1 + \epsilon_2$ .

Размерный эффект - это сдвиг пика резонансного поглощения света.

Зависимость диэлектрического поглощения от частоты излучения. Диэлектрическое поглощение связано с частотой излучения, которая не монотонно, а быстро изменяется из-за скачков между электронными состояниями.

В теории Ми максимальное значение поглощения света достигается при условии  $m = -e1$  ().

Ширина светопоглощающего поля является сложной функцией размера частицы, которая достигает максимального значения около  $D_{1,1}$  нм.

Системы, ограниченные дифракцией, представляют собой оптические системы, в которых абразивное истирание невелико, а качество изображения в основном определяется явлениями дифракции.

**КОСМИЧЕСКИЙ СИНХРОНИЗМ** - отношение фаз оптической волны конвергенции и ее возбужденных волн в окружающей среде для того, чтобы энергия волны конвергенции наиболее желательным образом передавалась возбужденным волнам.

**ГАЗОВЫЙ ЛАЗЕР** - Газовый лазер - это лазер, в котором активной средой является газ.

**ВТОРИЧНОЕ ИЗЛУЧЕНИЕ** - электромагнитное излучение, испускаемое атомами или молекулами, дипольные электрические моменты которых совершают вынужденные колебания под действием падающего электромагнитного излучения.

**ИМПУЛЬСНАЯ ФОТОМЕТРИЯ** - направление фотометрии, изучающее световые потоки импульса и оптические характеристики объектов (коэффициент отражения, коэффициент проводимости и др.).

## GLOSSARY

A spectrometer is a device that measures and analyzes optical spectral radiation using photoelectric recording.

Types of spectrometers - if a thin slit is placed after the dispersing element, then only one wavelength of light is emitted at the output. This type of device is a monochromator.

If you make several holes and get several wavelengths, you get a polychromator.

Depending on the method of recording the spectrum: Spectroscope - if the observation is visual.

Spectrograph - if the spectrum is recorded in photoplastic

Spectrometer - if a photodetector is used

The spectrum of light is the distribution of the intensity (energy) of light over frequencies (wavelengths).

The spectrum is the most basic weapon in explaining the structure of the atom of matter. Spectroscopy is the study of the interaction of electromagnetic radiation and acoustic waves with matter.

Dimensions typical for spectral devices - 1 slit, 2 dispersion elements, 3 lenses, 4 focal lengths, 5 receivers.

Frangifer spectrometer. This method is based on the phenomenon of variance, that is,  $n(l)$ . A prism made of such a substance is the basis of the spectrometer.

A hardware feature is a feature that distributes the output light when monochromatic light enters the system.

Relay criterion: - The smallest discriminating interval is the distance between the main maximum and the first minimum in this circuit.

Device angular dispersion  $-D_{ph} = \frac{dn}{d\lambda}$ . To determine this, we need to differentiate the solution to the same basic equations, and if we assume that the angle of incidence ( $da_1$ ) /  $dl = 0$  does not change, then the variance is set to the maximum tilt angle of the prism. we get for.

Linear spectrum - To obtain a linear spectrum, an eccentric current is often passed through low pressure gases or methane vapors.

Monochromatic radiation is radiation containing a single wavelength.

Semiconductor lasers. Their spectral width is wider than that of solids.

Gas lasers - the brightest representative of gas lasers is the helium-neon laser, the radiation of which is in a narrow range.

A shutter is a device that allows light to enter photographic materials (section 4.5).

The effective aperture ratio is the aperture ratio that takes into account the light transmittance of the photographic lens (Section 4.1.3).

Spectral separation, i.e. the ability to distinguish between two closely spaced lines ~ 20%

The degree of darkening is represented by an empirical curve, so the nonlinear base is related to the complex.

Visual acuity (farsightedness) is a visual defect in which the rays of a point source are located at a very large distance behind the retina (section 2.4.2).

Rangefinder is a tool for measuring distances.

The farthest point of the eye is the position of the object where a clear image is formed on the retina for the free area of the eye (section 2.1.3).

The eye range is the difference between the mutual values of the distance between the near and far points of the eye.

The spectral sensitivity is different for different photocathodes, the spectral sensitivity at half maximum is about  $200 \div 400 \text{ \AA}$  [m / w].

Sensitivity - its characteristics are much more complicated, therefore there are different GOSTs. Therefore, the concept of equivalent quantum efficiency is introduced.

Photovoltaic amplifiers - to receive weak signals, photovoltaic amplifiers are used, the work of which is based on the phenomenon of secondary emission.

Differences in the absorption spectra of nanoparticles and large metals arise because of the difference in their permittivity  $\epsilon = \epsilon_1 + \epsilon_2$ .

The size effect is the shift of the resonant absorption peak of light.

Dielectric absorption versus radiation frequency. Dielectric absorption is related to the radiation frequency, which is not monotonic, but changes rapidly due to jumps between electronic states.

In the Mie theory, the maximum value of light absorption is achieved under the condition  $\text{em} = -\epsilon_1$  ().

The light-absorbing field width is a complex function of the particle size, which peaks at around  $D_{1.1}$  nm.

Diffraction-limited systems are optical systems in which aberration is low and image quality is mainly determined by diffraction phenomena.

SPACE SYNCHRONISM - the ratio of the phases of the optical convergence wave and its excited waves in the environment so that the convergence wave energy is transferred to the excited waves in the most desirable way.

GAS LASER - A gas laser is a laser in which the active medium is gas.

SECONDARY RADIATION - electromagnetic radiation emitted by atoms or molecules, the dipole electric moments of which are forced to oscillate under the influence of incident electromagnetic radiation.

IMPULSE PHOTOMETRY - the direction of photometry, which studies the light fluxes of a pulse and the optical characteristics of objects (reflection coefficient, conductivity coefficient, etc.).

## Foydalanilgan o'quv adabiyotlar royxati

### Asosiy adabiyotlar

1. Yaskolko V.Y., Otajonov Sh., Muxamedxanova SH. Fizicheskaya optika. T 1999.
2. Ayvazova A.A., Valiev U.V., Muxamedxanova SH., Otajonov SH., Yaskolko V.Y. Spesraktikum po optike i spektroskopii T.2005.
3. Zvelto O. Prinsip lazerov /Per. pod nauch. red. T. A. Shmaonova. 4-e izd. — SPb.: Izdatelstvo «Lan», 2008. — 720 s.
4. Kaliteevskiy N.I. Volnovaya optika M. 2006.
5. M.M.Mirinoyatov. “Lazerlar fizikasi va texnikasi” T.Universitet, 2009, 92 6.

### Qo'shimcha adabiyotlar

1. Apenko M.I., Dubovik A.S. Prikladnaya optika. M.1971 g.
2. Zaydel A.N., Ostrovskaya G.V., Ostrovskiy Y.I. 3. Texnika i praktika spektroskopii. M.1976.
3. Krestov G.A. Ionnaya solvatatsiya M. 1987
4. Nagibina I.M., Prokofev V.K. Spektralnie pribori texnika spektroskopii M.1963.
5. Klimokgovich Y.A. Kvantoviy generatora sveta i nelineynaya optika. «Prosveshenie», 1968.
6. Ishenko Ye.F., Klimov Y.M. «Opticheskie kvantovie generatora», Sov.Radio, 1968.
7. A. Yariv. Kvantovaya elektronika i nelineynaya optika. Sov.Radio, 1974.
8. Axmanov S.A., Nikitin S.Y. Fizicheskaya optika. Izdatelg'stvo. M. «Nauka», 2004
9. Shei M.R. Prinsip nelineynoy optika. M. «Nauka», 1989.

### Elektron manbalar

1. Ilmiy jurnallar [www.infomag.ru](http://www.infomag.ru)
2. [www.cta.ru](http://www.cta.ru) – sovremennaya texnika avtomatizatsii
3. <http://www.colorado.edu/physics/2000/lasers/index.html> Lazerlar, ishlash printsiplari, animatsiyalar.